

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

ASHUROV ABDULLO FAYZULLOEVICH

# **DAVLAT KADASTRLARI MA'LUMOTLARI BAZASI**

TOSHKENT – 2021

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

ASHUROV ABDULLO FAYZULLOEVICH

# **DAVLAT KADASTRLARI MA'LUMOTLARI BAZASI**

**"Davlat kadastrlari ma'lumotlari bazasi" o'quv qo'llanmasi 5311500  
"Geodeziya, kartografiya va kadastr" yo'nalishidagi oliy o'quv yurtlari  
talabalari va shu soha mutaxassislari uchun mo'ljallangan**

TOSHKENT - 2021

O'quv qo'llanmada davlat kadastrining nazariy asoslari, uning mazmuni, tarkibiy qismlari, fanni o'rganishning maqsadi va vazifalari, yuritish tamoyillari va usullari hamda yagona davlat kadastrlari tizimi bo'yicha kadastr ma'lumotlari bazasini yaratish masalalari yoritilgan.

Mazkur qo'llanma dolzarb masalaga – davlat kadastro asoslari - yer kadastro, ko'chmas mulk bo'lmish, bino va inshootlar kadastrini, tabiatni muhofaza qilish borasida beqiyos ahamiyatga ega bo'lgan hayvonot va o'simlik dunyolari ob'ektlari kadastrlarini yuritish muammolariga bag'ishlangan. Unda yuritiladigan kadastr ishlari bo'yicha Davlat kadastrlari yagona tizimiga kiritiladigan ma'lumotlar bazasi haqidagi talablar, ularning huquqiy, me'yoriy asoslari, kadastrlarni yuritishda zarur bo'ladijan asoslar va tasvirlov ishlari yoritilgan.

"Davlat kadastrlari ma'lumotlari bazasi" o'quv qo'llanmasi "Yerdan foydalanish va yer kadastro", "Atrof muhit muhofazasi" yo'nalishlaridagi oliy o'quv yurtlari talabalari va shu sohalar mutaxassislari uchun mo'ljallangan.

Mas'ul muharrir: Q.Raxmonov

Taqrizchilar: Toshkent irrigaçiya va qishloq xo'jaligini mexni-zaiçiyalash muxandislari institutining "Yerdan foydalanish kafedrasи доценти, i.f.n., O.Bobojonov

Toshkent arxitektura va qurilish institutining  
"Geodeziya kartografiya va kadastr" kafedrasи доцент  
B.Nazarov

Ashurov A.F.  
«Davlat kadastrlari ma'lumotlari bazasi». O'quv qo'llanma., T., 2021.- 135 b.

**UDK 332.2**

© Toshkent irrigaçiya va melioraçiya instituti, 2021 y.

# MUNDARIJA

## Kirish

I.	O'zbekiston Respublikasi Davlat kadastrlari yagona tizimini tashkil etish va uni yuritish tartibi.....	7
1.1.	Davlat kadastrlari yagonama'lumotlar bazasining geoaxborot tizimiga tegishli tematik qatlamlarni shakllantirish va ularni Davlat kadastrlari yagona tizimiga taqdim etish.....	9
1.2.	Davlat kadastrlari yagona tizimiga tegishli davlat kadastrlari ma'lumotlarini taqdim etish.....	13
1.3.	Davlat kadastrlari yagona tizimining geoaxborot tizimiga taqdim etiladigan ma'lumotlarning tarkibi va mazmuni.....	15
1.4.	Hududlar davlat kadastrining maqsadlari va vazifalari.....	24
1.5.	Davlat kadastrlari malumotlari bazasini yaratishda hududlar davlat kadastrini yuritish.....	24
1.6.	Hududlarning davlat kadastri tuzilmasi hamda uni tuzishni tashkil etish va yuritish.....	25
1.7.	Hududlarning davlat kadastrini tuzish tartibi.....	34
1.8.	Hududlarning davlat kadastri axborotini foydalanuvchilarga byerish .....	41
II.	Davlat kadastrlari ma'lumotlari bazasini yaratishda geofazoviy ma'lumotlardan foydalanish.....	43
2.1.	Geofazoviy ob'ektlar to'g'risida tushuncha.....	44
2.2.	Geofazoviy ma'lumotlar koordinatalarning davlat va mahalliy tizimlari.....	45
III.	Xorijiy mamlakatlarda davlat kadastrlarini yuritish tajribalari.....	47
3.1.	Rossiya federaliyasidavlat kadastrlarini yuritish.....	47
3.2.	G'arbiy Evropa davlatlarining kadastr tizimi.....	50
3.3.	Janubiy Evropa davlatlari tizimlari.....	52
IV.	YAngi va raqamli iqtisodiyot sharoitidagi zamonaviy texnolo-giyalar davrida o'zgarishlar, ustuvor yo'naliishlar, yutuqlar va rejalar.....	53

4.1. Birinchi qadam — zamonaviy AKT - infratuzilmani yaratish.....	54
4.2. To'laqonli IT - ekotizimini barpo etish — muhim masala.....	56
4.3. Qulay onlayn xizmatlar ko'lami.....	58
4.4. Kadrlar bilan ta'minlanganlik darajasi.....	59
4.5. YAqin davrdagi vazifalar.....	61
4.6. Agrar sohada ham raqamli texnologiyalar.....	63
Y. Davlat kadastrlarini yuritish ishlarini yuritishni takomillashtirish.....	65
5.1. Hayvonot va o'simlik dunyosi ob'ektlarining davlat kadastrlarini yuritish ishlarini yuritishni takomillashtirish.....	66
5.2. Hududlarni kadastr bo'yicha tekshirish, hayvonot dunyosi ob'ektlarini davlat tomonidan hisobga olish va ulardan foydanish hajmlarini hisobga olish tartibi.....	69
5.3. Hayvonot dunyosi ob'ektlari davlat kadastrining tarkibi.....	73
5.4. Hayvonot dunyosi ob'ektlarining davlat hisobini, ulardan foydanish hajmlari hisobini va davlat kadastrini yuritish tartibi .....	79
5.5. Hayvonot dunyosi ob'ektlarining kadastr ma'lumotlarini taqdim etish.....	85.
5.6. Kadastr ma'lumotlarini hisobot shakllariga kiritish.....	88
5.7. Ro'yxatdan o'tkazish kitobini yuritish.....	93
5.8. Kadastr ma'lumotlarini hududiy darajaga taqdim etish.....	94
5.9. O'simlik dunyosi ob'ektlarining davlat hisobini, ulardan foydanish hajmlari hisobini va davlat kadastrini yuritish tartibi.....	97
5.10. Hududlarni kadastr bo'yicha tekshirish, o'simlik dunyosi ob'ektlarini davlat tomonidan hisobga olish va ulardan foydanish hajmlarini hisobga olish tartibi.....	101
5.11.O'simlik dunyosi ob'ektlarining davlat kadastrining Tarkibi.....	105

5.12.O'simlik dunyosi ob'ektlarining davlat kadastrini yuritish tartibi.....	107
5.13. Ro'yxatdan o'tkazish kitobini yuritish.....	113
5.14. Ro'yxatdan o'tkazish kitobini saqlash.....	116
5.15. O'simlik dunyosi ob'ektlari kadastri ma'lumotlarini hisobot shakllariga kiritish.....	120
5.16.O'simlik dunyosi ob'ektlari bo'yicha kadastr ma'lumotlarini hududiy darajaga taqdim etish.....	120
YI. GLOSARIY.....	121

## **Kirish**

YAngilanayotgan O'zbekiston o'z oldiga bugun shunchaki rivojlanishni emas, balki jamiyat hayotining turli sohalarida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar natijasida eng kuchli davlatlar qatoridan o'ren olish-ni asosiy marra qilib qo'ygan. Buni oldindan ko'ra bilgan, his qilgan Pre-zidentimiz SHavkat Mirziyoyev joriy yildagi parlamentga Murojaatnoma-sida taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar hamda zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shartligi, bu bizga yuksalishning eng qisqa yo'lidan borish imkoniyatini byerishi, zyero, bugun dunyoda barcha sohalarga axborot texnologiyalari chuqur kirib borayotganligiga alohida e'tibor qaratdi.

SHuningdek, raqamli iqtisodiyotni shakllantirish kyerakli infratuzil-ma, ko'p mablag' va mehnat resurslarini talab etishi, biroq qanchalik qiyin bo'lmasin, bu ishga bugun kirishishimiz zarurligi, Shu bois raqamli iqtiso-diyotga faol o'tish – kelgusi besh yildagi eng ustuvor vazifalarimizdan biri sifatida belgilab byerildi. CHunki raqamli texnologiyalar mahsulot va xizmatlar sifatini oshiradi, ortiqcha xarajatlarni kamaytiradi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqil davlat bo'lgandan keyin barcha soha-lar kabi geodeziya, kartografiya, kadastr sohalari ham rivojlanmoqda. Hozirda olib borilayotgan ilmiy va amaliy ishlarni yanada mukammallashtirish maqsadida sohaga doir yangi tehnika va tehnologiyani hayotga tatbiq qilishga katta ahamiyat byerilmoqda. So'ngi vaqtarda davlat kadastrlarini yuritish masalasiga ham alohida e'tibor qaratildi. chunonchi, sohani rivojlantirish maqsadida kadrlar taylorlash, rivojlangan mamlakatlarning kadastr yuritish borasidagi tajribalarini o'rganish, yangi, zamonaviy tehnologiyalar yaratish ustida ishlar bajarilmoqda. Avvalam bor, shuni ta'kidlash joizki, kadastrning barcha turlarini bajarish uchun Davlat geodezik tarmoqlari (DGT) barcha talablarga javob byeradigan darajada barpo etilgan bo'lishi kyerak. Bu borada Respublikamizda ilmiy va amaliy ishlar olib borilmoqda. chunonchi, O'zbekiston Respublikasi hududida Davlat geodezik tarmog'ini, Yerning sun'iy Yo'ldoshi tizimi tehnologiyasi bo'yicha takomillashtirish masalasiga ko'p miqdorda mablag' ajratilib, bu ishning rivojiga

katta aha-miyat byerilmoqda. Davlat kadastrlari yagona tizimini yaratish, mavjud resurslardan samarali foydalanish, ular haqida aniq maъlumotlarni to'p-lash, ularni bir joyga maъlumotlar bankiga (MB) yig'ib, ulardan samarali foydalanish soliq tizimini mukammallashtirish, maъlumotlarni ommaviy ahborot vositalarida eъlon qilish, bino va inshootlarni kimoshdi bozorida sotish va sotib olish kabi juda ko'p masalalarni echish maqsadida davlat kadastrining ma'lumotlari bazasi yaratiladi.

## **I.O'zbekiston Respublikasi Davlat kadastrlari yagona tizimini tashkil etish va uni yuritish tartibi**

Davlat kadastrlari yagona tizimi (DKYAT) davlat va tarmoq kadastrlarining barcha turlarini birlashtiruvchi ko'p maqsadli axborot tizimidir. Davlat kadastrlari yagona tizimida belgilangan chegaralardagi yer ustining har bir hisobga olingan kadastr uchastkasiga hujjatlashtirilgan ma'lumotlar hamda yer, suv, o'rmon, foydali qazilmalar, binolar, inshootlar va boshqalardan iborat tabiiy va xo'jalik resurslari to'g'risidagi ma'lumotlar, ularning geografik o'rni, huquqiy va xo'jalik maqomi ko'rsatilgan holda, mavjud bo'lishi kyerak.

Davlat kadastrlari yagona tizimi O'zbekiston Respublikasining tabiiy-iqtisodiy potenqialini yagona umumdavlat, yaxlit va kompleks hisobga olishni, baholashni ta'minlash maqsadida tashkil etiladi va yuritiladi.

Davlat kadastrlari yagona tizimini tashkil etish va yuritish bilan bog'shiq munosabatlar qonunchilik va normativ hujjatlar bilan, shuningdek mazkur Nizom bilan tartibga solib boriladi.

Belgilangan tartibga muvofiq aniqlangan ob'ektlar va yer uchastkalarining huquqiy maqomi to'g'risidagi ma'lumotlar, topografiya-geodeziya matyeriallari, statistik hisobga olish ma'lumotlari, davlat va tarmoq kadastrlari ma'lumotlari Davlat kadastrlari yagona tizimining asosini tashkil etadi. Davlat kadastrlari yagona tizimi doirasida hududlarni kompleks baholash uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar ham jamlanadi.

Davlat kadastrlari yagona tizimi davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarini, yuridik va jismoniy shaxslarni ularning faoliyatlari uchun zarur bo'lgan hududlar va ko'chmas mulklar to'g'risidagi ma'lumotlar va asoslashlar bilan tezkor ta'minlash uchun mo'ljallangan.

Davlat kadastrlari yagona tizimining ma'lumotlari va asoslashlari davlat boshqaruvining barcha organlari, yuridik va jismoniy shaxslar, shu jumladan, xorijiy yuridik va jismoniy shaxslar uchun majburiy kuchga egadir. Kadastr hujjatlari mulkchilik va xo'jalik yuritishning barcha shakllaridagi ob'ektlar

to'g'risidagi huquqiy, iqtisodiy va texnik ma'lumotlarning asl manbai sifatida qabul qilinishi kyerak.

Quyidagilar Davlat kadastrlari yagona tizimining ob'ektlari hisoblanadilar:

- tabiiy resurslar (yer, suv, o'rmon, foydali qazilmalar va b.);
- binolar va inshootlar, transport va muhandislik kommunikaçiyalari;
- geodeziya tarmog'i shoxobchalari;

Davlat kadastrlari yagona tizimi vazifalarini hal etish uchun zarur bo'lgan boshqa elementlar.

Davlat kadastrlari yagona tizimi ob'ektlari to'g'risidagi ma'lumotlar respublika uchun yagona texnologiya bo'yicha:

- davlat yer kadastro bo'yicha — joylardagi davlat hokimiyati organlari, O'zbekiston Respublikasi Yer resurslari davlat qo'mitasi, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Geodeziya, kartografiya va davlat kadastro bosh boshqarmasi;
- davlat suv kadastro bo'yicha — «Gidrometeorologiya xizmati markazi» (tabiiy suv manbaalari), Davlat geologiya qo'mitasi (yer osti suvlari), Melioratsiya va suv xo'jaligi vazirligi (suv resurslaridan foydalanish va yerkarning meliorativ holati);
- davlat o'rmon kadastro bo'yicha — Davlat o'rmon qo'mitasi;
- foydali qazilma konlari davlat kadastro bo'yicha — Davlat geologiya qo'mitasi;
- alohida qo'riqlanadigan tabiiy hududlar kadastro bo'yicha — Davlat tabiatni muhofaza qilish qo'mitasi va O'zbekiston FA;
- hayvonot dunyosi, o'simliklar, baliqlar kadastro bo'yicha — O'zbekiston FA;
- binolar va inshootlar kadastro bo'yicha — joylardagi davlat hokimiyati organlari va «O'zgeodezkadestr» Bosh boshqarmasi;
- davlat shaharsozlik kadastro bo'yicha — joylardagi davlat hokimiyati organlari va «Davarxitektqurilish» qo'mitasi tomonidan takdim etiladi.

Davlat kadastrlari yagona tizimiga kiruvchi kadastrlar tarkibi qonunchilikka muvofiq kengaytirilishi mumkin.

Davlat va tarmoq kadastrlarini joriy etish tartibi tegishli nizomlar bilan belgilanadi.

Davlat kadastrlari yagona tizimi axborotidan:

- iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish;
- hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlari va prognozlarini tuzish;
- tabiiy resurslar va ko'chmas mulkni kompleks hisobga olish, baholash va monitoring qilish;
- davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish vazifalarini hal etish;
- xo'jalik yuritish sub'ektlarining tabiiy ob'ektlar va hududlarga etkazgan zararlarini baholash;
- hududlar haqida ma'lumotlar talab qiluvchi boshqa faoliyatni amalga oshirish maqsadlarida foydalaniladi.

Davlat kadastrlari yagona tizimi o'zi haqidagi Nizomga muvofiq faoliyatni amalga oshiruvchi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Geodeziya, kartografiya va davlat kadastri bosh boshqarmasining Davlat kadastri xizmati tomonidan joriy etiladi.

Quyidagilar Davlat kadastrlari yagona tizimining asosiy prinçiplari hisoblanadi:

- respublikaning barcha hududlarini qamrab olish;
- markazlashgan rahbarlik;
- kadastr axborotlarini ishlab chiqish va taqdim etish texnologiyasining birligi;
- kadastr tizimlari barcha turlarini yer kadastri negizida shakllantirish;
- avtomatlashtirilgan geoaxborot texnologiyalarini qo'llanish;
- ma'lumot va asoslarning ob'ektivligi, to'liqligi, aniqligi va ishonchliligi;
- axborotlarni to'ldirib va yangilab borishdagi uzlucksizlik;
- cheklangan doiradagi foydalanuvchilar uchun ma'lumotlarning maxfiyligi.

Amaldagi kadastrlar va axborotlar tizimi doirasida — olingan ob'ektlarning hisobi va ro'yxatdan o'tkazilishi natijalari Davlat kadastrlari yagona tizimiga

«O'zgeodezkadastr» tomonidan va tegishli davlat va tarmoq kadastrlarini yuritish to'g'risidagi nizomlar bilan belgilanadigan tartibda vazirliklar va idoralar tomonidan bepul byeriladi.

Davlat kadastro xizmatining va ma'lumotlarni taqdim etuvchi organlarning mansabдор shaxslari Davlat kadastrlari yagona tizimi ma'lumotlarining ishonchliligi uchun qonunchilikka muvofiq javob byeradilar.

Davlat kadastrlari yagona tizimini tashkil etish va yuritish bilan bog'liq ishlar davlat byudjeti hisobidan mablag' bilan ta'minlanadi.

**Davlat kadastrlari yagona tizimiga tegishli davlat kadastrlari  
ma'lumotlarining tarkibi va ularni taqdim etish tartibi.**

O'zbekiston Respublikasining «Davlat kadastrlari to'g'risida»gi Qonuni hamda Vazirlar Mahkamasining 2005 yil 16 fevraldag'i 66-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Davlat kadastrlari yagona tizimini yaratish va yuritish tartibi to'g'risida»gi nizomga muvofiq, Davlat kadastrlari yagona tizimiga tegishli davlat kadastrlari ma'lumotlari bazasining tarkibi va ularni taqdim etish tartibi joriy etilgan.

Davlat kadastrlari yagona tizimining geoaxborot tizimi - O'zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastro davlat qo'mitasining Geodeziya va kartografiya milliy markazi tomonidan kartografik va tematik kadastr axborotini yagona geofazoviy axborot bazasiga integraqiyalash maqsadida yaratiladi hamda yuritiladi.

Davlat kadastrlari yagona tizimining geoaxborot tizimi davlat hokimi-yati va boshqaruvi organlarini, yuridik va jismoniy shaxslarni ularning faoliyati uchun, shu jumladan barcha turdag'i resurslardan foydalanishni boshqarish va prognozlash masalalarini hal etish, ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish bo'yicha loyihaviy qarorlar qabul qilish, hududlarni rivojlantirish va boshqa shu kabi maqsadlar uchun zarur bo'lgan fazoviy (geofazoviy) axborot bilan opyerativ ta'minlashga mo'ljallanadi.

Davlat kadastrlari yagona ma'lumotlar bazasi geoaxborot tizimini yuritishning asosiy prinçiplari quyidagilardan iborat:

har bir davlat kadastrı ob'ektining turi bo'yicha O'zbekiston Respublikasining barcha hududlarini to'liq qamrab olish;

makon koordinatalarining yagona tizimini qo'llash;

kadastr axborotlarini shakllantirish metodologiyasining yagonaligi;

kadastr axborotlarining ishonchliligi;

kadastr axborotlarining ochiqligi.

Davlat kadastrlari yagona ma'lumotlar bazasi geoaxborot tizimiga tegishli tematik qatlamlar davlat kadastrining har bir turi bo'yicha axborotni to'plash va unga ishlov byerish ishlarining bajarilishiga asosan shakllantirilishi va ularning nazorat holatida yuritilishi ta'minlanishi zarur.

## **1.2. Davlat kadastrlari yagonama'lumotlar bazasining geoaxborot tizimiga tegishli tematik qatlamlarni shakllantirish va ularni Davlat kadastrlari yagona tizimiga taqdim etish**

### **Davlat kadastrlari yagona ma'lumotlar bazasining geoaxborot tizimiga tegishli tematik qatlamlarga qo'yiladigan umumiyl talablar**

Davlat kadastrlari yagona ma'lumotlar bazasi geoaxborot tizimiga tegishli tematik qatlamlar davlat kadastrlarining har bir turi bo'yicha bazaviy kartografik asosdan foydalanib, ob'ekt turlari va axborot turlari (ro'yxatdan o'tkazishga oid, hisobga olishga oid, baholashga oid) bo'yicha, ArcGIS dasturiy ta'minotida (\*.shp, \*.gdb, \*.mdb formatlarda) shakllantiriladi.

Davlat kadastrlari yagona ma'lumotlar bazasi geoaxborot tizimiga bazaviy kartografik asosi 1:200 000 masshtabdagi kartaga muvofiq keladi-gan quyidagi tematik qatlamlardan tashkil topadi:

«Matematik asos» tematik qatlami;

«Gidrografiya» tematik qatlami;

«Joy rel'efi» tematik qatlami;

«Aholi punktlari» tematik qatlami;

«Aloqa yo'llari» tematik qatlami;

«Tuproq-o’simlik qoplami» tematik qatlami;

«Siyosiy va ma’muriy chegaralar» tematik qatlami.

Davlat kadastrlari yagona tizimining geoaxborot tizimi bazaviy kartografik asosining tematik qatlamlari hamda davlat kadastrlarining tegishli GATlarini yuritish uchun zarur kartografik asoslar «Kadastr agentligi» tomonidan shakllantiriladi hamda davlat kadastrlarini yuritish bo'yicha vakolatli organlarga taqdim etiladi.

Davlat kadastrlari yagona tizimining geoaxborot tizimiga tegishli tematik qatlamlarning matematik asosi bazaviy kartografik asosning matematik asosiga muvofiq bo'lishi lozim.

Davlat kadastrlari yagona ma'lumotlar bazasi geoaxborot tizimiga tegishli tematik qatlamlarni shakllantirishda vektorli ob'ektlarning (nuq-talar, chiziqlar va poligonlarning) o'zaro bog'liqligi va yondoshligi ularning fazoviy joylashuvini inobatga olgan holda tasvirlanadi.

Davlat kadastrlari yagona ma'lumotlar bazasi geoaxborot tizimiga tegishli tematik qatlamlarning atributiv ma'lumotlari davlat tilida yuritiladi.

## **1.2. Davlat kadastrlari yagona tizimiga tegishli davlat kadastrlari ma'lumotlarini taqdim etish**

Davlat kadastrlari yagona tizimiga tegishli davlat kadastrlari ma'lumotlari davlat kadastrlarini yuritish bo'yicha vakolatli organlar tomonidan «Kadastr agentligi» Geodeziya va kartografiya milliy markaziga quyidagi muddatlarda taqdim etiladi:

1) texnogen xavf yuqori bo'lgan zonalar davlat kadastri bo'yicha — har yili mart oyida;

2) davlat suv kadastri (yer osti suvlari va suvdan foydalanish bo'limla-ri), davlat o'rmon kadastri, o'simlik dunyosi ob'ektlari davlat kadastri, mu-hofaza etiladigan tabiiy hududlar davlat kadastri, davlat shaharsoz-lik kadastri,

gidrotexnika inshootlari davlat kadastro, madaniy meros ob'ektlari davlat kadastro, avtomobilъ yo'llari davlatkadastro, etkazib byerish quvurlari davlat kadastro, aloqa ob'ektlari davlat kadastro, enyergetika ob'ektlari davlatkadastro, chiqindilarni ko'mish va utilizaciya qilish joylari davlat kadastro, tabiiy xavf yuqori bo'lgan zonalar davlatkadastro (xavfli geologik jarayonlarning yuzaga chiqish hollari va seysmik xavf yuqori bo'lgan zonalar qismlari) bo'yicha — har yili aprelъ oyida;

- 3) hayvonot dunyosi davlat kadastro bo'yicha — har yili may oyida;
- 4) temir yo'llar davlat kadastro, konlar, foydali qazilmalar va texnogen hosilalarning yuzaga chiqish hollari davlat kadastro bo'yicha — har yili iyunъ oyida;
- 5) davlat suv kadastro (yer usti suvlari bo'limi), tabiiy xavf yuqori bo'l-gan zonalar davlat kadastro (gidrometeorologik hodisalar xavfi yuqori bo'lgan zonalar qismi) bo'yicha — har yili dekabrbъ oyida;
- 6) davlat yer kadastro, binolar va inshootlar davlat kadastro, kartografiya-geodeziya davlat kadastrlari bo'yicha — yilning har choragida, keyingi oyning o'ninchi sanasiga qadar.

Davlat kadastrlari yagona tizimiga tegishli davlat kadastrlari ma'lumotlari davlat yer kadastro, binolar va inshootlar davlat kadastro, kartografiya-geodeziya davlat kadastrlari bo'yicha o'tgan chorakning oxirgi sanasi holatiga ko'ra, boshqa davlat kadastrlari bo'yicha o'tgan yilning 31 dekabrbъ sanasi holatiga ko'ra taqdim etiladi.

### **1.3. Davlat kadastrlari yagona tizimining geoaxborot tizimiga taqdim etiladigan ma'lumotlarning tarkibi va mazmuni**

Davlat kadastrlari yagona ma'lumotlar bazasi geoaxborot tizimiga taqdim etiladigan tematik qatlamlar masshtab qatoriga muvofiq maydonli, chiziqli yoki nuqtali tiplarda yaratiladi.

Har bir davlat kadastro bo'yicha tematik qatlamlar va ularning atributiv ma'lumotlar jadvali shakllantiriladi.

Texnogen xavf yuqori bo'lgan zonalar davlat kadastro bo'yicha atributiv ma'lumotlar jadvallari yaratiladi va ular quyidagi tematik qatlamlardan iborat bo'ladi:

«Texnogen xavf yuqori bo'lgan zonalarga ega korxonalar» tematik qatlami;

«YUqori texnogen xavf yuzaga kelishi mumkin bo'lgan zonalar» tematik qatlami;

«Odamlarni zonadan evakuatsiya qilish yoki ko'chirish» tematik qatlami;

«Bino va inshootlarning yong'in xavfliligi bo'yicha tavsifi» tematik qatlami;

«YOng'inga qarshi suv manbalari» tematik qatlami;

«Radioaktiv mahsulotlarni, radioaktiv va boshqa moddalarni ishlab chiqarish, qayta ishslash, saqlash va ulardan foydalanish ob'ektlari» tematik qatlami;

«Radiaziyaviy xavfga ega korxonalar» tematik qatlami;

«Radiaziyaviy xavf yuzaga kelishi mumkin bo'lgan zonalar» tematik qatlami shakllantiriladi.

Davlat suv kadastro bo'yicha atributiv ma'lumotlar jadvallari yaratiladi va ular quyidagi tematik qatlamlardan iborat bo'ladi:

«Suv ob'ektlari — yer usti suvlari» tematik qatlami;

«Suvlarning sathlari», «Suv sarfi» tematik qatlamlari;

«Yer osti suv konlari resurslari» tematik qatlami;

«Yer osti suv koni uchastkalarining tasdiqlangan zaxiralari» tematik qatlami;

«Suv chiqarish inshootlari» tematik qatlami;

«Yer osti suvlaridan foydalanish» tematik qatlami;

«Hududlarda suvdan turli ehtiyojlar uchun foydalanish» tematik qatlami.

Davlat o'rmon kadastro bo'yicha atributiv ma'lumotlar jadvallari yaratiladi va ular quyidagi tematik qatlamlardan iborat bo'ladi:

«O'rmon xo'jaligi bo'limlari» tematik qatlami;

«O'rmon kvartallari» tematik qatlami;

«O'rmonli yerlar» tematik qatlami;

«O'rmonsiz yerlar» tematik qatlami.

O'simlik dunyosi ob'ektlari davlat kadastro bo'yicha atributiv ma'lumotlar jadvallari yaratiladi va ular quyidagi tematik qatlamlardan iborat bo'ladi:

«Quyi o'simliklar» tematik qatlami;  
«Tomirli o'simliklar» tematik qatlami;  
«Qo'ziqorinlar» tematik qatlami;  
«YAylovlar va pichanzorlar tabiiy o'simlik qoplami holatining tavsifi» tematik qatlami.

Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar davlat kadastro bo'yicha atributiv ma'lumotlar jadvallari yaratiladi va ular quyidagi tematik qatlamlardan iborat bo'ladi:

«Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar» tematik qatlami;  
«Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning o'simlik dunyosi» tematik qatlami;  
«Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning hayvonot dunyosi» tematik qatlami;  
«Davlat tabiat yodgorliklarining umumiyligi tafsifi» tematik qatlami;  
«Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarda tabiatni muhofaza qilish faoliyatining asosiy natijalari» tematik qatlami.

Davlat shaharsozlik kadastro bo'yicha atributiv ma'lumotlar jadvallari yaratiladi va ular quyidagi tematik qatlamlardan iborat bo'ladi:

«SHaharsozlik ob'ekti» tematik qatlami;  
«Funktional zonalar» tematik qatlami;  
«Hududni shaharsozlik nuqtai nazaridan baholash» tematik qatlami;  
«Aholi punktini geologik zonalash» tematik qatlami.

Gidrotexnika inshootlari davlat kadastro bo'yicha atributiv ma'lumotlar jadvallari yaratiladi va ular quyidagi tematik qatlamlardan iborat bo'ladi:

«Suv omborlari», «III sinfdan past kapitallikdagi suv omborlari» va «Sel omborlari» tematik qatlamlari;  
«Gidrouzellar» va «III klassdan past kapitallikdagi gidrouzellar» tematik qatlamlari;  
«Kanallar» va «III klassdan past kapitallikdagi kanallar» tematik qatlamlari;

«Nasos stançiyalari» va «III klassdan past kapitallikdagi nasos stançiyalari» tematik qatlamlari;

«Kollektorlar» va «III klassdan past kapitallikdagi kollektorlar» tematik qatlamlari.

Madaniy meros ob'ektlari davlat kadastro bo'yicha atributiv ma'lumotlar jadvallari yaratiladi va ular quyidagi tematik qatlamlardan iborat bo'ladi:

«Arxitektura yodgorliklari» tematik qatlami;

«Arxeologik yodgorliklar» tematik qatlami;

«Monumental san'at yodgorliklari» tematik qatlami;

«Diqqatga sazovor joylar» tematik qatlami.

Avtomobil yo'llari davlat kadastro bo'yicha atributiv ma'lumotlar jadvallari yaratiladi va ular quyidagi tematik qatlamlardan iborat bo'ladi:

«Avtomobil yo'llarining umumiyo ko'rinishi» va «Avtomobil yo'llari» tematik qatlamlari;

«Sun'iy inshootlar» tematik qatlami;

«Tartibga keltirish va jihozlash ob'ektlari» tematik qatlami;

«Yo'llar chorrahalarini va tutashuvlari» tematik qatlami;

«Himoya inshootlari» tematik qatlami;

«Bino-inshootlar» tematik qatlami.

Etkazib byerish quvurlari davlat kadastro bo'yicha atributiv ma'lumotlar jadvallari yaratiladi va ular quyidagi tematik qatlamlardan iborat bo'ladi:

«Gaz etkazib byerish quvurlari — magistral gazoprovodlar» tematik qatlami;

«Gazoprovod-tarmoqlari» tematik qatlami;

«Gaz taqsimlash stançiyalari» tematik qatlami;

«Kompressor stançiyalari» tematik qatlami;

«Gazni yer ostida saqlash stançiyalari» tematik qatlami;

«Gazni yer ostida saqlash stançiyasi kon zonasi» tematik qatlami.

Aloqa ob'ektlari davlat kadastro bo'yicha atributiv ma'lumotlar jadvallari yaratiladi va ular quyidagi tematik qatlamlardan iborat bo'ladi:

«Xalqaro kommutaçiya markazlari va avtomatik shahlararo telefon stançiyalari», «Tuman telekommunikacija üzəlləri və şəhər telekommunikacija bölgələri», «Avtomatik telefon stançiyalari» tematik qatlamları;

«Radiorele stançiyalari» tematik qatlami;

«Radiotelevizion stançiyalar və radio eshittirish stançiyalari», «Yo'ldosh aloqasi yer stançiyalari» tematik qatlamları;

«Mobilə aloqa kommutaçiyası markazlari», «Simsiz aloqa kommutaçion bog'lamalari» tematik qatlamları;

«Bazaviy qabul qilish-uzatish stançiyasi» tematik qatlami;

«Kabelə aloqa liniyalari» tematik qatlami;

«Radiorele aloqa liniyalari» tematik qatlami;

«Pochta aloqasi hududiy tashkilotlari», «Pochta aloqasi shahar va tuman bog'lamalari», «Pochtamtlar», «Pochta aloqasi shahar va qishloq bo'linmalari», «Almashuv punktlari», «Pochta punktlari», «Kur'yer aloqasi ob'ektlari» tematik qatlamları.

Enyergetika ob'ektlari davlat kadastro bo'yicha atributiv ma'lumotlar jadvallari yaratiladi va ular quyidagi tematik qatlamlardan iborat bo'ladi:

«Issiqlik elektrostançiyalari va issiqlik elektr markazlari» tematik qatlami;

«Gidravlik elektrostançiyalar» tematik qatlami;

«Hududiy elektr tarmoqlari korxonalari» tematik qatlami;

«Magistral elektr tarmoqlari» tematik qatlami.

CHiqindilarni ko'mish va utilizasiya qilish joylari davlat kadastro bo'yicha atributiv ma'lumotlar jadvallari yaratiladi va ular quyidagi tematik qatlamlardan iborat bo'ladi:

«CHiqindilarni ko'mish joylari» tematik qatlami;

«CHiqindilarni utilizasiya qilish joylari» tematik qatlami.

Tabiiy xavf yuqori bo'lgan zonalar davlat kadastro bo'yicha atributiv ma'lumotlar jadvallari yaratiladi va ular quyidagi tematik qatlamlardan iborat bo'ladi:

«Xavfli geologik jarayonlar zonalari» tematik qatlami;

«Xavfli geologik jarayonlar kichik zonalari» tematik qatlami;

«Ayrim xavfli geologik jarayonlar yuzaga chiqish hollari» tematik qatlami;

«Seysmogen zonalar» tematik qatlami;

«Tebranish zonalari» tematik qatlami;

«Yer qobig’ining aktiv yorilish joylari» tematik qatlami;

«Kuchli zilzilalar izoseystlari (>5)» tematik qatlami;

«Zilzilalar eriçentrлari» tematik qatlami;

«Seysmik stanциyalar» tematik qatlami;

«Havo harorati 40 gradus va undan ortiq bo’lgan kunlar soni» tematik qatlami;

«Havoda oxirgi bahor ayozining bo’lishi sanasi» tematik qatlami;

«Tuproqda oxirgi bahor ayozining bo’lishi sanasi» tematik qatlami;

«Havoda birinchi kuz ayozining kelishi sanasi» tematik qatlami;

«Tuproq sirtida birinchi kuz ayozining bo’lishi sanasi» tematik qatlami;

«12 soat va undan kam vaqt mobaynida 30 mm va undan ortiq yomg’ir ko’rinishidagi kuchli yog’inlar bo’lgan sutkalar soni» tematik qatlami;

«12 soat va undan kam vaqt mobaynida 20 mm va undan ortiq qor ko’rinishidagi kuchli yog’inlar bo’lgan sutkalar soni» tematik qatlami;

«YArim sutka mobaynida yomg’ir ko’rinishidagi kuchli yog’inlar bo’lgan sutkalar soni» tematik qatlami;

«YArim sutka mobaynida qor ko’rinishidagi kuchli yog’inlar bo’lgan sutkalar soni» tematik qatlami;

«15 m/sek va undan ortiq tezlikdagi kuchli shamol bo’lgan sutkalar soni» tematik qatlami;

«Turli me’yorlardan yuqori shamol tezligidagi kuchli shamollar bo’lgan sutkalar soni» tematik qatlami;

«Atmosfyera qurg’oqchiligi bo’lgan kunlarning umumiy soni» tematik qatlami;

«Gidrologik postlarning joylashuvi karta-sxemasi» tematik qatlami;

«Suv miqdorining gidrologik tavsiflari va hisobot yilining vegitaçıya davrida foizlardagi ta'minlanushi» tematik qatlami;

«Sellari» tematik qatlami;

«Ko'chkilar» tematik qatlami.

Tabiiy xavf yuqori bo'lgan zonalar davlat kadastro bo'yicha tematik qatlamlardan tashqari atributiv ma'lumotlar jadvaliga ega bo'limgan quyidagi tematik qatlamlar ham yaratiladi:

«Ko'p yillik davr mobaynida havo harorati 40 gradus va undan ortiq bo'lgan kunlar sonining taqsimlanishi karta-sxemasi» tematik qatlami;

«Havo harorati 40 gradus va undan ortiq bo'lgan kunlar sonining taqsimlanishi karta-sxemasi» tematik qatlami;

«Kunlar taqsimlanishining ko'p yillik davr davomida atmosfyera qurg'oqchiligi ko'rsatkichi ko'rsatilgan karta-sxemasi» tematik qatlami;

«Kunlar taqsimlanishining hisobot yili davomida atmosfyera qurg'oqchiligi ko'rsatkichi ko'rsatilgan karta-sxemasi» tematik qatlami;

«Toshqinlar, suv bosish xavfining taqsimlanishi karta-sxemasi» tematik qatlami;

«Ko'chki xavfining tarqalishi karta-sxemasi» tematik qatlami.

Hayvonot dunyosi davlat kadastro bo'yicha atributiv ma'lumotlar jadvallari yaratiladi va ular quyidagi tematik qatlamlardan iborat bo'ladi:

«Sut emizuvchilar», «Qushlar», «Reptiliyalar», «Suvda va quruqlikda yashovchi hayvonlar», «Baliqlar» tematik qatlamlari;

«Umurtqasizlar» tematik qatlami.

Temir yo'llar davlat kadastro bo'yicha atributiv ma'lumotlar jadvallari yaratiladi va ular quyidagi tematik qatlamlardan iborat bo'ladi:

«Stançiyalar» tematik qatlami;

«Pyeregonlar» tematik qatlami;

«Temir yo'llar» tematik qatlami;

«O'tish joylari» tematik qatlami.

Konlar, foydali qazilmalar va texnogen hosilalarning yuzaga chiqish hollari davlat kadastro bo'yicha atributiv ma'lumotlar jadvallari yaratiladi va ular quyidagi tematik qatlamlardan iborat bo'ladi:

«Metallga oid foydali qazilmalar (konlari)» tematik qatlami;  
«Metallga oid foydali qazilmalar (yuzaga chiqish hollari)» tematik qatlami;  
«Nometall foydali qazilmalar (konlari)» tematik qatlami;  
«Nometall foydali qazilmalar (yuzaga chiqish hollari)» tematik qatlami;  
«Radioaktiv xom ashyo (konlari)» tematik qatlami;  
«Radioaktiv xom ashyo (yuzaga chiqish hollari)» tematik qatlami;  
«Neft va gaz konlari» tematik qatlami;  
«Tarqoq konlar» tematik qatlami;  
«Toshko'mir va yonuvchi slaneçlar konlari» tematik qatlami;  
«Toshko'mir va yonuvchi slaneçlarning yuzaga chiqish hollari» tematik qatlami.

Davlat yer kadastro bo'yicha atributiv ma'lumotlar jadvallari yaratiladi va ular quyidagi tematik qatlamlardan iborat bo'ladi:

«Hududiy darajadagi ma'muriy-hududiy birliklar» tematik qatlami;  
«Tuman (shahar) darajasidagi ma'muriy-hududiy birliklar» tematik qatlami;  
«Qishloq va shahar fuqarolar yig'inlarining ma'muriy-hududiy birliklari» tematik qatlami;  
«Mintaqa hududini kadastr bo'yicha bo'lish» tematik qatlami;  
«Tuman (shahar)ni kadastr bo'yicha bo'lish» tematik qatlami;  
«Zonalar hududlarini kadastr bo'yicha bo'lish» tematik qatlami;  
«Massivlar hududini kadastr bo'yicha bo'lish» tematik qatlami;  
«Mavzelar hududini kadastr bo'yicha bo'lish» tematik qatlami;  
«Yer uchastkalari» tematik qatlami;  
«Yer uchastkalarini yer fondidan taqsimlash» tematik qatlami;  
«Hududni iqtisodiy zonalash» tematik qatlami;  
«Yerlarning sifat tarkibi (bonitirovka)» tematik qatlami.

Binolar va inshootlar davlat kadastri bo'yicha «Binolar va inshootlar» tematik qatlami yaratiladi va uning atributiv ma'lumotlar jadvali shakllantiriladi.

Kartografiya-geodeziya davlat kadastri atributiv ma'lumotlar jadval-lari yaratiladi va ular quyidagi tematik qatlamlardan iborat bo'ladi:

1:1 000 000, 1:500 000, 1:200 000, 1:100 000, 1:50 000, 1:25 000 va 1:10 000 masshtabli topografik kartalar noshirlik originallarining mavjudligi kartogrammalari tematik qatlamlari;

1:1000 000, 1:500 000, 1:200 000, 1:100 000, 1:50 000, 1:25 000 va 1:10 000 masshtabli topografik kartalar tiraj ottisklarining mavjudligi kartogrammalari tematik qatlamlari;

«SHaharlar va boshqa aholi punktlari topografik planlarining noshirlik originallari va tirajlash ottisklarining mavjudligi kartogrammalari» tematik qatlami;

«Aerofotos'yomka matyeriallarining mavjudligi kartogrammalari» tematik qatlami;

«O'zbekiston Respublikasi hududi kosmik s'yomkasi matyeriallarining mavjudligi kartogrammalari» tematik qatlami;

«Triangulyaciya, davlat geodezik tarmog'i va davlat s'yomka tarmog'i punktlari bo'yicha kartogrammalar» tematik qatlami;

«Poligonometriya punktlari» tematik qatlami;

«Nivelirlash punktlari» tematik qatlami;

«O'zbekiston Respublikasining raqamli topografik kartalari» tematik qatlami;

«O'zbekiston Respublikasi shaharlarining raqamli topografik planlari» tematik qatlami.

Davlat kadastrlari yagona ma'lumotlar bazasi talablarining buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.

Davlat kadastrlari yagona ma'lumotlar bazasi geoaxborot tizimiga O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi, Madaniyat va sport ishlari vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi, Aloqa, axborotlashtirish va telekommunikaciya texnologiyalari davlat

qo'mitasi, Geologiya va minyeral resurslar davlat qo'mitasi, Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi, Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi, Fanlar akademiyasi, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Gidrometeorologiya xizmati markazi, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Yer qa'rini geologik o'rganish, sanoatda, konchilikda va kommunal-maishiy sektorda ishlarning bexatar olib borilishini nazorat qilish davlat ispekteziyasi, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Katta va alohida muhim suv xo'jaligi ob'ektlarining texnik holatini hamda bexatar ishlashini nazorat qilish davlat inspekteziyasi, «O'zbekiston temir yo'llari» davlat aktsiyadorlik temir yo'l kompaniyasi, «O'zavtoyo'l» davlat aktsiyadorlik kompaniyasi, «O'zbekenergo» davlat aktsiyadorlik kompaniyasi va «O'zbekneft-gaz» milliy xolding kompaniyasi bilan kelishilgan.

Davlat kadastrlari malumotlari bazasi, avvalo har bir hudud bo'yicha alo-hida kadastr ma'lumotlari bazalari yaratilib, bu ma'lumotlar avval viloyatlar bo'yicha so'ngra esa Respublika bo'yicha umumlashtirish asoida yaratiladi.

## **1.5. Davlat kadastrlari malumotlari bazasini yaratishda hududlar davlat kadastrini yuritish**

Hududlarning davlat kadastro «Davlat kadastrlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2005 yil 16 fevraldagagi 66-son qarori bilan tasdiqlangan Davlat kadastrlari yagona tizimini yaratish va yuritish tartibi to'g'risidagi nizomga, boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi tomonidan tasdiqlangan Nizomga muvofiq tashkil etiladi va yuritiladi.

O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy birliklari: Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri, tumanlar (shaharlar) ularga nisbatan hududlarning davlat kadastro yuritiladigan hududlar hisoblanadi.

Ayrim hollarda ularga nisbatan hududlarning davlat kadastro yuritiladigan hududlar iqtisodiy mintaqqa yoki erkin iqtisodiy zona va boshqalar bo'lishi mumkin.

DKYATga kiruvchi barcha davlat kadastrlarining ob'ektlari, muayyan hududda joylashgan sanoat, transport, sog'liqni saqlash, ta'lim, madaniyat, ijtimoiy soha, ma'muriy va boshqa ahamiyatga ega bo'lgan ob'ektlar, shuningdek ushbu ob'ektlar to'g'risidagi geofazoviy, statistik va boshqa zarur ma'lumotlar hamda ular joylashgan hududlar hududlarning davlat kadastrini ob'ektlari hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasi tarkibidagi Kadastr agentligi hududlar davlat kadastrini tashkil etish va yuritish bo'yicha maxsus vakolatli organ hisoblanadi.

Hududlarning davlat kadastrini tuzish va yuritish ishlari O'zbekiston Respublikasi davlat byudjeti mablag'lari va qonun hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan moliyalashtiriladi.

### **1.6. Hududlar davlat kadastrining maqsadlari va vazifalari**

Hududlarning davlat kadastrini hududlarning tabiiy-resurs va xo'jalik salohiyati, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va ekologik hola-tini hisobga olish hamda baholash maqsadlarida tuziladi va yuritiladi.

Hududlarning davlat kadastrini davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarini, mahalliy davlat hokimiyati organlarini, manfaatdor yuridik va jismoniy shaxslarni hududiy rejalashtirish va hududlarni boshqarish sohasida qarorlar qabul qilish uchun zarur bo'lgan, hududlarning tabiiy-resurs va xo'jalik salohiyati, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va ekologik holati to'g'risidagi kompleks, aniq axborot bilan ta'minlash uchun mo'ljallangan.

Hududlarning davlat kadastrini yuritish quyidagi tamoyillar asosida amalga oshiriladi:

- barcha darajalarda hududlarning davlat kadastrini yuritish metodologiyasining yagonaligi;
- hududlar davlat kadastrini yuritiladigan hududlarga nisbatan hududlarning tabiiy-resurs va xo'jalik salohiyati, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va ekologik holatini to'liq qamrab olish;

- fazoviy koordinatalarning yagona tizimini va yagona kartografik asoslarini qo'llash;
- barcha ob'ektlar bo'yicha geofazoviy ma'lumotlarni shakllantirish metodologiyasining yagonaligi;
- hududlar davlat kadastro axborot resurslarining dolzarbligi, to'g'riliqi, to'liqligi, butligi, aniqligi, ravshanligi va hujjatlarga asoslanganligi;
- hududlar davlat kadastro axborotining ochiqligi va undan hamma foydalanishi mumkinligi, uni olish, tarqatish va saqlashning qonuniyligi;
- yer kadastro va boshqa davlat kadastrlarining axborot tizimlari hamda davlat axborot resurslarini tashkil qiluvchi reestrlar bilan o'zaro bog'langanligi;
- hududlar davlat kadastrining axborot resurslarini tuzish, yangilash, qayta ishlash, saqlash, taqdim qilish va ulardan foydalanishni ta'minlaydigan hududlar davlat kadastrining bazaviy sub'ektlari faoliyatini muvofiqlashtirish;
- hududlarning davlat kadastrini tuzish va yuritish ishlarini davlat yer kadastro, DKYAT va Milliy geoaxborot tizimini tashkil etish va yuritish ishlari bilan muvofiqlashtirish.

Hududlar davlat kadastro ma'lumotlarining kompleksligi, to'liqligi va to'g'riliqi:

- hududiy rivojlanishni rejalashtirish va hududlarni boshqarish;
- aholi hayot faoliyatining xavfsiz muhitini shakllantirish;
- hududlarni tabiiy va texnogen tusdagi favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish;
- hududlarda aholini, ishlab chiqarish ob'ektlarini va ishlab chiqarish kuchlarini bir xilda taqsimlash;
- atrof tabiiy muhitning ifloslanish darajasini pasaytirish;
- sanoat ob'ektlari va boshqa ob'ektlarning muhandislik-transport infratuzilmasi samarali va ishonchli faoliyat ko'rsatishi;
- hududlarni barqaror rivojlantirish maqsadida tabiiy resurslarni va alohida maqomga ega hududlarni, shu jumladan muhofaza qilinadigan tabiiy hududlarni, tarixiy ob'ektlarni, madaniy meros ob'ektlarini, qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan

yerlarni, suv resurslarini va o'rmonlarni muhofaza qilish hamda ulardan oqilona foydalanish;

- hududlarni rivojlantirish va boshqarishning boshqa masalalari bo'yicha boshqaruva qarorlari qabul qilinishini ta'minlashi kyerak.

### **1.7. Hududlarning davlat kadastro tuzilmasi hamda uni tuzishni tashkil etish va yuritish**

Hududlarning davlat kadastro tizimi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- 1) tashkiliy tuzilma;
- 2) texnik va dasturiy vositalar;
- 3) axborot resurslari;
- 4) metama'lumotlar bazalari;
- 5) geofazoviy ma'lumotlar syervislari;
- 6) normativ-huquqiy hujjatlar, texnik reglamentlar va standartlar.

Hududlar davlat kadastrining tashkiliy tuzilmasini (ushbu Nizomga 1-ilovaga muvofiq sxemaga binoan) quyidagilar tashkil qiladi:

- O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi, mahalliy davlat hokimiyati organlari (hududlarning davlat kadastro axborotidan foydalanish);
  - hududlarning davlat kadastrini tuzish va yuritish bo'yicha vakolatli organ sifatida Kadastr agentligi;
  - davlat kadastrlari Palatasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyat-lar va Toshkent shahri, tumanlar (shaharlar) ko'chmas mulk kadastro davlat korxonalari;
  - hududlar davlat kadastro tizimida ro'yxatdan o'tkazilishi va hisobga olinishi lozim bo'lgan axborot resurslarini tuzish, yangilash, qayta ishlash, saqlash, taqdim etish va ulardan foydalanishni amalga oshiradigan davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mulkchilikning barcha shakllaridagi xo'jalik yurituvchi sub'ektlar.

Hududlar davlat kadastro umumdavlat (DKYAT va Milliy geoaxborot tizimi), Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri, tumanlar (shaharlar) darajasida yuritiladi.

Hududlarning davlat kadastrini tuzish va yuritish «Yergeodezkadastr» davlat qo'mitasi tarkibiga kiruvchi korxonalar:

respublika darajasida — Davlat kadastrlari Palatasi;

mintaqa, tuman va shahar darajalarida — tegishli hududiy va ko'chmas mulk kadastro davlat korxonalari tomonidan amalga oshiriladi.

Hududlar davlat kadastrining tashkiliy tuzilmasiga o'z vakolatlari doirasida hududlar davlat kadastro tizimi uchun axborot resurslarini taqdim etish uchun mas'ul bo'lган quyidagi bazaviy sub'ektlar kiradi:

1) O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi — quyidagi ma'lumotlar uchun:

- qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlardan foydalanish.

1<sup>1</sup>) O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi — quyidagi ma'lumotlar uchun:

- irrigatsiya tizimlari va inshootlari joylashishi va holati to'g'risidagi ma'lumotlar uchun;

- gidrotexnika inshootlari davlat kadastro ma'lumotlari kapitalligi III klassdan past gidrotexnika inshootlari bo'yicha — inshootlarning mansubligiga qarab);

1<sup>2</sup>) O'zbekiston Respublikasi O'rmon xo'jaligi davlat qo'mitasi — davlat o'rmon kadastro ma'lumotlari uchun.

2) O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi — quyidagi ma'lumotlar uchun:

- texnogen xavf yuqori bo'lган zonalar davlat kadastro (portlash xavfi va yong'in xavfi yuqori bo'lган zonalar (ob'ektlar) — bo'lim) ma'lumotlari;

- ichki ishlar organlarining hududiy bosh boshqarmalari, boshqarma-lari va bo'limlari, tayanch punktlari, yo'l-patrulъ xizmati, yong'in xavfsizligi xizmati postlarining va ichki ishlar organlari blok-postlarining joylashishi va ulanish ma'lumotlari to'g'risidagi ma'lumotlar uchun;

3) O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi:

- joydagи ob'ektlarning o'zgarishiga sabab bo'lган tabiiy va texnogen tusdagi favqulodda vaziyatlar to'g'risidagi axborot uchun;

- texnogen xavf yuqori bo'lgan zonalar davlat kadastro (bo'lim — xavfi yuqori bo'lgan, odamlarni evakuatsiya qilish yoki ko'chirishni talab qiladigan zonalar) ma'lumotlari uchun;

4) O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi — moddiy madaniy meros ob'ektlari davlat kadastro ma'lumotlari va ushbu ob'ektlarga xizmat ko'rsatuvchi muassasalarining ulanish ma'lumotlari uchun;

5) O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi — quyidagi ma'lumotlar uchun:

- texnogen xavf yuqori bo'lgan zonalar kadastro (bo'lim — kuchli ta'sir etuvchi zaharli kimyoviy moddalar, pestiçidlar, radioizotop mahsulotlar, radioaktiv moddalar va boshqa moddalarni ishlab chiqarish, qayta ishlash, saqlash va ulardan foydalanan ob'ektlari) ma'lumotlari uchun;

- sog'liqni saqlash muassasalari: kasalxonalar, klinikalar, poliklinikalar, fel'dshyerlik hamda jarohatlanish punktlari, dispansyerlar, dorixonalar va boshqalarning joylashishi hamda ulanish ma'lumotlari to'g'risidagi ma'lumotlar uchun;

6) O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi — maktabgacha hamda umumiy o'rta ta'lim muassasalarining joylashishi va ulanish ma'lumotlari to'g'risidagi ma'lumotlar uchun;

7) O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, tasarrufida oliy ta'lim muassasalari bo'lgan vazirliklar va idoralar — idoraviy mansub oliy ta'lim muassasalarining joylashishi va ulanish ma'lumotlari to'g'risidagi ma'lumotlar uchun;

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi markazi — o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarining joylashishi va ulanish ma'lumotlari to'g'risidagi ma'lumotlar uchun;

8) O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikaçiyalarini rivojlantirish vazirligi — aloqa ob'ektlari davlat kadastro ma'lumotlari uchun;

9) O'zbekiston Respublikasi Davlat geologiya va minyeral resurslar qo'mitasi — quyidagi ma'lumotlar uchun:

- konlar, foydali qazilmalar va texnogen hosilalarning yuzaga chiqish hollari davlat kadastro ma'lumotlari uchun;

- tabiiy xavf yuqori bo'lgan zonalar davlat kadastro (bo'lim — xavfli geologik jarayonlarning yuzaga chiqish zonalari) ma'lumotlari uchun;

10) O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi — quyidagi ma'lumotlar uchun:

- davlat shaharsozlik kadastro ma'lumotlari;

- qurilayotgan binolar va inshootlar to'g'risidagi ma'lumotlar uchun;

11) O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi — quyidagi ma'lumotlar uchun:

- hayvonot dunyosi davlat kadastro ma'lumotlari;

- o'simlik dunyosi ob'ektlari davlat kadastro ma'lumotlari uchun;

- chiqindilarni ko'mish va utilizaciya qilish joylari davlat kadastro ma'lumotlari;

- muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar davlat kadastro ma'lumotlari uchun;

12) O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi — aholi soni to'g'risidagi statistik ma'lumotlar, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan Davlat statistika ishlari dasturi doirasida shakllanadigan tumanlar (shaharlar) bo'yicha alohida yillik statistik ko'rsatkichlar uchun;

13) Kadastr agentligi — quyidagi ma'lumotlar uchun:

- davlat yer kadastro ma'lumotlari;

- binolar va inshootlar davlat kadastro ma'lumotlari uchun;

- kartografiya-geodeziya davlat kadastro ma'lumotlari;

14) O'zbekiston Respublikasi Gidrometeorologiya xizmati markazi — quyidagi ma'lumotlar uchun:

- davlat suv kadastro (yer usti suvlari, yer osti suvlari, suv resurslaridan foydalanish) ma'lumotlari;

- tabiiy xavf yuqori bo'lgan zonalar davlat kadastro kadastro (bo'lim — gidrometeorologik hodisalar xavfi yuqori bo'lgan zonalar) ma'lumotlari uchun;

15) O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi — quyidagi ma'lumotlar uchun:

SHundan **7,3** km. optik tolali aloqa liniyalari 9410 ta ijtimoiy soha ob'ektlariga tortilishi natijasida 4 786 ta maktab, 2 895 ta maktabgacha ta'lif va 1 729 ta sog'liqni saqlash muassasasini tezkor intyernetga ulash imkoniyati yaratildi. Bu o'z navbatida yosh avlodning zamonaviy bilim olishi, bemorlarga sifatli va tezkor xizmat ko'rsatish salohiyatini oshirgani bilan nihoyatda ahamiyatlidir.

Bu borada investorlar va mahalliy tadbirkorlar ham faol qatnashayotgani e'tiborga molik. Masalan, Jizzax erkin iqtisodiy zonasida Janubiy koreyalik hamkorlar bilan birgalikda loyiha qiymati **11 mln. dollarga teng** optik tolali kabel mahsulotlarini ishlab chiqarish zavodi ishga tushirilib, yiliga **50 ming km.** optik tolali kabel tayyorlash quvvati yaratildi.

Bu esa, o'z navbatida, intyernet tezligining keskin oshishida muhim omilga aylandi. Gap shundaki, "Ookla" kompaniyasining Speedtest.net syervisi intyernet tezligi bo'yicha 2020 yil iyunъ oyi natijalariga ko'ra yangi ma'lumotlarni e'lon qildi va ushbu Speedtest Global Index reytingida O'zbekiston keskin o'sishni namoyon etdi.

Intyernet tezligi bo'yicha reytingda O'zbekiston hozirgi kunda 94-pog'onani egallab turibdi, bir yil ichida 36 pog'onaga ko'tarilish kuzatildi. Umuman, oxirgi yil natijalariga ko'ra O'zbekistonda simli intyernet tezligi **2,5 barobarga** o'sgan.

Qolavyersa, telekommunikatsiya xizmatlari uchun tarif narxlari arzonlashmoqda. 2019 yil davomida provaydyer va opyectorlar uchun tashqi kanalga ulanish tariflari narxi 1 Mbit/s. 17 foizga arzonlashtirilgandi. 2020 yilning 1 yanvaridan opyector va provaydyerlarga intyernet xizmatlari uchun tarif o'tgan yilning shu davridagiga nisbatan **34 foiz** arzonlash-tirilgan. E'tiborli jihat shundaki, bozor iqtisodiyoti talablariga ko'ra, tizimli ravishda intyernet xizmatlari narxlari kamaytirilib borilmoqda.

Joriy yilda «O'zbektelekom» AK tomonidan yirik xorijiy IT-kompaniyalarining syervyer uskunalari va ko'plab xizmatlari mahalliyash-tirilgan. Bu butun O'zbekiston uchun muhim voqeadir. Mazkur yangilik ushbu xizmatlar

tomonidan taqdim etiladigan audio hamda videokontentlarni, dasturiy ta'minot va boshqa kontentlarni yuklab olish tezligini oshirishga yordam byeradi. O'z navbatida xalqaro intyernet kanalini sezilarli darajada engillashtirishi ham muhim mezonlardan biridir. Bu O'zbekistonning barcha opyerator hamda provaydyerlariga abonentlar uchun yanada arzon va tezkor takliflarni taqdim etish imkonini byeradi.

Mobil aloqa sohasini rivojlantirishda ham keng miqyosda ishlar olib borilmoqda. Mazkur davr mobaynida 6 mingdan ortiq mobil aloqa baza stansiyalari o'rnatildi va respublika aholi maskanlarini mobil aloqa bilan qamrovi darajasi **97** va mobil intyernet tarmog'iga keng polosali ulanish qamrovi darajasi **70 foizga** etkazilgan.

Aytish joizki, shu kunga qadar asosan telefon xizmatlarini ko'rsatuvchi 2G mobil tarmoqlarni kengaytirish vazifasi bajarilgan bo'lsa, hozir tarmoqning qamrovini oshirish bo'yicha loyihibar 3G/4G tarmoqlarini kengaytirishga yo'naltirilmoqda. Xususan, shu yilning o'zida **2200 ta** 3G/4G baza stansiyasini o'rnatish rejalashtirilgan.

2020 yil - «Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlanish yili»ning birinchi yarmida mobil aloqa opyectorlari tomonidan jami **1375 ta** mobil aloqa tayanch stançiyasi o'rnatilib, aholi maskanlarining mobil aloqa hamda keng polosali mobil intyernet tarmog'iga ulanish darajasi oshirilgan.

Ta'kidlash joizki, mamlakatimizda AKT sohasidagi eng ilg'or texnologik ishlanmalarni joriy etishga muhim e'tibor qaratiladi. 2019 yil sentyabrdan ikkita mahalliy mobil opyector — "Uzmobile" va "Ucell" 5G texnologiyasini test sinovidan o'tkazishni boshlagani shundan dalolat byeradi.

#### **4.2. To'laqonli IT-ekotizimini barpo etish — muhim masala**

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari izchil rivojlanishining yana bir muhim omillaridan biri sohada raqobatbardosh mahsulotlar va xizmatlarni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, ularni ichki hamda tashqi bozorlarda ilgari surish, innovatsion ishlanmalarni rag'batlantirishdir.

Aynan mana shu maqsadni ko'zlab barpo etilgan **Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parki (IT-Park)** ning rezidentlari hisoblangan **392** tashkilotda bugun to'rt ming nafar mutaxassis faoliyat yuritmoqda. Eng muhimi, ushbu tashkilotlarning **14 tasi** xorijiy kapital ishtirokida tashkil etilgan bo'lsa, 54 tasi yangi ochilgan.

Mazkur IT-Park da zarur infratuzilma, jumladan, zamonaviy laboratoriylar, kovorking- markaz hamda ofis maydonlari taqdim etilgan. Texnoparkda rezidentlarga moliyaviy, marketing, yuridik va boshqa konsalting xizmatlari ko'rsatiladi. Yana bir muhim jihat shundaki, rezidentlar uchun moliyaviy imtiyozlar ham byerilgan: ular 2028 yilning 1 yanvariga qadar barcha soliq va davlatning maqsadli jamg'armalariga majburiy ajratmalardan, shuningdek, bir martalik ijtimoiy to'lovlardan ozod qilingan.

Yil boshidan byeri IT- Park rezidentlari tomonidan jami 560 dan ortiq yangi ish o'rirlari yaratildi, dasturiy mahsulotlar va xizmatlar hajmi 321 mlrd. so'm, xususan, eksport hajmi **5,1 mln. dollarni** tashkil etgan.

Toshkent shahrida IT-Park rezidentlari sonini ko'paytirish hamda etarli shart-sharoitlar yaratish maqsadida umumiylar maydoni 408 ming kv. m.ga teng hududda xorijdan jalb qilingan ekspyert bilan hamkorlikda IT-Park infratuzilmasi ob'ektlarini qurish konceptsiyasi ishlab chiqildi. IT-Park ning hududiy filiallarini tashkil etish bo'yicha joylardagi mahalliy hokimliklar bilan qo'shma qarorlar imzolanib, har bir loyiha bo'yicha bajariladigan vazifalar tarmoq jadvallari tasdiqlangan.

Bundan tashqari, sog'liqni saqlash, ta'lif, transport, tadbirkorlik hamda turizm yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar o'rtasida eng yaxshi mobil ilovalarni ishlab chiqish bo'yicha "mGovAward" birinchi respublika tanlovi o'tkazilmoqda. Tanlov uchun Birlashgan Arab Amirliklari tomonidan **100 ming dollar** ajratilgan va **3 ta** munosib jamoa mazkur mablag' hisobidan rag'batlantirishi rejalashtirilgan.

Amyerika Qo'shma SHtatlarining YuSAID agentligi bilan bиргаликда IT-Park tomonidan inkubaçıya va akselyeraçıya dasturlari hamda ayollar tadbir-korligini

rivojlantirish uchun qiymati 140 ming dollarlik tadbirkorlik va biznes-muhitni rivojlantirish loyihasi amalga oshirilishi rejalash-tirilgan.

#### **4.3. Qulay onlayn xizmatlar ko'lami**

So'nggi ikki yilda mamlakatimizda zamonaviy elektron davlat xizmat-larini ko'rsatishning yaxlit tizimini yaratish, davlat organlarining aholi va tadbirkorlik sub'ektlari bilan o'zaro hamkorligining yangi mexanizmlarini joriy etish yuzasidan izchil ishlar olib borilgan.

Aholi va tadbirkorlik sub'ektlarining davlat organlari bilan kontakqiz aloqa shakllarini yanada rivojlantirish maqsadida YAgona intyeraktiv davlat xizmatlari portali ishlab chiqildi (<https://my.gov.uz>). Bugungi kunda portal orqali **176 tadan ortiq** elektron davlat xizmati taqdim etilmoqda.

Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini barcha manfaatdor vazirliklar, idoralar, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlariga ko'rib chiqish, elektron raqamli imzodan foydalangan holda kelishish, xususan, bir vaqtning o'zida keng jamoatchilik va mutaxassislar muhokamasini o'tkazish hamda tezkor jo'natish uchun vaqtini va mehnat resurslarini sezilarli darajada tejash maqsadida yagona elektron tizimi "project.gov.uz" joriy etilgan.

Bundan tashqari, Avtomobil transportida yo'lovchilarni va yuklarni tashish xizmati uchun liqenziya byerish, Abituriyentlardan hujjatlarni onlayn qabul qilish, Ipoteka kreditiga davlat subsidiyasini olish va o'qish joyidan ma'lumotnomasi olish xizmatlari ham yaratilgan.

Hozir YAgona intyeraktiv davlat xizmatlari portalida yana 26 ta yangi xizmat ishga tushirilishi rejalashtirilmoqda, buning natijasida umumiyligi xizmatlar soni 200 tadan oshadi. Yil boshidan byeri 1,4 mln. ta elektron xizmat ko'rsatilgan bo'lib, o'tgan yilning shu davridagiga nisbatan 8,1 foiz oshgan.

Elektron hukumatning idoralararo platformasida davlat organlarining 90 ga yaqin axborot tizimlari va resurslarining o'zaro elektron hamkorligini ta'minlash yo'lga qo'yilib, 160 mln.dan ziyod so'rovlargaga onlayn shaklda ma'lumotlar byerilganini ham alohida ta'kidlash joiz.

#### **4.4. Kadrlar bilan ta'minlanganlik darajasi**

Har bir yangi sohada bo'lgani kabi raqamli iqtisodiyotga o'tish jarayonida ham malakali kadrlar etishmovchiligi ko'zga tashlanmoqda. Tan olish kyerakki, bu muammo har doim ham dolzarb bo'lib kelgan. Kadrlar masalasida to'siqlarga duch kelayotganimiz bor gap. CHunki yangi soha, yangi yo'nalishda faoliyat yuritishi mumkin bo'lgan zaxira mavjud emas.

SHu o'rinda bir misol keltirib o'tsak. Ayni paytda vazirlik va idoralarda rahbarning aynan raqamlashtirish yo'nalishidagi o'rinxbosarlari lavozimlari joriy qilinmoqda. Vazirligimiz esa mana shu lavozimlarga tajribali mutaxassislarni tavsiya qilish, kyerak bo'lsa, ta'minlash uchun javobgardir. Vazirlik mamlakat miqyosida barcha sohalarda raqamlashtirishga mas'ul bo'lib, ba'zi holatlarda o'zi uchun professional mutaxassis zarur bo'lib turgan bir paytda bu bo'shliqni nimaning hisobiga to'ldirish zarur? Buning uchun nimalar qilish kyerak? Buning ham echimi topildi, unga mustahkam poydevor qo'yildi. Zotan, O'zbekistonning Eng katta boyligi — aholisining yarmidan ko'prog'ini tashkil etuvchi yoshlardir. SHuning uchun ham davlat siyosatida navqiron avlodning jamiyatdagi nufuzini oshirish muhim o'rin tutadi, ularning yangi-yangi mutaxassisliklar va kasblarni egallashiga katta e'tibor qaratilyamoqda.

Barchaga ma'lumki, Prezidentimiz g'oyasi bilan bugun respublika bo'ylab yoshlarga bo'lgan e'tiborni yanada kuchaytirish, ularni madaniyat, san'at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, yoshlarda axborot texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish, kitobxonlikni targ'ib qilish, xotin-qizlar bandligini oshirish maqsadida «5 muhim tashabbus» amalga oshirilmoqda. Ana shu tashabbusning uchinchisi — aholi va yoshlar o'rtasida kompyutyer texnologiyalari hamda intyernetdan samarali foydalanishni tashkil etish doirasida hududlarda **30 ta Raqamli texnologiyalar o'quv markazi tashkil etildi**. Bugungi kungacha jami **7,2 mingdan ortiq** tinglovchi o'quv kurslarini yakunlagan.

O'z navbatida yoshlarni, umumta'lim maktab o'quvchilarini, oliv ta'lim muassasalari talabalari, akademik liцеy va kasb-hunar kollejlari o'quvchilariga dasturlash asoslarini o'qitishga yo'naltirilgan «Bir million dasturchi» loyihasi

doirasida **69 mingdan ziyod** o'quvchi ta'lif olmoqda. Ulardan **5,8 ming nafari** kurslarni muvaffaqiyatli tugatdi. Hammaga ma'lumki, yuqori malakali kadrlarni tayyorlashning eng samarali yo'li — ularni bolalik paytidan boshlab o'rgatishdir. SHu maqsadda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 14 sentyabrdagi qaroriga muvofiq, Muhammad al-Xorazmiy nomidagi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yo'nalishiga oid fanlarni chuqurlashtirib o'qitishga ixtisoslashtirilgan maktab tashkil etilgan.

2019 yil dekabr oyida ushbu o'quv dargohining zamonaviy binosi foydalanishga topshirilgan. Ayni paytda matematika va xorijiy tillardan muvaffaqiyatli imtihon topshirgan 680 nafar o'g'il-qiz maktabning 5 -11 sinflarida ta'lif olmoqda.

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari univyyersitetining ta'lif sohasida ham katta ijobiy o'zgarishlar ro'y byerdi. 2018/2019 o'quv yildan boshlab univyyersitet zamonaviy ta'limning kredit modul tizimiga o'tkazildi va hozirgi kunda bu tizimda **9 609 nafar** talaba o'qiyapti. Univyyersitet tuzilmasida O'zbek—Belarus qo'shma fakulteti ham tashkil etilgan. Bundan tashqari Univyyersitetda YAponiya xalqaro hamkorlik tashkilotining (JICA) **1,6 million dollar** miqdoridagi texnik granti hisobiga zamonaviy o'quv media markazi ochildi. Media markazda videokontentni tasvirga olish va ishlab chiqarish uchun barcha imkoniyat mavjud.

Prezidentimizning 2019 yil 7 yanvardagi qaroriga muvofiq, Toshkent shahridagi Amiti univyyersiteti 2019 yilning sentyabr oyidan o'quv yilini ochgan.

Toshkent shahridagi Amiti univyyersitetiga bakalavr darajasi uchun Axborot texnologiyalari, Muhandislik va kompyutyer texnologiyalari, Iqtisodiyot, Turizm boshqaruvi, Biznes boshqaruvi yo'nalishlari bo'yicha, shu bilan birga, magistrlik darajasi uchun ham qabul amalga oshirildi.

Mazkur davr mobaynida xalqaro aloqalarni rivojlantirish yo'lida Toshkent shahridagi INHA univyyersiteti ham samarali ish olib bordi.

Kelgusida o'quv markazlaridan tashqari «Ishga marhamat» monomarkazlarida va Texnopark filiallarda yoshlarga raqamli texnologiyalarni o'rgatish bo'yicha maxsus kurslar ham tashkil etiladi.

O'ylaymanki, mana shu markazlarda tahsil olgan yoki loyiha ishtirokchisiga aylangan yoshlarning barchasi axborot-kommunikaçıya texnologiyalari yo'naliшини tanlamagan holda ham ularning ma'lum qismi shu yo'ldan ketadigan bo'lsa, kadrlar muammosini hal qilishga yordam byeradi.

#### **4.5. YAqin davrdagi vazifalar**

Oldimizda turgan eng asosiy vazifa — o'z ichiga barcha soha va tarmoqlarni qamrab olgan hamda O'zbekiston iqtisodiyotini to'liq va kompleks ijobiy o'zgartirishga hamda raqobatbardoshlikni oshirishga yo'naltirilgan.

Yana bir muhim vazifa — davlat rahbarining "**Toshkent shahrida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida**"gi qarori ijrosini ta'minlashimiz zarur. Mazkur hujjatga asosan tasdiqlangan «Raqamli Toshkent» kompleks dasturida ta'lim, sog'liqni saqlash, transport, kommunal sohalariga axborot-kommunikaçıya texnologiyalarini jalb qilgan holda O'zbekiston poytaxtining qiyofasini to'liq ijobiy o'zgartirish maqsad qilib qo'yilgan.

**“Raqamli Toshkent”** konçerçiyasi «Xavfsiz shahar» yirik loyihasi bilan bevosita bog'liq. Mazkur loyihani 2019 — 2023 yillarda bosqichma-bosqich respublikaning barcha hududlarida joriy etilishi belgilangan. Birinchi bosqichda 2019 — 2020 yillarda Toshkent shahrida loyihaning yagona texnologik platformasini yaratish bo'yicha ishlar amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yildagi 28 aprel kuni qabul qilingan «Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qaroriga ko'ra 2023 yilga borib raqamli iqtisodiyotning mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushini 2 hamda ushbu sohadagi xizmatlar hajmini 3 baravar oshirish, ularning eksportini 100 million dollarga etkazish nazarda tutilgan.

Qolavyersa, 2020 — 2022 yillarda elektron hukumat, telekommunikatsiyalar va dasturiy mahsulotlar, axborot texnologiyalari texnologik parki faoliyatini yanada rivojlantirish, iqtisodiyotning real sektori tarmoqlari, qishloq hamda suv xo'jaligida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish bo'yicha jami 268 ta loyihani amalga oshirish rejalashtirilmoqda.

SHulardan kelib chiqib, IT-Park rezidentlari sonini 450 taga hamda ular tomonidan ko'rsatilgan eksport hajmini 25 mln. dollarga yetkazish maqsadida tegishli infratuzilma kengaytirilmoqda.

Xususan, Muhammad al-Xorazmiy nomidagi AKTga ixtisoslashtirilgan maktab hududida IT-Park Toshkent filialini ishga tushiriladi hamda qo'shimcha 700 ta ish o'rni yaratiladi.

O'z navbatida «5 muhim tashabbus» ning uchinchisi doirasida yil yakunigacha qo'shimcha 72 ta Raqamli texnologiyalar o'quv markazi tashkil etiladi, ularda axborot texnologiyalari sohasida 15 mingdan ortiq yoshlar o'qitiladi.

Barcha hududdagi yoshlar markazlarida yoshlarni «Bir million dasturchi» loyihasi doirasida dasturlash ko'nikmalarini o'rgatishga qaratilgan kurslar faoliyati yo'lga qo'yiladi, umumta'lim maktablari o'quvchilari va oliy ta'lim muassasalari talabalarini o'qitish orqali loyihaga jalb qilinganlar soni 100 mingtaga etkaziladi.

«O'zbektelekom» AK ma'lumotlarni saqlash va qayta ishslash markazi sig'imini **5 baravarga (5 Petabaytgacha)** kengaytirish ham ko'zda tutilyapti. Ayni chog'da 600 ming portli keng polosali ulanish qurilmalarini o'rnatish orqali umumiy portlar soni **2,8 mln.taga, 5,5 ming km.** optik kabel liniyalari qurish orqali respublika bo'yicha umumiy optik aloqa liniyalari uzunligini 50 ming km.ga etkaziladi. Qolavyersa, 1 052 ta mobil aloqa baza stansiyasini o'rnatish va ularning umumiy sonini **28,3 mingga** etkazish orqali respublika aholi yashash maskanlarining keng polosali mobil tarmoq bilan qamrov darajasi oshiriladi.

Eng muhimi, **2700** ta maktabgacha ta'lim hamda **1740** ta sog'liqni saqlash ob'ektining to'liq, **2160** ta xalq ta'limi muassasasini yuqori tezlikdagi intyernetga ulash imkoniyati ham yaratiladi.

#### **4.6. Agrar sohada ham raqamli texnologiyalar**

Bugungi kunda, yer munosabatlari, qishloq va suv xo'jaligi resurslarini boshqarish samaradorligini oshirish maqsadida raqamli hamda geoaxborot texnologiyalari tizimini joriy etish yuzasidan Axborot texnologiyalari va kommunikaçiyalarini rivojlantirish vazirligi oldiga ham aniq vazifalar qo'yilgan.

Respublikamizda geoaxborot texnologiyalarini rivojlanirish maqsadida sohada etuk tajribaga ega bo'lган xorijiy kompaniyalarning tajribasi o'rganildi.

Hozirgi kunda xorijiy kompaniyalarning yerni masofadan zondlash yo'ldoshlari olgan kosmik suratlarni respublikamiz hududida qabul qilish va ularga ishlov byerish uchun "virtual" qabul qilish stansiyasi (geoaxborot markazini)ni tashkil etish loyihasi bo'yicha takliflar o'rganilmoqda.

Mazkur loyiha - geoaxborot texnologiyalarini transfyer qilish va mahalliy mutaxassislarni xalqaro darajada tayyorlashni ham o'z ichiga qamrab oladi.

Buning natijasida kosmik suratlarni qabul qilish hamda ularga ishlov byerish orqali geodeziya, kartografiya va kadastr yo'naliishlari, noqonuniy qurilishlarning oldini olish ishlari samaradorligi ta'minlanadi.

SHuningdek, qishloq hamda suv xo'jaligi, tabiiy va texnogen favqulodda vaziyatlarning oldini olish, ekologiya, arxeologiya, shaharsozlik hamda yo'l qurilishi, chegara nazorati, xavfsizlik va mudofaa sohalaridagi ayrim masalalarni hal etish tizimi ham yaratiladi.

Yer hamda ko'chmas mulk munosabatlarini tartibga solish yo'naliishida YAgona intyeraktiv davlat xizmatlari portalini orqali bugungi kunda 8 ta elektron davlat xizmatlari joriy qilingan bo'lib, **50 mingga yaqin** arizalar kelib tushgan.

Mazkur yo'naliishda aholiga qo'shimcha qator qulayliklarni yaratish, eng asosiysi mazkur yo'naliishda "inson omili"ni cheklash maqsadida joriy yil yakuniga qadar 5 ta davlat xizmatlari takomillashtiriladi.

Qishloq xo'jaligi yyerlari va ularda etishtiriladigan ekinlar holatini tezkor va aniq baholash maqsadida kosmik ma'lumotlardan foydalanish bo'yicha Andijon viloyatida tajriba loyihasi amalga oshirilmoqda. Loyiha doirasida Andijon

viloyatining maydonlari vektor formatida “Montyerra” onlayn platformasiga kiritilmoqda.

Mazkur platforma hozirgi kunda Davyergeodezkadastr qo’mitasining “Yer axborot” tizimi bilan o’zaro integraçiya qilindi.

Loyiha sentyabr oyida ishga tushadi va Andijon viloyatidagi barcha ekin maydonlarining tahliliy ma’lumotlari shakllantirilib, yer egalariga taqdim etish imkoniyati yaratiladi.

21 iyul’ kuni Prezidentimiz yer hisobi va davlat kadastrlarini to’liq shakllantirish, sohaga raqamli texnologiyalarni joriy etish masalalari bo’yicha yig’ilish o’tkazdi. Ushbu yig’ilishda vazirligimiz oldiga ham bir qator vazifalar qo’yildi.

Jumladan, yig’ilishda, kadastr idoralari zimmasiga yerning hisobi va balansini yuritish, yil yakuniga qadar yer turi, konturi, chegarasi va foydalanuvchisi haqidagi ma’lumotlar jamlangan axborot tizimini ishga tushirish vazifasi yuklandi. Endi yer ajratish to’g’risidagi qaror mazkur tizimga kiritilsagina haqiqiy hisoblanadi. SHuningdek, sun’iy yo’ldosh kanallarini ijaraga olish va signallarni qayta ishslash tizimini tashkil etishga ko’rsatma byerildi. Bu esa kosmosuratlarni yillar bo’yicha taqqoslash orqali hosildorlikni tahlil qilish, yerlarning meliorativ holatini muntazam o’rganishda qo’l keladi.

Yil yakuniga qadar qishloq xo’jaligi maydonlarini elektron tanlov va auksion asosida ajratish tartibini joriy qilish, xalqaro ekspsyertlarni jalgan holda yer toifalarini optimallashtirish borasidagi ishlar o’z vaqtida bajarilishida vazirligimiz boshqa mutasaddi tashkilot va idoralar bilan yaqindan hamkorlikda ish olib boradi.

Mazkur vazifalarning samarali amalga oshirilishi, shubhasiz, respublikaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko’rsatadi, zamonaviy taraqqiyotning yangi qirralarini o’zlashtirishga xizmat qiladi.

Davlat kadastrlarini yuritish ishlarini yuritishni takomillashtirish

## **Y. Davlat kadastrlarini yuritish ishlarni yuritishni takomillashtirish**

Davlat kadastrlari ma'lumotlari bazasini yaratish borasida bir qator hukumat qarorlari qabul qilinmoqdaki bu sohada bajariladigan ishlarni talab darajasida va yuqori aniqlikda amalga oshirish imkonini byeradi misol tariqasida hayvonot va o'simlik dunyosi ob'ektlari kadastrlarini yuritish tartibi to'g'risidagi Vazirlar Maxkamasining Qarorini keltirish mumkin.

2018 yil 7 noyabrdagi O'RQ-409-sun Qonuniga muvofiq hamda bioxilma-xillik ob'ektlarining davlat hisobini, ulardan foydalanish hajmlari hisobini va davlat kadastrini yuritish tartibini takomillashtirish, kadastr ma'lumotlarini toplash, puxta ishlab chiqish va saqlash bo'yicha zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish, hayvonot va o'simlik dunyosi ob'ektlarining davlat hisobini hamda davlat kadastrini yuritish masalalarini tartibga solish maqsadida Hayvonot dunyosi ob'ektlarining davlat hisobini, ulardan foydalanish hajmlari hisobini va davlat kadastrini yuritish tartibi to'g'risidagi va o'simlik dunyosi ob'ektlarining davlat hisobini, ulardan foydalanish hajmlari hisobini va davlat kadastrini yuritish tartibi to'g'risidagi nizomlar tasdiqlandi, bu nizomlarning qabul qilinishi hayvonot va o'simliklar dunyosi kadastr-larini yuritish sohasida tub burilish yasalishiga va bu borada qator aniqliklar kiritilishiga imkon byerdi.

### **5.1. Hayvonot va o'simlik dunyosi ob'ektlarining davlat kadastrlarini yuritish ishlarni yuritishni takomillashtirish**

«Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida»

O'zbekiston Respublikasining 2016 yil 19 sentyabrdagi O'RQ-408-son Qonuni hamda «O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida» Vazirlar Mahkamasi qaror qildi, Qarorda

Quyidagilar:

Hayvonot dunyosi ob'ektlarining davlat hisobini, ulardan foydalanish hajmlari hisobini va davlat kadastrini yuritish tartibi to'g'risidagi nizom;

O'simlik dunyosi ob'ektlarining davlat hisobini, ulardan foydalanish hajmlari hisobini va davlat kadastrini yuritish tartibi to'g'risidagi nizom tasdiqlandi.

### **Hayvonot dunyosi ob'ektlarining davlat kadastrini yuritish tartibi**

Hayvonot dunyosi ob'ektlarini davlat tomonidan hisobga olish, ulardan foydalanish hajmlarini hisobga olish va davlat kadastro ma'lumotlari hayvonot dunyosi ob'ektlarini hamda ular yashaydigan muhitni saqlash, ulardan foydalanish, qayta ko'paytirish va tiklash tadbirlarini rejalashtirish uchun asos hisoblanadi.

Hayvonot dunyosi ob'ektlarining davlat kadastro quyidagi maqsadlarda yuritiladi:

hayvonot dunyosi ob'ektlarining son va sifat holatini aniqlash;

hayvonot dunyosi ob'ektlarini iqtisodiy baholash;

hayvonot dunyosi ob'ektlaridan xo'jalikda foydalanish hajmlarini aniqlash;

davlat organlari, manfaatdor yuridik va jismoniy shaxslarga hayvonot dunyosi ob'ektlarining holati to'g'risida ishonchli axborot taqdim etish;

hayvonot dunyosi ob'ektlarini saqlash, ulardan oqilona, barqaror foydalanish, himoya qilish, qayta ko'paytirish va tiklash hamda ularning biologik xilmaliligini saqlashni tashkil etish;

hayvonot dunyosi ob'ektlarini saqlash, ulardan oqilona, barqaror foydalanish, himoya qilish, qayta ko'paytirish va tiklash talablariga rioya etilishini ta'minlash.

Hayvonot dunyosi ob'ektlarining davlat kadastro:

hayvonot dunyosi ob'ektlarining tarqalishi, populyatsiya holati, son va sifat tavsiflari to'g'risidagi ma'lumotlarni;

hayvonot dunyosi ob'ektlaridan xo'jalikda foydalanish xususiyati va hajmlari haqidagi ma'lumotlarni;

hayvonot dunyosi ob'ektlarining tarqalish xaritasini;

hayvonot dunyosi ob'ektlarini iqtisodiy baholashni;

hayvonot dunyosi ob'ektlarining yashash muhiti holati to'g'risidagi ma'lumotlarni;

kadastr ma'lumotlarini tizimlashtirish, saqlash, yangilash va manfaatdor foydalanuvchilarga tegishli shakl hamda hajmlarda belgilangan tartibda tezkor byerish bo'yicha tartibga soluvchi talablarni;

hayvonot dunyosi ob'ektlari haqidagi boshqa ma'lumotni o'z ichiga oladi.

Quyidagilar hayvonot dunyosi ob'ektlarining davlat kadastrini yuritishning asosiy principplari hisoblanadi:

O'zbekiston Respublikasining barcha hududida yashaydigan va davlat kadastriga kiritilishi shart bo'lgan yovvoyi hayvonlarning hamma turlarini (kichik turlarini) qamrab olish;

makon koordinatalarining yagona tizimini qo'llash;

ma'lumotlarni to'plash, qayta ishlash texnologiyasi va taqdim etish usulining yagonaligi;

davlat kadastrini yuritishni markazlashtirilgan tartibda boshqarish;

Davlat kadastrlari yagona tizimi talablarini ta'minlash;

kadastr ma'lumotlarining ishonchliligi.

O'zbekiston Respublikasi Ekoliya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi (keyingi o'rnlarda Davlat ekoliya qo'mitasi deb ataladi) hayvonot dunyosi ob'ektlarining davlat kadastrini O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi (keyingi o'rnlarda Fanlar akademiyasi deb ataladi) bilan birgalikda yuritadi.

Fanlar akademiyasi hayvonot dunyosi ob'ektlarining davlat kadastro yuritilishini ilmiy jihatdan ta'minlaydi.

Hayvonot dunyosi ob'ektlarining davlat kadastrini yuritishda hududni kadastr bo'yicha tekshirish, hayvonot dunyosi ob'ektlarini davlat tomonidan hisobga olish, ularidan foydalanish hajmlarini, ularning yashash muhiti holatini hisobga olish, shuningdek, hayvonot dunyosi ob'ektlarining davlat kadastrini yuritish uchun zarur ilmiy-tadqiqot va boshqa ishlarni amalga oshirish natijasida to'plangan ma'lumotlardan foydalaniladi.

Hayvonot dunyosi ob'ektlarining davlat kadastrida foydalanish predmeti bo'lgan yoki hududning ekologik muhitiga ta'sir ko'rsatadigan yoxud kamyob va yo'qolib ketish xavfi bo'lgan tur maqomiga ega bo'lgan barcha turdag'i yovvoyi hayvonlar hisobga olinadi.

Davlat tomonidan hisobga olinadigan, foydalanish hajmlari hisobga olinadigan va hayvonot dunyosi ob'ektlarining davlat kadastriga kiritiladigan yovvoyi hayvonlar turlarining ro'yxatini Davlat ekologiya qo'mitasi Fanlar akademiyasi bilan kelishgan holda tasdiqlaydi.

Davlat qo'riqxonalari, kompleks (landshaft) buyurtma qo'riqxonalar, tabiat bog'lari va biologik buyurtma qo'riqxonalar, davlat biosfyera rezyervatlari, tabiiy pitomniklarda hayvonot dunyosi ob'ektlarining davlat hisobi va davlat kadastro ularning barcha turlari bo'yicha yuritiladi.

Hisobga va ro'yxatga olish hamda baholash axboroti hayvonot dunyosi to'g'risidagi jami kadastr ma'lumotlarini tashkil qiladi va bu axborot qog'oz hamda elektron (geoma'lumotlar bazasi) variantlarda alifbo-raqamli (matnlar, jadvallar) va grafik (xaritalar, sxemalar) shaklida taqdim etiladi.

Davlat organlari kadastr ma'lumotlarini bepul asosda, manfaatdor yuridik va jismoniy shaxslar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan miqdorlarda to'lov asosida oladi.

Hayvonot dunyosi ob'ektlarining davlat hisobi, ulardan foydalanish hajmlari hisobi va davlat kadastro har yilgi maqsadli moliyalashtirish asosida O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetining mablag'lari hamda qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan yuritiladi.

Hayvonot dunyosi ob'ektlarining davlat hisobi, ulardan foydalanish hajmlari hisobi va davlat kadastrini yuritishni moliyalashtirish hajmlari hamda muddatlari qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda belgilanadi.

Davlat ekologiya qo'mitasi:

hayvonot dunyosi ob'ektlarining davlat kadastro yuritilishini muvofiqlashtiradi;

normativ-uslubiy hujjatlarni ishlab chiqadi;

yuridik va jismoniy shaxslarning hayvonot dunyosi ob'ektlari davlat kadastrining ma'lumotlaridan foydalanish tartibi va shartlarini belgilaydi.

## **5.2. Hududlarni kadastr bo'yicha tekshirish, hayvonot dunyosi ob'ektlarini davlat tomonidan hisobga olish va ulardan foydalanish hajmlarini hisobga olish tartibi**

Hayvonot dunyosi ob'ektlari davlat kadastrining birlamchi kadastr ma'lumotlari hududni kadastr bo'yicha tekshirish orqali to'planadi.

Hududni kadastr bo'yicha tekshirishda hayvonot dunyosi ob'ektlari, shuningdek, ular yashaydigan muhit haqidagi ma'lumotlar aniqlanadi.

Hududni kadastr bo'yicha tekshirishda hayvonot dunyosi ob'ektlari ro'yxatga olinadi, ularning turlari tarkibi, yoshi va jinsi, son va sifat tavsiflari, yashash muhiti, xo'jalikda foydalanish haqida ma'lumotlar to'planadi, ular iqtisodiy baholanib, hududiy tarqalishining xarita-sxemasi tuziladi.

Qayd etilgan ma'lumotlar hayvonot dunyosi ob'ektlarini hisobga olish va boshqa ma'lumotlarni ro'yxatdan o'tkazish kitobiga kiritiladi hamda hayvonot dunyosi ob'ektlarining davlat kadastrini shakllantirish va yangilash uchun Davlat ekologiya qo'mitasiga taqdim etiladi.

Hayvonot dunyosi ob'ektlari yashaydigan muhit hududi kadastr bo'yicha besh yilda bir marta tekshiriladi.

Tabiiy ofatlar, texnogen avariylar, yong'inlar va boshqa hodisalar oqibatlari hayvonlarning ommaviy o'lishiga yoki ularning yashash muhiti o'zgarishiga sabab bo'lsa, ushbu voqealarning salbiy ta'siriga duchor bo'lgan hududlar kadastr bo'yicha navbatdan tashqari tekshiriladi.

Hududlarni kadastr bo'yicha tekshirish, shu jumladan hayvonot dunyosi ob'ektlarini davlat tomonidan hisobga olish ishlari:

Fanlar akademiyasi tomonidan O'zbekiston Respublikasining barcha hududlarida — kamyob va yo'qolib borayotgan yovvoyi hayvonlar turlari bo'yicha;

O'zbekiston Respublikasi O'rmon xo'jaligi davlat qo'mitasining (keyingi o'rirlarda O'rmon xo'jaligi davlat qo'mitasi deb ataladi) tarkibiy bo'linmalari tomonidan — o'rmon fondi yerlarida, shu jumladan o'rmon xo'jaligi zararkunandalari bo'lgan hayvonlarni hisobga olish;

davlat qo'riqxonalari, kompleks (landshaft) buyurtma qo'riqxonalar, tabiat bog'lari va biologik buyurtma qo'riqxonalar, davlat biosfyera rezyervatlari, tabiiy pitomniklar tomonidan — qayd etilgan muhofaza etiladigan tabiiy hududlarda;

ovchilik-baliq ovlash xo'jaliklari tomonidan — ushbu xo'jaliklar hududida;

baliq ovlash tashkilotlari tomonidan — taqdim etilgan suv ob'ektla-rida yoki ularning qismlarida;

«O'zbekbaliqsanoat» uyushmasi, Aydar-Arnasoy ko'lllar tizimi direk-şiyasi tomonidan — ovlanadigan baliqlar turlari bo'yicha;

O'zbekiston Respublikasi Sog'lijni saqlash vazirligining O'lat, karan-tin va o'ta xavfli infekciyalarni profilaktika qilish markazi tomonidan — o'ta xavfli yuqumli kasallikkarni tarqatuvchi hayvonlar bo'yicha;

O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi tomonidan(keyingi o'rirlarda Qishloq xo'jaligi vazirligi deb ataladi) — qishloq xo'jaligi zararkunandalari bo'lgan hayvonlar bo'yicha;

ilmiy, ta'lim tashkilotlari va biolog mutaxassislar tomonidan Davlat ekoliya qo'mitasi bilan shartnomaga asosida — boshqa hududlarda amalga oshiriladi.

Hayvonot dunyosi ob'ektlarini davlat tomonidan hisobga olish hayvonot dunyosi ob'ektlarining holati va ularning yashash muhitidagi o'zgarishlarni kuzatish maqsadida hayvonot dunyosi ob'ektlari turlarining xilma-xilligi, soni va tarqalishi haqida ma'lumotlar to'plash uchun muntazam o'tkaziladigan zarur tadbirlar kompleksidan iborat.

Manfaatdor vazirliklar, idoralar va boshqa tashkilotlar kelgusi yilda davlat tomonidan hisobga olishni amalga oshiradigan hayvonot dunyosidan foydalanuvchi yuridik shaxslar ro'yxatini, ularning nomi, idoraviy mansubligi, joylashgan joyi ko'rsatilgan holda har yili shakllantiradi va 1 noyabrdan kechiktirmasdan Davlat ekoliya qo'mitasiga taqdim etadi.

Davlat organlari, hayvonot dunyosi ob'ektlaridan foydalanuvchi yuridik shaxslar hayvonot dunyosi ob'ektlarini har yili davlat tomonidan hisobga olish uchun shartnoma asosida boshqa tashkilotlar yoki mutaxassislarni ham jalb qilishi mumkin.

Joylardagi hayvonot dunyosi ob'ektlarini davlat tomonidan hisobga olish va ulardan foydalanish hajmlarini hisobga olish davomida hayvonot dunyosi ob'ektlarini davlat tomonidan hisobga olish sub'ektlari joriy ma'lumotlarni to'plashda hududda kadastr bo'yicha tekshirish o'tkazilgandan so'ng ro'y byeradigan keyingi barcha o'zgarishlar qayd etilib, har yili kadastrga kiritiladi.

Hayvonot dunyosi ob'ektlari davlat tomonidan har yili hisobga olinadi.

Hayvonot dunyosi ob'ektlarini davlat tomonidan hisobga olishda (kadastr ma'lumotlarini birlamchi to'plashda) hayvonot dunyosi ob'ektlarini davlat tomonidan hisobga olish sub'ektlarining vakolatli shaxslari hayvonot dunyosi ob'ektlari, ularning yashash muhiti to'g'risidagi ma'lumotlarni, shuningdek, hududda kadastr bo'yicha tekshirish o'tkazilgandan so'ng ro'y byergan barcha o'zgarishlarni hisobga olish hamda boshqa ma'lumotlarni ro'yxatdan o'tkazish kitobiga kiritadi.

Hayvonot dunyosi ob'ektlaridan foydalanishni hisobga olish tabiiy muhitdan hayvonlar yoki ularning qismlarini ajratib olish bilan bog'liq foydalanishga nisbatan amalga oshiriladi.

Hayvonot dunyosi ob'ektlaridan foydalanish hajmlari quyidagi ma'lumotlar asosida hisobga olinadi:

hayvonot dunyosi ob'ektlarini tutish uchun ruxsatnomalar — yashash muhitida tutib olingan hayvonlar yoki ularning qismlari bo'yicha;

havaskor baliqchilar tomonidan tutilgan baliqlar soni bo'yicha;

hayvonlarni noqonuniy tutish to'g'risidagi matyeriallar bo'yicha.

Hayvonot dunyosi ob'ektlaridan foydalanish hajmlari:

O'rmon xo'jaligi davlat qo'mitasining tarkibiy bo'linmalari tomonidan — o'rmon fondi hududida foydalanish bo'yicha;

ovchilik-baliq ovlash xo'jaliklari tomonidan — ushbu xo'jaliklar hududida;

baliq ovlash tashkilotlari tomonidan — taqdim etilgan suv ob'ektlarida yoki ularning qismlarida;

Davlat ekologiya qo'mitasining vakolatli bo'linmalari tomonidan — O'zbekiston Respublikasining boshqa barcha hududlarida hisobga olinadi.

Hayvonot dunyosi ob'ektlaridan foydalanish hajmlarini hisobga olish ma'lumotlari Davlat ekologiya qo'mitasiga taqdim etiladi.

Hududni kadastr bo'yicha tekshirish, hayvonot dunyosi ob'ektlarini davlat tomonidan hisobga olish va ulardan foydalanish hajmlarini hisobga olish Davlat ekologiya qo'mitasi Fanlar akademiyasi bilan kelishgan holda tasdiqlaydigan uslublar asosida amalga oshiriladi. Avval olingan ma'lumotlarni keyingi ma'lumotlar bilan taqqoslash uchun bitta uslub qo'llanadi.

Hududni kadastr bo'yicha tekshirish, hayvonot dunyosi ob'ektlarini davlat tomonidan hisobga olish va ulardan foydalanish hajmlarini hisobga olishni amalga oshiradigan vazirliklar, idoralar hamda tashkilotlar hayvonot dunyosi ob'ektlarining davlat kadastrini yuritish uchun zarur ma'lumotlarni Davlat ekologiya qo'mitasiga bepul asosda taqdim etadi.

Hayvonot dunyosi ob'ektlarining davlat kadastro bo'yicha zarur ma'lumotlarni taqdim etish turlari, hajmlari va muddatlari Davlat ekologiya qo'mitasi tomonidan belgilanadi.

Vakolatli organlar hayvonot dunyosi ob'ektlarini hisobga olish va boshqa ma'lumotlarni ro'yxatdan o'tkazish kitobini ushbu Nizomga [1](#)-ilovaga muvofiq yuritadi.

Hayvonot dunyosi ob'ektlarini davlat tomonidan hisobga olish sub'ektlari Davlat ekologiya qo'mitasining vakolatli bo'linmalariga kadastr ma'lumotlarini taqdim etadi.

Hayvonot dunyosi ob'ektlarini hisobga olish va boshqa ma'lumotlarni ro'yxatdan o'tkazish kitobi va kadastro ma'lumotlarini taqdim etish shakllari tegishli tashkilotlar tomonidan to'ldiriladi.

Hayvonot dunyosi ob'ektlarining davlat hisobi ilmiy, ta'lim tashkilotlari va biolog mutaxassislar tomonidan shartnoma asosida yuritilgan hollarda, hayvonot

dunyosi ob'ektlarini hisobga olish va boshqa ma'lumotlarni ro'yxatdan o'tkazish kitobiga ma'lumotlar ushbu mutaxassislar tomonidan kiritiladi.

Kadastr ma'lumotlarini taqdim etish shakllari hududida hisobga olish ishlari amalga oshiriladigan tashkilotning mas'ul xodimlari tomonidan to'ldiriladi.

Hududni kadastr bo'yicha tekshirish, hayvonot dunyosi ob'ektlarini davlat tomonidan hisobga olish va ulardan foydalanish hajmlarini hisobga olish natijasida olingen ma'lumotlar Davlat ekologiya qo'mitasining vakolatli bo'linmasiga, shuningdek, respublikaning tegishli organlari va tashkilotlariga taqdim etiladi.

O'ta xavfli yuqumli kasalliklarni tarqatuvchi hayvonlarning soni va turlari tarkibi to'g'risidagi ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining O'lat, karantin va o'ta xavfli infektsiyalarni profilaktika qilish markaziga uning ushbu hisobni yuritadigan hududiy bo'linmalari tomonidan taqdim etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi, O'rmon xo'jaligi davlat qo'mitasi, Sog'liqni saqlash vazirligining O'lat, karantin va o'ta xavfli infektsiyalarni profilaktika qilish markazi, O'zbekiston Ovchilar va baliq ovlash sporti birlashmasi olingen ma'lumotlarni umumlashtiradi hamda Davlat ekologiya qo'mitasiga taqdim etadi.

### **5.3. Hayvonot dunyosi ob'ektlari davlat kadastrining tarkibi**

Hayvonot dunyosi ob'ektlarining davlat kadastro yovvoyi hayvonlarning quyidagi turlar guruhida birlashtirilgan har bir turi (kichik turi) bo'yicha ma'lumotlarni o'z ichiga oladi:

- kamyob va yo'qolib ketish xavfi bo'lgan yovvoyi hayvonlar turlari;
- muhofaza etiladigan tabiiy hududlarda yashaydigan hayvonlar turlari;
- hayvonlarning ovlanadigan va sanoat turlari (shu jumladan baliqlar);
- qishloq xo'jaligi zararkunandalari bo'lgan hayvonlar;
- o'rmon xo'jaligi zararkunandalari bo'lgan hayvonlar;
- odam va hayvonlarning o'ta xavfli yuqumli kasalliklarini tarqatuvchi hayvonlar;

hayvonlarning boshqa turlari.

Hududni kadastr bo'yicha tekshirish, hayvonot dunyosi ob'ektlarini davlat tomonidan har yili hisobga olish, ulardan foydalanish hajmlarini hisobga olish hayvonot dunyosi ob'ektlarining davlat kadastrini tuzish uchun asosiy axborot manbai hisoblanadi.

Kamyob va yo'qolib ketish xavfi bo'lgan yovvoyi hayvonlar turlari bo'yicha hayvonot dunyosi ob'ektlarining davlat kadastriga kiritiladigan ma'lumotlar quyidagilardan iborat:

identikaçiya raqami;

hayvon turining nomi;

turning tabiatni muhofaza qilish bo'yicha maqomi;

taqsimlanishi (hududiy tarqalishi);

sonini hisobga olgan holda (ekspert) baholash;

turning populyaciya holati;

limitlovchi omillar;

foydalanish;

yashash muhitining holati;

muhofaza etish choralar;

iqtisodiy baholash.

Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarda yashaydigan hayvonlar turlari bo'yicha hayvonot dunyosi ob'ektlarining davlat kadastriga kiritiladigan ma'lumotlar quyidagilardan iborat:

identikaçiya raqami;

hayvon turining nomi;

turning tabiatni muhofaza qilish bo'yicha maqomi;

hisobga olish amalga oshirilgan muhofaza etiladigan tabiiy hududning nomi;

hisobga olish amalga oshirilgan maydon;

hisobga olingan hayvonlar soni;

turning populyaciya holati;

foydalanish;

iqtisodiy baholash.

Ovlanadigan hayvonlar turlari bo'yicha hayvonot dunyosi ob'ektlarining davlat kadastriga kiritiladigan ma'lumotlar quyidagilardan iborat:

identifikasiya raqami;

hayvon turining nomi;

turning maqomi;

ovchilik-baliq ovlash xo'jaligining nomi;

hisobga olish amalga oshirilgan maydon;

hisobga olingan hayvonlar soni;

tur yashaydigan hududdagi (muhitdagi) hayvonlar soni;

turning populyaçiya holati;

yashash muhitining holati;

foydanish;

qo'riqlash choralar;

iqtisodiy baholash.

Ovlanadigan baliqlar turlari bo'yicha hayvonot dunyosi ob'ektlarining davlat kadastriga kiritiladigan ma'lumotlar quyidagilardan iborat:

identifikasiya raqami;

turning nomi;

turning maqomi;

suv havzasining nomi;

suv havzasining maydoni;

sonni ekspyert baholash;

turning populyaçiya holati;

yashash muhitining holati;

foydanish;

iqtisodiy baholash.

Qishloq xo'jaligi zararkunandalari bo'lган va o'rmon xo'jaligi zararkunandalari bo'lган hayvonlar bo'yicha hayvonot dunyosi ob'ektlarining davlat kadastriga kiritiladigan ma'lumotlar quyidagilardan iborat:

identifikasiya raqami;  
hayvon turining nomi;  
turning maqomi;  
xo'jalikning (hududning) nomi;  
tarqalish maydoni, zararlangan maydon;  
turning soni;  
turning populyaciya holati;  
o'rtacha zararli va zararni iqtisodiy baholash.

O'ta xavfli yuqumli kasalliklarni tarqatuvchi hayvonlar bo'yicha hayvonot dunyosi ob'ektlarining davlat kadastriga kiritiladigan ma'lumotlar quyidagilardan iborat:

identifikasiya raqami;  
hayvon turining nomi;  
turning maqomi;  
hisobga olish joylari uchastkalarining nomlari va geografik koordinatalari ko'rsatilgan holda taqsimlanishi (hududiy tarqalishi);  
turning soni;  
turning populyaciya holati;  
foydalanish;  
iqtisodiy baholash.

### **Hayvonot dunyosi ob'ektlarining davlat kadastrini yuritish tartibi**

Hayvonot dunyosi ob'ektlarining davlat kadastrini yuritish kadastr ma'lumotlarini to'plashning oldingi (dastlabki yillarda to'plash), asosiy (birlamchi) va joriy (har yilgi) turlarini o'z ichiga oladi va bu turlar ushbu ma'lumotlarning uzluksiz yangilanishini ta'minlaydi.

Birlamchi ma'lumot asosida hayvonot dunyosi ob'ektlari to'g'risidagi birlamchi kadastr ma'lumotlari hududiy darajada umumlashtiriladi va kiritiladi.

Kadastr ma'lumotlarini joriy (har yili) to'plashda birlamchi ma'lumotlar kiritilgandan so'ng ro'y byergan keyingi barcha o'zgarishlar qayd etiladi va kadastrga kiritiladi.

Davlat ekologiya qo'mitasini tegishli vakolatli bo'linmasining Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri bo'yicha hayvonot dunyosi ob'ektlarini davlat tomonidan hisobga olish hamda ulardan foydalanish hajmlarini hisobga olish to'g'risida umumlashtirilgan ma'lumotlari hayvonot dunyosi ob'ektlarining davlat kadastriga tegishli hududlar bo'yicha kiritiladi va Davlat ekologiya qo'mitasiga O'zbekiston Respublikasi bo'yicha hayvonot dunyosi ob'ektlarining davlat kadastriga kiritish uchun taqdim etiladi.

Hayvonot dunyosi ob'ektlarining davlat kadastro bo'yicha ma'lumotlar:

hududiy darajada — Davlat ekologiya qo'mitasining vakolatli bo'linmalari tomonidan;

respublika darajasida — Davlat ekologiya qo'mitasining kadastr xizmati tomonidan shakllantiriladi.

Hududiy va respublika darajasidagi kadastr ma'lumotlarini taqdim etish shakllarini Davlat ekologiya qo'mitasi belgilaydi.

Hayvonot dunyosi ob'ektlari to'g'risidagi davlat kadastro ma'lumotlari sxema bo'yicha taqdim etiladi.

Davlat ekologiya qo'mitasining vakolatli bo'linmalari tushadigan ma'lumotlarni hududiy darajada tahlil qiladi, taqdim etilgan ma'lumotlarning ishonchlilagini baholaydi va Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi yovvoyi hayvonlar bo'yicha geoma'lumotlar bazasini shakllantiradi, hisobotlar tuzadi va ularni har yili 1 martgacha Davlat ekologiya qo'mitasiga belgilangan shaklda taqdim etadi.

Davlat ekologiya qo'mitasining kadastr xizmati respublika darajasida:

Davlat ekologiya qo'mitasi vakolatli bo'linmalarining hisobotlari asosida hayvonot dunyosi ob'ektlarining soni va sifati haqidagi ma'lumotlarni umumlashtiradi;

hayvonot dunyosi ob'ektlarining davlat kadastro bo'yicha geoma'lumotlar bazasini yuritadi;

iqtisodiy baholaydi;

hayvonlar yashaydigan muhit holatini tahlil qiladi;

zarur kadastr ma'lumotlarini Davlat kadastrlari yagona tizimiga taqdim etadi.

Davlat ekologiya qo'mitasi hisobot yilidan keyingi yilning 1 mayigacha hayvonot dunyosi ob'ektlarining davlat kadastro bo'yicha zarur ma'lumotlarni Davlat kadastrlari yagona tizimiga taqdim etadi. Kadastr ma'lumotlarini Davlat kadastrlari yagona tizimiga taqdim etish shakli Davlat ekologiya qo'mitasi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastro davlat qo'mitasi bilan kelishilgan holda tasdiqlanadi.

Hayvonot dunyosi ob'ektlarining taqdim etiladigan kadastr ma'lumot-larining ishonchligi uchun hayvonot dunyosi ob'ektlarining davlat hisobini va ulardan foydalanish hajmlarining hisobini yuritadigan vakolatli organlar hamda yuridik shaxslar, Davlat ekologiya qo'mitasining hayvonot dunyosi ob'ektlarining davlat kadastrini yuritadigan vakolatli bo'linmalari qonun hujjatlariga muvofiq javob byeradi.

YUridik va jismoniy shaxslar hayvonot dunyosi ob'ektlari davlat kadastrining davlat axborot resurslarini shakllantirishda va ulardan foydalanishda:

ma'lumotlarni hujjatlashtirish, davlat axborot resurslarini shakllantirish, ulardan foydalanish hamda foydalanishni tashkil qilish tartibi va talablariga rioya etishi;

davlat axborot resurslarining axborot xavfsizligini ta'minlashi;

davlat axborot resurslarini shakllantirishda va ularning faoliyat yuritishini ta'minlashda liqenziyalangan dasturiy hamda syertifikatlangan texnika vositalaridan foydalanishi shart.

## **5.4. Hayvonot dunyosi ob'ektlarining davlat hisobini, ulardan foydalanish hajmlari hisobini va davlat kadastrini yuritish tartibi**

to'g'risidagi nizomga asosan maxsus yo'riqnomaga ishlab chiqildi.

Yo'riqnomada bir qator vazifalar belgilab byerildiki bular o'z navbatida hayvonot dunyosi davlat kadastrini yuritish va uning ma'lumotlar bazasini yaratishda dastur amal bo'lib xizmat qiladi.

Yo'riqnomaga hayvonot dunyosi ob'ektlarini hisobga olish va boshqa ma'lumotlarni ro'yxatdan o'tkazish kitobini (keyingi o'rinnarda ro'yxatdan o'tkazish kitobi deb ataladi) yuritish tartibini belgilaydi.

Hayvonot dunyosi ob'ektlarining davlat hisobini yuritadigan davlat organlari, yuridik shaxslar ro'yxatdan o'tkazish kitoblarini ushbu Yo'riqnomaga muvofiq tuzadi va yuritadi.

Ro'yxatdan o'tkazish kitobi O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasining vakolatli bo'linmasi tomonidan yuritiladi.

Ro'yxatdan o'tkazish kitobini yurituvchi ro'yxatdan o'tkazish kitobini hisobga olish reestrini to'ldiradi.

Ro'yxatdan o'tkazish kitobi hayvonot dunyosi ob'ektlarining davlat kadastro sub'ektlari bo'lgan davlat organida, yuridik shaxsda saqlanadi.

Ro'yxatdan o'tkazish kitobi asosiy hujjat bo'lib, unda kadastr ob'ektlari ro'yxatga va hisobga olinadi, hayvonlar turlarining geografik tarqalishi, soni, yashash muhiti xususiyati, ulardan foydalanish tavsifi, ularni iqtisodiy baholash haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

Ro'yxatdan o'tkazish kitobi davlat organi, yuridik shaxsning rahbari belgilangan tartibda tayinlaydigan vakolatli shaxs tomonidan yuritiladi.

## **5.7. Ro'yxatdan o'tkazish kitobini yuritish**

Ro'yxatdan o'tkazish kitobi quyidagi bo'limlardan iborat:

hayvonot dunyosi ob'ektlari davlat kadastrining sub'ekti to'g'risidagi umumiy ma'lumot;

hayvonot dunyosi kadastru ob'ektlarining ro'yxati;  
yovvoyi hayvonlarni birlamchi hisobga olish ma'lumotlari;  
hayvonot dunyosi ob'ektlarini har yili davlat tomonidan hisobga olish  
ma'lumotlari.

Hayvonot dunyosi ob'ektlari davlat kadastrining ob'ekti to'g'risidagi umumiyligi  
axborot bo'limiga quyidagi ma'lumotlar kiritiladi:

yuridik shaxsning nomi;  
joylashgan joyi;  
tashkil etilgan yoki asos solingan sanasi;  
idoraviy mansubligi;  
hududning umumiyligi maydoni, yerlarning toifalar bo'yicha maydoni  
(hektarlarda);  
xarita (sxema) alohida varaqda ilova qilingan geografik bog'liqligi;  
davlat hisobini va ro'yxatdan o'tkazish kitobini yuritish uchun mas'ul  
vakolatli shaxs to'g'risidagi ma'lumotlar (F.I.O., lavozimi, tayinlangani haqidagi  
buyruq raqami va sanasi).

Hayvonot dunyosi davlat kadastrining ob'ektlari ro'yxati bo'limiga tabiiy  
erkin sharoitda yashaydigan va yashash hududi doirasida davlat tomonidan hisobga  
olinadigan hayvonlar toifalari haqida hayvonlar turlarining nomi ko'rsatilgan  
ma'lumotlar (ilmiy, shuningdek, rus va davlat tilidagi) kiritiladi:

sut emizuvchilar;  
qushlar;  
sudralib va o'rmalab yuruvchi;  
suvda ham, quruqlikda ham yashovchi;  
baliqlar;  
umurtqasiz.

Yovvoyi hayvonlarni birlamchi hisobga olish ma'lumotlari bo'limiga  
hududni kadastr bo'yicha tekshirish haqidagi hisobotdan quyidagi ma'lumotlar  
kiritiladi:

a) yovvoyi hayvonlarning kamyob va yo'qolib ketish xavfi bo'lgan turlari haqida:

hayvon turining nomi (ilmiy, shuningdek, rus va davlat tilida);  
tabiatni muhofaza qilish maqomi;  
hayvonning 10x15 sm o'lchamdagি rangli tasviri;  
hayvon turining qisqacha tavsifi;  
hayvon hisobga olingan joylar maydoni, geografik koordinatalari ko'rsatilgan  
va xaritada (sxemada) tasvirlangan holda tekshirilgan hudud doirasida  
taqsimlanishi (hududiy tarqalishi);  
yashash muhitining tavsifi;  
yashash muhitining holati;  
birlamchi hisobga olish ma'lumotlari bo'yicha tur soni;  
turning populyaçiya holati (sonining o'zgarishi);  
iqtisodiy baholash;  
muhofaza etish choralar;

axborot toplash uslubi;

b) muhofaza etiladigan tabiiy hududlarda yashaydigan hayvonlar turlari haqida;

hayvon turining nomi (ilmiy, shuningdek, rus va davlat tilida);  
tabiatni muhofaza qilish maqomi;  
hayvonning 10x15 sm o'lchamdagи rangli tasviri;  
hayvon turining qisqacha tavsifi;  
hayvon hisobga olingan joylar maydoni, geografik koordinatasi ko'rsatilgan  
va xaritada (sxemada) tasvirlangan holda tekshirilgan hudud doirasida  
taqsimlanishi (hududiy tarqalishi);  
yashash muhitining tavsifi;  
yashash muhitining holati;  
birlamchi hisobga olish ma'lumotlari bo'yicha tur soni;  
turning populyaçiya holati (sonining o'zgarishi);  
muhofaza etish choralar;

iqtisodiy baholash;

axborot to'plash uslubi;

v) ovlanadigan hayvonlar turlari haqida;

hayvon turining nomi (ilmiy, shuningdek, rus va davlat tilida);

foydanish xususiyati;

hayvonning 10x15 sm o'lchamdagি rangli tasviri;

hayvon turining qisqacha tavsifi;

yashash joylarining tavsifi;

hayvon hisobga olingan joylar maydoni, geografik koordinatasi ko'rsatilgan va xaritada (sxemada) tasvirlangan holda tekshirilgan hudud doirasida taqsimlanishi (hududiy tarqalishi);

turning populyariya holati (sonining o'zgarishi);

birlamchi hisobga olish ma'lumotlari bo'yicha tur soni;

iqtisodiy baholash;

axborot to'plash uslubi;

g) ovlanadigan baliqlar haqida;

hayvon turining nomi (ilmiy, shuningdek, rus va davlat tilida);

foydanish xususiyati;

hayvonning 10x15 sm o'lchamdagи rangli tasviri;

hayvon turining qisqacha tavsifi;

yashash joylarining tavsifi

suv havzasining nomi va maydoni, hayvon nazorat ostida ov qilinadigan va hisobga olingan joylarning geografik koordinatalari ko'rsatilgan va xaritada (sxemada) tasvirlangan holda tekshirilgan hudud doirasida taqsimlanishi (hududiy tarqalishi);

turning populyariya holati (sonining o'zgarishi);

birlamchi hisobga olish ma'lumotlari bo'yicha tur soni;

iqtisodiy baholash;

axborot to'plash uslubi;

d) qishloq xo'jaligi zararkunandalari bo'lgan hayvonlar haqida;

hayvon turining nomi (ilmiy, shuningdek, rus va davlat tilida);  
turning maqomi;  
hayvonning 10x15 sm o'lchamdagি rangli tasviri;  
hayvon turining qisqacha tavsifi;  
yashash joylarining tavsifi;  
hayvon hisobga olingan joylarning geografik koordinatalari ko'rsatilgan va  
xaritada (sxemada) tasvirlangan holda tekshirilgan hudud doirasida tarqalish  
joylari, zararkunanda bilan zararlangan maydon;  
turning birlamchi hisobga olish ma'lumotlari bo'yicha o'rtacha soni;  
turning populyaçıya holati (sonining o'zgarishi);  
o'rtacha zararli va zararni iqtisodiy baholash;  
zararkunandalar bilan kurashishning tavsiya etiladigan choralari;  
axborot toplash uslubi;

e) o'rmon xo'jaligi zararkunandalari bo'lgan hayvonlar haqida;  
hayvon turining nomi (ilmiy, shuningdek, rus va davlat tilida);  
turning maqomi;  
hayvonning 10x15 sm o'lchamdagи rangli tasviri;  
hayvon turining qisqacha tavsifi;  
yashash joylarining tavsifi;  
hayvon hisobga olingan joylarning geografik koordinatalari ko'rsatilgan va  
xaritada (sxemada) tasvirlangan holda tekshirilgan hudud doirasida tarqalish  
joylari, zararkunanda bilan zararlangan maydon;  
turning birlamchi hisobga olish ma'lumotlari bo'yicha o'rtacha soni;  
turning populyaçıya holati (sonining o'zgarishi);  
o'rtacha zarar keltirish va zararni iqtisodiy baholash;  
zararkunandalar bilan kurashishning tavsiya etiladigan choralari;  
axborot toplash uslubi;

j) odam va hayvonlarning o'ta xavfli yuqumli kasalliklarini tarqatuv-chi  
hayvonlar haqida;

hayvon turining nomi (ilmiy, shuningdek, rus va davlat tilida);

turning maqomi;  
hayvonning 10x15 sm o'lchamdagи rangli tasviri;  
hayvon turining qisqacha tavsifi;  
yashash joylarining tavsifi;  
hisobga olish joylarining uchastkalari nomi va geografik koordinatalari  
ko'rsatilgan holda taqsimlanishi (hududiy tarqalishi);  
turning soni (gektardagi koloniylar);  
turning populyaçiya holati (sonining o'zgarishi);  
foydanish;  
iqtisodiy baholash;  
axborot toplash uslubi.

Hayvonot dunyosi ob'ektlarini har yili davlat tomonidan hisobga olish  
ma'lumotlari bo'limiga Hayvonot dunyosi ob'ektlarining davlat hisobini, ulardan  
foydanish hajmlari hisobini va davlat kadastrini yuritish tartibi to'g'risidagi  
nizomda ko'rsatilgan quyidagi ma'lumotlar kiritiladi:

- a) kamyob va yo'qolib ketish xavfi bo'lgan yovvoyi hayvonlar turlari  
bo'yicha ma'lumotlar;
- b) muhofaza etiladigan tabiiy hududlarda yashaydigan hayvonlar turlari  
bo'yicha ma'lumotlar;
- v) ovlanadigan hayvonlar turlari bo'yicha ma'lumotlar;
- g) ovlanadigan baliqlar turlari bo'yicha ma'lumotlar;
- d) qishloq xo'jaligi zararkunandalari bo'lgan hayvonlar bo'yicha — ushbu  
Nizomning 39-bandida nazarda tutilgan ma'lumotlar;
- s) o'rmon xo'jaligi zararkunandalari bo'lgan hayvonlar bo'yicha ma'lumotlar;
- j) odam va hayvonlarning o'ta xavfli yuqumli kasallikkлari bo'yicha  
ma'lumotlar

Hayvon turlari bo'limida uning ilmiy, shuningdek, davlat va rus tilidagi nomi  
ko'rsatiladi.

Hisobot yili nihoyasiga etgach, ro'yxatdan o'tkazish kitobining 4-bo'limini  
yuritish keyingi sahifada davom ettiriladi.

## **5. 7. Ro'yxatdan o'tkazish kitobini saqlash**

Hayvonot dunyosi ob'ektlarini ro'yxatdan o'tkazish kitobi elektron va qog'oz shakllarda saqlanadi.

Ro'yxatdan o'tkazish kitobining saqlanishi uchun mas'uliyat ushbu kitobni yuritadigan tashkilotning vakolatli shaxsi zimmasiga yuklanadi.

Ro'yxatdan o'tkazish kitobiga kiritilgan ma'lumotlarning ishonchliligi, shuningdek, uni yuritish va yangilash, hududiy darajadagi kadastr ma'lumotlarini taqdim etish bo'yicha belgilangan muddatlarga rioya etilishi uchun mas'uliyat hayvonot dunyosi ob'ektlarining davlat hisobini hamda ro'yxatdan o'tkazish kitobini yuritadigan davlat organlariga va yuridik shaxslar zimmasiga yuklanadi.

Ro'yxatdan o'tkazish kitobini yuritishga vakolatli shaxs ro'yxatdan o'tkazish kitobiga kiritilgan ma'lumotlarning ishonchliligi, shuningdek, uni yuritish bo'yicha belgilangan muddatlarga rioya etilishi uchun shaxsan mas'uldir.

Hayvonot dunyosi ob'ektlarining davlat hisobini, ulardan foydala-nish hajmlari hisobini va davlat kadastrini yuritish tartibi.

### **5.5. Hayvonot dunyosi ob'ektlari kadastr ma'lumotlarini taqdim etish.**

Hayvonot dunyosi ob'ektlarini davlat tomonidan hisobga olish sub'ektlarining O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muho-faza qilish davlat qo'mitasining vakolatli bo'linmalariga kadastr ma'lumotlarini taqdim etish.

Birinchi darajadagi sub'ektlarning hududiy darajadagi sub'ektlarga hayvonot dunyosi ob'ektlarining davlat kadastri bo'yicha kadastr ma'lumot-lari alifbo-raqamli va grafik shaklda taqdim etiladi.

Kadastr ma'lumotlarining alifbo-raqamli shakli jadvalli shakllar-dan iborat bo'lib, ularga hisobot davrida xo'jalik hududida tabiiy erkin sharoitda yashaydigan yovvoyi hayvonlarni davlat tomonidan hisobga olish bo'yicha yakuniy ma'lumotlar kiritiladi.

Kadastr ma'lumotlarining grafik shakli alifbo-raqamli shaklning majburiy ilovasi bo'lib, davlat tomonidan hisobga olinadigan ob'ektlar — yovvoyi

hayvonlarning tarqalish joylari batafsil qayd etiladigan xo'ja-lik xaritasini (sxemasidan) ifoda etadi.

### **Hayvonot dunyosi ob'ektlari to'g'risida grafik shaklidagi kadastr ma'lumotlarini shakllantirish.**

Hayvonot dunyosi ob'ektlari to'g'risida grafik shaklidagi kadastr ma'lumotlarini (keyingi o'rnlarda hayvonlarning turlar bo'yicha tarqa-lish rejasid deb ataladi) shakllantirish uchun hududlarni rejalarshirish-ning sxematik xaritalari, qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarning ichki xo'jalik tuzilishi, davlat o'rmon fondida esa o'rmon tuzilishining topografik matyeriallaridan asos sifatida foydalilanildi.

Hayvonlarning idoraviy mansub hududda turlar bo'yicha tarqalishining kadastr rejasid o'rnatilgan shartli belgilarning katta-kichikligiga rioya etgan va ularni qo'llagan holda, quyidagilarni xaritaga asosiy maydonlar (ahamiyatli bo'lgan) bo'yicha konturlar (poligonlar) ko'rinishida batafsil kiritish hamda ularni ma'lum bir rang bilan shtrixlash orqali tuziladi:

qushlar uchun — uyalash joylari, uchib o'tish hududlari, qishlaydigan joylar;  
sut emizuvchi, suvda ham, quruqlikda ham yashovchi, sudralib va o'rmalab yuruvchi hayvonlar uchun — tarqalish joylari;

umurtqasiz hayvonlar uchun — tarqalish joylari, yuqori darajada zikh bo'lgan makonlar;

ovlanadigan baliqlar turlari uchun — tarqalish joylari.

Hayvonlarning turlar bo'yicha tarqalish rejasining quyi qismida hayvonlar turlarini aks ettirish uchun foydalilanildigan shartli belgilar grafik shaklida tegishli tushuntirishlar bilan birga (hayvon turining nomi, ushbu turdag'i hayvon yashaydigan joylar maydoni gektarlarda va identifikasiya raqami ko'rsatilgan holda) qayd etiladi.

Hayvonlarning turlar bo'yicha tarqalish rejasini va to'ldirilgan alifbo-raqamli ma'lumotlar shakllarini (jadvalarni) o'qish qulay bo'lishi uchun identifikasiya raqami qo'llaniladi. Hayvonlarning turlar bo'yicha tarqalish rejasiga kiritiladigan

konturlar (poligonlar) 1-raqam-dan boshlab raqamlanadi va rejada hamda jadvallarda ularning indenti-fikaçiya raqami hisoblanadi.

Hayvonlarning bir turini aks ettirishda rejaning bir qancha kontur-lariga (poligonlariga) hayvon turining shakli bo'yicha nomiga mos keladi-gan bir xil identikaçiya raqami qo'yiladi.

### **Hayvonot dunyosi ob'ektlarining davlat kadastrini bo'yicha hisobot shakllari**

Hayvonot dunyosi ob'ektlarining davlat hisobini, ulardan foydalanish hajmlari hisobini va davlat kadastrini yuritish to'g'risidagi nizom bilan belgilangan va tegishli jadvallarda aks ettirilgan quyidagi shakllar hayvonot dunyosi bo'yicha kadastr ma'lumotlarini taqdim etishning alifbo-raqamli shakllari hisoblanadi:

«Kamyob va yo'qolib ketish xavfi bo'lgan hayvonlar turlari» deb nomlangan shaklga idoraviy mansub hududda yashaydigan hayvonlarning davlat tomonidan hisobga olinadigan turlari to'g'risida hisobot davridagi ma'lumotlar kiritiladi.

«Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarda yashaydigan hayvonlar turlari» deb nomlangan shaklga davlat buyurtma qo'riqxonalari, milliy tabiat bog'lari, tabiiy pitomniklar, davlat biosfyera rezyervatlari hududida yashaydigan hayvonlar turlarini davlat tomonidan hisobga olish bo'yicha hisobot davridagi ma'lumotlar kiritiladi.

«Ovlanadigan hayvonlar turlari» deb nomlangan shaklga idoraviy mansub hududda ov qilinadigan ob'ektlar sirasiga kiritilgan hayvonlarni davlat tomonidan hisobga olish bo'yicha hisobot davridagi ma'lumotlar kiritiladi.

«Ovlanadigan baliqlar turlari» deb nomlangan shaklga ovlanadigan baliqlar turlarini davlat tomonidan hisobga olish bo'yicha hisobot davridagi ma'lumotlar kiritiladi.

«Qishloq xo'jaligi zararkunandalari bo'lgan hayvonlar» va «O'rmon xo'jaligi zararkunandalari bo'lgan hayvonlar» deb nomlangan shaklga qishloq yoki o'rmon xo'jaligi zararkunandalari bo'lgan hayvonlarni davlat tomonidan hisobga olish bo'yicha hisobot davridagi ma'lumotlar kiritiladi.

«O'ta xavfli yuqumli kasalliklarni tarqatuvchi hayvonlar» deb nomlangan shaklga o'ta xavfli yuqumli kasalliklarni tarqatuvchi hayvonlar-ni davlat tomonidan hisobga olish bo'yicha hisobot davridagi ma'lumotlar kiritiladi. Ushbu shakl O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining vakolatli tashkiloti tomonidan yuritiladi.

## **5.6. Kadastr ma'lumotlarini hisobot shakllariga kiritish**

Hisobot davrida hayvonot dunyosi ob'ektlarini ro'yxatdan o'tkazish kitobida aks ettirilgan davlat hisobi ma'lumotlari hisobot shakllariga kiritish uchun kadastr ma'lumotlarining asosiy manbai hisoblanadi.

Tashkilot, xo'jalik, muhofaza etiladigan tabiiy hududning vakolatli shaxsi davlat tomonidan hisobga olish to'g'risidagi ma'lumotlarni hayvonot dunyosi ob'ektlari davlat kadastrining hisobot shakllariga ro'yxatdan o'tkazish kitobiga kiritilgan yovvoyi hayvonlarni davlat tomonidan hisobga olish bo'yicha hisobot davridagi (yilidagi) ma'lumotlar asosida kiritadi.

Vakolatli shaxs tomonidan hayvonlar turlarining guruhlari bo'yicha hisobot shakllarining tegishli ustunlari to'ldiriladi, hayvonlarning turlar bo'yicha tarqalish rejasida qayd etilgan konturlar (poligonlar) raqami «Identifikasiya raqami» ustuniga, hayvon turining nomi esa «Hayvon turining nomi» ustuniga kiritiladi.

«Kamyob va yo'qolib ketish xavfi bo'lgan hayvonlar turlari» deb nomlangan shaklni to'ldirishda tegishli ustunlarda:

«Identifikasiya raqami» ustunida — har bir turdag'i hayvonning o'ziga xos raqami;

«Hayvon turining nomi» ustunida — hayvonning nomi (ilmiy, shuningdek, rus va davlat tilida);

«Tabiatni muhofaza qilish maqomi» ustunida — O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobida ushbu turdag'i hayvon uchun belgilangan qirilib ketish xavfi bo'lgan maqom;

«Taqsimlanish (hududiy taqsimlanish)» ustunida — yo'nalishlar nomlari ko'rsatilgan holda, hayvonning ushbu turi yashaydigan hudud;

«Sonning hisob-kitob qilingan (ekspert) bahosi» ustunida — hisobot davrida hisobga olingan ushbu turdag'i hayvonlar soni;

«Turning populyaciya holati» ustunida — sonning o'zgarishi (qisqarib boruvchi, barqaror, ko'payib boruvchi, holat aniq emas);

«Limitlovchi omillar» ustunida — hayvonning rivojlanish yoki mavjud bo'lishini cheklovchi omillar;

«Foydalanish» ustunida — olib qo'yilgan hayvonlar soni, olib qo'yish uchun raqam va sana;

«YAshash muhitining holati» ustunida — olib qo'yilgan hayvonlar soni, olib qo'yish uchun raqam va sana;

«Muhofaza etish choralari» ustunida — idoraviy mansub hududda ushbu turni saqlab qolish uchun ko'rيلotgan choralar;

«Iqtisodiy baholash» ustunida — hisobga olingan hayvonlarning pul bilan ifodalangan qiymati ko'rsatiladi. Mazkur ustun tabiiy pitomniklar, davlat buyurtma qo'riqxonalari, milliy tabiat bog'lari, biosfyera rezyervatlarida to'ldiriladi.

«Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarda yashaydigan hayvonlar turlari» deb nomlangan shaklni to'ldirishda tegishli ustunlarda:

«Identikaцiya raqami» ustunida — har bir turdag'i hayvonning o'ziga xos raqami;

«Hayvon turining nomi» ustunida — hayvonning nomi (ilmiy, shuningdek, rus va davlat tilida);

«Turning tabiatni muhofaza qilish maqomi» ustunida — kamyob va yo'qolib borayotgan hayvonlar uchun — O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobida ushbu turdag'i hayvon uchun belgilangan qirilib ketish xavfi bo'lgan maqom, boshqa turdag'i hayvonlar uchun — hayvonning ushbu turiga mos keladigan maqom;

«Hisobga olish amalga oshirilgan muhofaza etiladigan hudud nomi» ustunida — joyning geografik nomlanishi;

«Hisobga olish amalga oshirilgan maydon» ustunida — hayvonning ushbu turi hisobga olingan aniq maydon, gektarlarda;

«Hisobga olingan hayvonlar soni» ustunida — hisobot davrida ushbu turdag'i hisobga olingan hayvonlar soni;

«Turning populyaçiya holati» ustunida — ko'payish bo'yicha qisqacha tavsif, kuzatuv natijalari bo'yicha populyaçiya tuzilmasi to'g'risida ma'lumot;

«Foydalanish» ustunida — olib qo'yilgan hayvonlar soni, hayvонни оlib qo'yish uchun asos bo'lган hujjat raqami. Mazkur ustun tabiiy pitomniklar, davlat buyurtma qo'riqxonalari, milliy tabiat bog'lari, biosfyera rezyervatlarida to'ldiriladi;

«Iqtisodiy baholash» ustunida — hayvonlarning pul bilan ifodalangan hisobga olish qiymati ko'rsatiladi. Bu ustun ham tabiiy pitomniklar, davlat buyurtma qo'riqxonalari, milliy tabiat bog'lari, biosfyera rezyervatlarida to'ldiriladi.

«Ovlanadigan hayvonlar turlari» deb nomlangan shaklni to'ldirishda tegishli ustunlarda:

«Identikaçiya raqami» ustunida — har bir turdag'i hayvonning o'ziga xos raqami;

«Hayvon turining nomi» ustunida — hayvonning nomi (ilmiy, shuningdek, rus va davlat tilida);

«Turning maqomi» ustunida — hayvonning ushbu turiga mos maqom (masalan, ovlanadigan ob'ektlar sirasiga kiramagan uyalovchi, uchib o'tuvchi va qishlovchi);

«Ovchilik-baliq ovlash xo'jaliklarining nomi» ustunida — hududida hisobga olish amalga oshirilgan xo'jalikning to'liq nomi;

«Hisobga olish amalga oshirilgan maydon» ustunida — maydon gektarlarda;

«Hisobga olingan hayvonlar soni» ustunida — o'lchov birliklarida hisobga olingan hayvonlar soni — turi;

«Tur yashaydigan maydondagi (hududdagi) hayvonlar soni» ustunida — o'lchov birliklarida muayyan uchastkadagi hayvonlar soni — turi;

«Turning populyaçiya holati» ustunida — soning o'zgarishi (qisqarib boruvchi, barqaror, ko'payib boruvchi, holat aniq emas);

«YAshash muhitining holati» ustunida — hayvonlar hayoti va faoliyatiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar;

«Foydalanish» ustunida — hisobot davrida ovlanadigan hayvon turini olib qo'yish bo'yicha ma'lumotlar;

«Muhofaza etish choralari» ustunida — hayvonni muhofaza etish uchun ko'rileyotgan choralar;

«Iqtisodiy baholash» ustunida — ekinzorlarda yashaydigan hayvon turining baholash qiymati ko'rsatiladi.

«Ovlanadigan baliqlar turlari» deb nomlangan shaklni to'ldirishda tegishli ustunlarda:

«Identikaçiya raqami» ustunida — har bir turdag'i hayvonning o'ziga xos raqami;

«Hayvon turining nomi» ustunida — hayvonning nomi (ilmiy, shuningdek, rus va davlat tilida);

«Turning maqomi» ustunida — hayvonning ushbu turi uchun maqom;

«Suv havzasining nomi» ustunida — hisobga olish amalga oshirilgan suv havzasining nomi;

«Suv havzasining maydoni» ustunida — suv havzasining maydoni gektarlarda;

«Sonni ekspert baholash» ustunida — suv havzasidagi ushbu turning soni tonnalarda;

«Turning populyaçiya holati» ustunida — ko'payishning qisqacha tavsifi, kuzatuv natijalari asosida populyaçiya tuzilmasi to'g'risida ma'lumotlar;

«YAshash muhitining holati» ustunida — hayvonlar hayoti va faoliyatiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar;

«Foydalanish» ustunida –hisobot davrida ushbu turdag'i tutilgan baliqlar soni tonnalarda;

«Iqtisodiy baholash» ustunida — mazkur turdag'i tutilgan baliqlar hisobga olinmagan holda, ushbu turning suv havzasidagi zaxirasi qiymati ko'rsatiladi.

«Qishloq xo'jaligi zararkunandalari bo'lган hayvonlar» va «O'rmon xo'jaligi zararkunandalari bo'lган hayvonlar» deb nomlangan shaklni to'ldirishda tegishli ustunlarda: nomlangan

«Identikaçıya raqami» ustunida — har bir turdag'i hayvonning o'ziga xos raqami;

«Hayvon turining nomi» ustunida — hayvonning nomi (ilmiy, shuningdek, rus va davlat tilida);

«Turning maqomi» ustunida — hayvonning ushbu turiga mos maqom (masalan, xavfli, o'ta xavfli, har narsani eydigan);

«Xo'jalikning (hududning) nomi» ustunida — xo'jalikning to'liq nomi;

«Tarqalish joylari, zararlangan maydon» ustunida — ushbu turdag'i zararkunanda hayvon egallangan maydon gektarlarda;

«Turning soni» ustunida — ushbu tur sonini aniqlash uchun qo'llaniladigan maydon birligidagi turlar soni;

«Turning populyaçıya holati» ustunida — qisqacha tavsif (soning haddan ziyod ko'payishi, ommaviy ko'payishi, turli joylarga joylashishi va boshqalar);

«O'rtacha zararli va zararni iqtisodiy baholash» ustunida — tegishli ishlov byerilmagan holatda hosildorlikning foizlarda ifodalangan kamayishi ko'rsatiladi.

«O'ta xavfli yuqumli kasalliklarni tarqatuvchi hayvonlar» deb nomlangan shaklni to'ldirishda tegishli ustunlarda:

«Identikaçıya raqami» ustunida — har bir turdag'i hayvonning o'ziga xos raqami;

«Hayvon turining nomi» ustunida — hayvonning nomi (ilmiy, shuningdek, rus va davlat tilida);

«Turning maqomi» ustunida — hayvonning ushbu turiga mos maqom (masalan, oddiy, o'troq, ko'chib yuruvchi);

«Hisobga olish joylarining uchastkalari va geografik koordinatalari ko'rsatilgan holda, taqsimlanish (hududiy tarqalish)» ustunida — uchastkaning nomi;

«Turning soni» ustunida — ushbu tur sonini aniqlash uchun qo'llaniladigan maydon birligidagi turlar soni;

«Turning populyaciya holati» ustunida — ko'payishning qisqacha tavsifi, populyaciya tuzilmasi to'g'risida ma'lumotlar;

«Foydalanish» ustunida — hisobot davrida ushbu turdag'i olib qo'yilgan hayvonlar soni bo'yicha ma'lumotlar;

«Iqtisodiy baholash» ustunida — ushbu turning qiymati haqidagi ma'lumotlar ko'rsatiladi.

Hisobot shaklida nazarda tutilmagan, ammo qo'shimcha muhim ma'lumotlar hisobotga ilova sifatida kiritiladi.

## **5.7. Kadastr ma'lumotlarini hududiy darajaga taqdim etish**

Hayvonot dunyosi ob'ektlari bo'yicha kadastr ma'lumotlarining to'ldirilgan shakllari tashkilot, xo'jalikning vakolatli shaxsi va rahbari tomonidan imzolanib, muhr bilan tasdiqlanadi.

Tashkilot, xo'jalikning vakolatli shaxsi tomonidan hayvonot dunyosi ob'ektlari bo'yicha birinchi darajadagi kadastr ma'lumotlari hududiy darajada O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasining (keyingi o'rnlarda Davlat ekologiya qo'mitasi deb ataladi) vakolatli bo'linmalariga hisobot davridan keyingi yilning 15 fevraligacha ro'yxat asosida taqdim etiladi.

Tashkilot, xo'jalikning vakolatli shaxsi tomonidan Davlat ekologiya qo'mitasining vakolatli bo'linmalariga taqdim etiladigan kadastr ma'lumotlari hayvonlarning turlar bo'yicha tarqalish rejasi, to'ldirilgan shakllar va ilova xatidan iborat bo'ladi.

Kadastr ma'lumotlari hududiy darajaga taqdim etilgandan so'ng ro'yxatdan o'tkazish kitobining «Hayvonot dunyosini har yili davlat tomonidan hisobga olish

ma'lumotlari» deb nomlangan 4-bo'limida «Hisobot yili uchun kadastr ma'lumotlari Davlat ekologiya qo'mitasining vakolatli bo'linmasiga byerildi» yozuvi qayd etiladi va kadastr ma'lumotlarini yuborish to'g'risidagi ilova xatining raqami hamda sanasi ko'rsatiladi. Ilova xati vakolatli shaxs imzosi bilan tasdiqlanib, uning nusxasi qabul qilingani haqida belgi qo'yilgan holda ro'yxatdan o'tkazish kitobiga yopishtiriladi.

Hayvonot dunyosi ob'ektlarining davlat hisobini yuritadigan va kadastr ma'lumotlarini Davlat ekologiya qo'mitasining vakolatli bo'linmalariga taqdim etadigan tashkilotlarning vakolatli shaxslari, rahbarlari kadastr ma'lumotlarining ishonchliligi, to'liqli va qonun hujjatlariga muvofiq o'z vaqtida taqdim etilishi uchun mas'uldir.

#### **5.8. O'simlik dunyosi ob'ektlarining davlat hisobini, ulardan foydalanish hajmlari hisobini va davlat kadastrini yuritish tartibi**

O'simlik dunyosi ob'ektlarining davlat hisobini, ulardan foydalanish hajmlari hisobini va davlat kadastrini yuritish tartibi to'g'risidagi Ni-zom o'simlik dunyosi ob'ektlarining davlat hisobini, ulardan foydalanish hajmlari hisobini va davlat kadastrini yuritish tartibini belgilaydi.

Nizomda o'simlik dunyosi ob'ektlarini davlat tomonidan hisobga olish, ulardan foydalanish hajmlarini hisobga olish va davlat kadastr ma'lumotlari o'simlik dunyosi ob'ektlarini hamda ular o'sadigan muhitni saqlash, ulardan foydalanish, qayta ko'paytirish va tiklash tadbirlarini rejalashtirish uchun asos hisoblanadi.

O'simlik dunyosi ob'ektlarining davlat kadastr quyidagi maqsadlarda yuritiladi:

- o'simlik dunyosi ob'ektlarining son va sifat holatini aniqlash;
- o'simlik dunyosi ob'ektlarini iqtisodiy baholash;
- o'simlik dunyosi ob'ektlaridan xo'jalikda foydalanish hajmlarini aniqlash;

davlat organlari, manfaatdor yuridik va jismoniy shaxslarga o'simlik dunyosi ob'ektlarining holati va ular o'sadigan muhit to'g'risida ishonchli ma'lumotlar taqdim etish;

o'simlik dunyosi ob'ektlarini saqlash, ulardan oqilona, barqaror foydalanish, himoya qilish, qayta ko'paytirish va tiklash hamda ularning biologik xilmaliligini saqlash;

o'simlik dunyosi ob'ektlarini saqlash, ulardan foydalanish, himoya qilish, qayta ko'paytirish va tiklash talablariga rioya etilishini ta'minlash.

O'simlik dunyosi ob'ektlarining davlat kadastro:

o'simlik dunyosi ob'ektlarining tarqalishi, populyaçıya holati, son va sifat tavsiflari to'g'risidagi ma'lumotlarni;

o'simlik dunyosi ob'ektlaridan xo'jalikda foydalanish xususiyati va hajmlari haqidagi ma'lumotlarni;

o'simlik dunyosi ob'ektlarining tarqalish xaritasini;

o'simlik dunyosi ob'ektlari o'sadigan umumiyligi muhit, o'simlik dunyosi ob'ektlarini iqtisodiy baholash tavsifini;

kadastro ma'lumotlarini tizimlashtirish, saqlash, yangilash va manfaatdor foydalanuvchilarga tegishli shakl hamda hajmlarda belgilangan tartibda tezkor byerish bo'yicha tartibga soluvchi talablarni;

o'simlik dunyosi ob'ektlari haqidagi boshqa ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

Quyidagilar o'simlik dunyosi ob'ektlarining davlat kadastrini yuritishning asosiy principlari hisoblanadi:

O'zbekiston Respublikasining barcha hududida o'sadigan va davlat tomonidan hisobga olinishi shart bo'lgan o'simlik dunyosining barcha ob'ektlarini qamrab olish;

makon koordinatalarining yagona tizimini qo'llash;

ma'lumotlarni to'plash, qayta ishslash texnologiyasi va taqdim etish usulining yagonaligi;

kadastro ma'lumotlarining ishonchliligi va undan foydalanish mumkinligi.

O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi (keyingi o'rirlarda Davlat ekologiya qo'mitasi deb ataladi) o'simlik dunyosi ob'ektlarining davlat kadastrini O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi (keyingi o'rirlarda Fanlar akademiyasi deb ataladi) bilan birgalikda yuritadi.

Fanlar akademiyasi o'simlik dunyosi ob'ektlarining davlat kadastrini yuritishini ilmiy jihatdan ta'minlaydi.

O'simlik dunyosi ob'ektlarining davlat kadastrini yuritishda:

ko'p yillik daraxtlarga bo'lgan huquqlarni (tabiiy sharoitlarda o'sadigan daraxt va buta o'simliklari bo'yicha) ro'yxatga olish;

hududni kadastr bo'yicha tekshirish;

o'simlik dunyosi ob'ektlarini, shu jumladan o'rmon fondini davlat tomonidan hisobga olish;

o'simlik dunyosi ob'ektlaridan foydalanish hajmlarini hisobga olish;

o'sish muhitining holati;

geobotanika, geodeziya, yer tuzish, o'rmon tashkil qilish, ilmiy-tadqiqot va boshqa ishlar bo'yicha ma'lumotlardan foydalaniladi.

O'simlik dunyosi ob'ektlarining davlat kadastrida foydalanish predmeti bo'lgan yoki hududning ekologik muhitiga ta'sir ko'rsatadigan yoxud kamyob va yo'qolib ketish xavfi bo'lgan tur maqomiga ega yovvoyi holda o'suvchi barcha turdag'i o'simliklar, shuningdek, tabiiy yaylovlari va pichanzorlarning o'simliklari hisobga olinadi.

Davlat tomonidan hisobga olinadigan, foydalanish hajmlari hisobga olinadigan va O'zbekiston Respublikasi o'simlik dunyosi ob'ektlarining davlat kadastriga kiritiladigan yovvoyi holda o'suvchi o'simliklar turlarining ro'yxatini Davlat ekologiya qo'mitasi Fanlar akademiyasi bilan kelishgan holda tasdiqlaydi.

Davlat qo'riqxonalari, kompleks (landshaft) buyurtma qo'riqxonalar, tabiat bog'lari, davlat biosfyera rezyervatlari, biologik buyurtma qo'riqxonalar va tabiat pitomniklarida o'simlik dunyosi ob'ektlari barcha turlarining davlat hisobi hamda davlat kadastrini yuritiladi.

Hisobga va ro'yxatga olish hamda baholash ma'lumotlari o'simlik dunyosi to'g'risidagi jami kadastr ma'lumotlarini tashkil qiladi va bu ma'lumotlar qog'oz hamda elektron (geoma'lumotlar bazasi) variantlarda alifbo-raqamli (matnlar, jadvallar) va grafik (xaritalar, sxemalar) shaklida taqdim etiladi.

Davlat organlari kadastr axborotini bepul asosda, manfaatdor yuridik va jismoniy shaxslar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan miqdordlardagi to'lov asosida oladi.

O'simlik dunyosi ob'ektlarining davlat hisobi, ulardan foydalanish hisobi va davlat kadastro har yilgi maqsadli moliyalashtirish asosida O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetining mablag'lari hamda qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan yuritiladi.

O'simlik dunyosi ob'ektlarining davlat hisobi, ulardan foydalanish hisobi va davlat kadastrini yuritishni moliyalashtirish hajmlari hamda muddatlari qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda belgilanadi.

Davlat ekologiya qo'mitasi:

o'simlik dunyosi ob'ektlarining davlat kadastro yuritilishini muvofiqlashtiradi; normativ-uslubiy hujjatlarni ishlab chiqadi;

yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan o'simlik dunyosi ob'ektlarining davlat kadastro ma'lumotlaridan foydalanish tartibi va shartlarini belgilaydi.

## **5.9. Hududlarni kadastr bo'yicha tekshirish, o'simlik dunyosi ob'ektlarini davlat tomonidan hisobga olish va ulardan foydalanish hajmlarini hisobga olish tartibi.**

O'simlik dunyosi ob'ektlari davlat kadastrining birlamchi kadastro ma'lumotlari hududni kadastr bo'yicha tekshirish orqali to'planadi.

Hududni kadastr bo'yicha tekshirishda o'simlik dunyosi ob'ektlari, shuningdek, ular o'sadigan muhit haqidagi ma'lumotlar aniqlanadi.

Hududni kadastr bo'yicha tekshirishda o'simlik dunyosi ob'ektlari ro'yxatga olinadi, ularning turlari tarkibi, son va sifat tavsiflari, o'sish muhiti, xo'jalikda

foydalanim haqida ma'lumotlar to'planadi, ular iqtisodiy baholanib, hududlarga tarqalishining xarita-sxemasi tuziladi.

Qayd etilgan ma'lumotlar o'simlik dunyosi ob'ektlarini hisobga olish va boshqa ma'lumotlarni kitobiga kiritiladi hamda o'simlik dunyosi ob'ektlarining davlat kadastrini shakllantirish va yangilash uchun Davlat ekologiya qo'mitasiga taqdim etiladi.

O'simlik dunyosi ob'ektlari o'sadigan muhit hududi kadastr bo'yicha besh yilda bir marta tekshiriladi.

Tabiiy ofatlar, texnogen avariylar, yong'inlar va boshqa hodisalar oqibatlari o'simliklarning ommaviy nobud bo'lishiga olib kelsa, ularning salbiy ta'siriga duchor bo'lган hududlar kadastr bo'yicha navbatdan tashqari tekshiriladi.

Hududlarni kadastr bo'yicha tekshirish, shu jumladan o'simlik dunyosi ob'ektlarini davlat tomonidan hisobga olish ishlari:

Fanlar akademiyasi tomonidan — respublikaning barcha hududlaridagi kamyob va yo'qolib borayotgan yovvoyi holda o'suvchi o'simliklar turlari, shuningdek, ularning dorivor, manzarali, ozuqabop va texnik turlari bo'yicha;

davlat qo'riqxonalari, kompleks (landshaft) buyurtma qo'riqxonalar, tabiat bog'lari, davlat biosfyera rezyervatlari, biologik buyurtma qo'riqxonalar va tabiiy pitomniklar tomonidan — qayd etilgan muhofaza etiladigan tabiiy hududlarda;

O'zbekiston Respublikasi O'rmon xo'jaligi davlat qo'mitasi (keyingi o'rnlarda O'rmon xo'jaligi davlat qo'mitasi deb ataladi) tomonidan — o'rmon fondi yerlarida;

O'zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastro davlat qo'mitasi (keyingi o'rnlarda «Davyergeodezkadastr» qo'mitasi deb ataladi) tomonidan — tabiiy yaylovlari va pichanzorlar o'simliklari bo'yicha;

qishloq xo'jaligi tashkilotlari, muassasalari va tashkilotlari tomonidan — qishloq xo'jaligi uchun mo'ljallangan yerlarda;

o'rmon xo'jaligi tashkilotlari tomonidan — o'rmon fondi yerlarida;

ilmiy, ta'lim tashkilotlari va biolog mutaxassislar tomonidan Davlat ekologiya qo'mitasi bilan shartnomaga asosida — boshqa hududlarda amalga oshiriladi.

O'simlik dunyosi ob'ektlarini davlat tomonidan hisobga olish o'simlik dunyosi ob'ektlarining holati va ularning o'sish muhitidagi o'zgarishlarni kuzatish maqsadida o'simlik dunyosi ob'ektlari turlarining xilma-xilligi, soni va tarqalishi haqida ma'lumotlar to'plash uchun muntazam o'tkaziladigan zarur tadbirlar kompleksidan iborat.

Manfaatdor vazirliklar, idoralar va boshqa tashkilotlar kelgusi yilda davlat tomonidan hisobga olishni amalga oshiradigan o'simlik dunyosidan foydalanuvchi yuridik shaxslar ro'yxatini, ularning nomi, idoraviy mansubligi, joylashgan joyi ko'rsatilgan holda har yili shakllantiradi va 1 noyabrdan kechiktirmasdan Davlat ekologiya qo'mitasiga taqdim etadi.

Davlat organlari, o'simlik dunyosi ob'ektlaridan foydalanuvchi yuridik shaxslar o'simlik dunyosi ob'ektlarini har yili davlat tomonidan hisobga olish uchun boshqa tashkilotlar yoki mutaxassislarni ham shartnoma asosida jalb qilishi mumkin.

Joylardagi o'simlik dunyosi ob'ektlarini davlat tomonidan hisobga olish va ulardan foydalanish hajmlarini hisobga olish davomida o'simlik dunyosi ob'ektlarini davlat tomonidan hisobga olish sub'ektlari joriy ma'lumotlarni to'plashda hududda kadastr bo'yicha tekshirish o'tkazilgandan so'ng ro'y byergan keyingi barcha o'zgarishlarni qayd etib, har yili kadastrga kiritadi.

O'simlik dunyosi ob'ektlari davlat tomonidan har yili hisobga olinadi.

O'simlik dunyosi ob'ektlarini davlat tomonidan hisobga olish sub'ektlarining vakolatli shaxslari o'simlik dunyosi ob'ektlarini davlat tomonidan hisobga olishda (kadastr ma'lumotlarini birlamchi to'plashda) o'simlik dunyosi ob'ektlari, ularning o'sish muhiti to'g'risidagi ma'lumotlarni, shuningdek, hududda kadastr bo'yicha tekshirish o'tkazilgandan so'ng ro'y byergan barcha o'zgarishlar hisobga olish hamda boshqa ma'lumotlarni ro'yxatdan o'tkazish kitobiga kiritiladi.

O'simlik dunyosi ob'ektlaridan foydalanishni hisobga olish o'simliklar yoki ularning qismlarini o'sish muhitidan ajratib olish bilan bog'liq foydalanishga nisbatan amalga oshiriladi.

O'simlik dunyosi ob'ektlaridan foydalanish hajmlari:

o'simlik dunyosi ob'ektlarini yoki ularning qismlarini o'sish muhitidan ajratib olgan holda, maxsus foydalanish uchun byerilgan ruxsatnomalar soni bo'yicha;

o'sish muhitidan noqonuniy ajratib olingan o'simlik dunyosi ob'ektlari yoki ularning qismlari bo'yicha ma'lumotlar asosida hisobga olinadi.

O'simlik dunyosi ob'ektlaridan foydalanish hajmlari:

O'rmon xo'jaligi davlat qo'mitasi tomonidan — o'rmon fondi yerlarida;

«Kadastr agentligi» tomonidan — respublikaning barcha hududlari-dagi tabiiy yaylovlar va pichanzorlar o'simliklari bo'yicha;

Davlat ekologiya qo'mitasining vakolatli bo'limmalari tomonidan — respublikaning boshqa barcha hududlaridagi yovvoyi holda o'suvchi o'simliklarning dorivor, manzarali, ozuqabop va texnik turlari bo'yicha hisobga olinadi.

O'simlik dunyosi ob'ektlaridan foydalanish hajmlarini hisobga olish ma'lumotlari Davlat ekologiya qo'mitasiga taqdim etiladi.

Hududni kadastr bo'yicha tekshirish, o'simlik dunyosi ob'ektlarini davlat tomonidan hisobga olish va ulardan foydalanish hajmlarini hisobga olish Davlat ekologiya qo'mitasi Fanlar akademiyasi bilan kelishgan holda tasdiqlagan uslublar asosida amalga oshiriladi. Avval olingan ma'lumotlarni keyingi ma'lumotlar bilan taqqoslash uchun bitta uslub qo'llanadi.

Hududni kadastr bo'yicha tekshirish, o'simlik dunyosi ob'ektlarini davlat tomonidan hisobga olish va ulardan foydalanish hajmlarini hisobga olishni amalga oshiradigan vazirliklar, idoralar hamda tashkilotlar o'simlik dunyosi ob'ektlarining davlat kadastrini yuritish uchun zarur ma'lumotlarni Davlat ekologiya qo'mitasiga bepul asosda taqdim etadi.

O'simlik dunyosi ob'ektlarining davlat kadastri bo'yicha zarur ma'lumotlarni taqdim etish turlari, hajmlari va muddatlari Davlat ekologiya qo'mitasi tomonidan belgilanadi.

Vakolatli organlar o'simlik dunyosi ob'ektlarini hisobga olish va boshqa ma'lumotlarni ro'yxatdan o'tkazish kitobini yuritadi.

O'simlik dunyosi ob'ektlarini davlat tomonidan hisobga olish sub'ektlari Davlat ekologiya qo'mitasining vakolatli bo'linmasiga kadastr ma'lumotlarini taqdim etadi.

O'simlik dunyosi ob'ektlarini hisobga olish va boshqa ma'lumotlarni ro'yxatdan o'tkazish kitobi va kadastr ma'lumotlarini taqdim etish shakllari tegishli tashkilotlar tomonidan to'ldiriladi.

O'simlik dunyosi ob'ektlarining davlat hisobi ilmiy, ta'lim tashkilotlari va biolog mutaxassislar tomonidan shartnoma asosida yuritilgan hollarda, o'simlik dunyosi ob'ektlarini hisobga olish va boshqa ma'lumotlarni ro'yxatdan o'tkazish kitobiga ma'lumotlar ushbu mutaxassislar tomonidan kiritiladi.

Kadastr ma'lumotlarini taqdim etish shakllari hududida hisobga olish ishlari amalga oshiriladigan tashkilotning mas'ul xodimlari tomonidan to'ldiriladi.

Hududni kadastr bo'yicha tekshirish, o'simlik dunyosi ob'ektlarini davlat tomonidan hisobga olish va ulardan foydalanish hajmlarini hisobga olish natijasida olingan ma'lumotlar Davlat ekologiya qo'mitasining vakolatli bo'linmasiga, shuningdek, Fanlar akademiyasi, O'rmon xo'jaligi davlat qo'mitasi, «Davyergeodezkadastr» qo'mitasiga taqdim etiladi.

Fanlar akademiyasi, O'rmon xo'jaligi davlat qo'mitasi, «Kadastr agentligi» olingan ma'lumotlarni umumlashtirib, Davlat ekologiya qo'mita-siga taqdim etadi.

## **5.10. O'simlik dunyosi ob'ektlarining davlat kadastrining tarkibi**

O'zbekiston Respublikasi o'simlik dunyosi ob'ektlarining davlat kadastro yovvoyi holda o'suvchi o'simliklarning foydalanish xususiyatlari bo'yicha kadastr ob'ektlarining quyidagi guruhlarida birlashtirilgan har bir turi bo'yicha son, sifat va baholash ma'lumotlarini o'z ichiga oladi:

kamyob va yo'qolib ketish xavfi bo'lgan yovvoyi holda o'suvchi o'simliklar;

dorivor va ozuqa maqsadlarida ishlatiladigan yovvoyi holda o'suvchi o'simliklar;

texnik maqsadlarda ishlatiladigan yovvoyi holda o'suvchi o'simliklar;

yovvoyi holda o'suvchi manzarali o'simliklar;

tabiiy yaylovlar va pichanzorlar o'simliklari;

muhofaza etiladigan tabiiy hududlarda o'sadigan o'simliklar;

o'simliklarning boshqa turlari.

Hududni kadastr bo'yicha tekshirish, o'simlik dunyosi ob'ektlarini davlat tomonidan har yili hisobga olish, ulardan foydalanish hajmlarini hisobga olish o'simlik dunyosi ob'ektlarining davlat kadastrini tuzish uchun asosiy ma'lumotlar manbai hisoblanadi.

Kamyob va yo'qolib ketish xavfi bo'lgan yovvoyi holda o'suvchi o'simliklar turlari bo'yicha o'simlik dunyosi ob'ektlarining davlat kadastriga kiritiladigan ma'lumotlar quyidagilardan iborat:

identifikasiya raqami;

o'simlik turining nomi;

turning tabiatni muhofaza qilish bo'yicha maqomi;

turning populyaciya holati;

joylashgan joyi;

xo'jalik sub'ektining nomi;

turning populyaciysi o'sadigan joylar (geografik koordinatlar);

turning tarqalish maydoni;

populyaciyaning zichligi;

turning populyaciya soni;

hududdan foydalanish xususiyati;

muhofaza etish choralarini.

Dorivor, ozuqa va texnik maqsadlarda foydalaniladigan yovvoyi holda o'suvchi o'simliklar bo'yicha o'simlik dunyosi ob'ektlarining davlat kadastriga kiritiladigan ma'lumotlar quyidagilardan iborat:

identifikasiya raqami;

o'simlik turining nomi;

tayyorlanadigan xom ashyo turi;

turning maqomi;

turning populyaciya holati;

joylashgan joyi;  
ekinlar maydoni;  
xo'jalik sub'ektining nomi;  
o'simliklar o'sadigan joy (geografik koordinatalar va ma'muriy-hududiy bo'linish);  
o'simliklar o'sadigan maydon;  
o'simlik hosildorligi (xom ashyo);  
o'simlikning foydalaniladigan zaxirasi (xom ashyo);  
o'simliklarni har yili tayyorlash mumkin bo'lган hajmi (xom ashyo);  
tayyorlash uchun ajratilgan kvota;  
haqiqatdan tayyorlangani;  
sotilgan o'simliklar (xom ashyo);  
o'simliklarni tayyorlash tannarxi (xom ashyo);  
o'simliklarni sotish narxi (xom ashyo);  
o'simliklar zaxiralarini iqtisodiy baholash (xom ashyo).

Yovvoyi holda o'suvchi manzarali o'simliklar bo'yicha o'simlik dunyosi ob'ektlarining davlat kadastriga kiritiladigan ma'lumotlar quyidagilar-dan iborat:

identifikasiya raqami;  
o'simlik turining nomi;  
turning maqomi;  
turning populyaciya holati;  
tayyorlanadigan xomashyo turi;  
joylashgan joyi;  
xo'jalik sub'ektining nomi;  
ushbu turdagи o'simliklar o'sadigan joy (geografik koordinatalar);  
o'simliklar o'sadigan maydon;  
o'simliklar o'sishining zichligi;  
sotish narxi;  
iqtisodiy baholash.

Tabiiy yaylovlар va pichanzorlar o'simliklari bo'yicha o'simlik dunyosi ob'ektlarining davlat kadastriga kiritiladigan ma'lumotlar quyidagilardan iborat:

- identikaцiya raqami;
- yaylov (pichanzor) turi;
- yaylovlар xilma-xilligi;
- hududning ma'muriy joylashuvi;
- xo'jalik sub'ektining nomi;
- xilma-xil yaylovlар maydoni;
- ozuqa massasining hosildorligi;
- ozqualarning to'yimlilik qiymati;
- tavsiya etiladigan mavsumiy foydalanish;
- amalda mavsumiy foydalanish;
- yaylov larga tushadigan og'irlik normasi (yayloving hajmi);
- amalda o'tlatilgan;
- iqtisodiy baholash.

Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarda o'sadigan o'simliklar turlari bo'yicha o'simlik dunyosi ob'ektlarining davlat kadastriga kiritiladigan ma'lumotlar quyidagilardan iborat:

- identikaцiya raqami;
- o'simlik turining nomi;
- turning tabiatni muhofaza qilish maqomi;
- hisobga olish amalga oshirilgan muhofaza etiladigan tabiiy hudud nomi;
- hisobga olish amalga oshirilgan maydon;
- o'simliklar o'sadigan maydon;
- o'simliklar o'sishining zichligi;
- turning populyaцiya soni;
- turning populyaцiya holati;
- foydalanish;
- iqtisodiy baholash.

## **5.11. O'simlik dunyosi ob'ektlarining davlat kadastrini yuritish tartibi**

O'simlik dunyosi ob'ektlarining davlat kadastrini yuritish kadastr ma'lumotlarini to'plashning oldingi (dastlabki yillarda to'plash), asosiy (birlamchi) va joriy (har yilgi) turlarini o'z ichiga oladi va bu turlar ushbu ma'lumotlarni uzluksiz yangilanishini ta'minlaydi.

Birlamchi ma'lumotlar asosida o'simlik dunyosi ob'ektlari to'g'risidagi birlamchi kadastr ma'lumotlari hududiy darajada umumlashtiriladi va kiritiladi.

Kadastr ma'lumotlarini joriy (har yili) to'plashda birlamchi ma'lumotlar kiritilgandan so'ng ro'y byergan keyingi barcha o'zgarishlar qayd etiladi va kadastrga kiritiladi.

Davlat ekologiya qo'mitasining tegishli vakolatli bo'linmasining Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri bo'yicha o'simlik dunyosi ob'ektlarini davlat tomonidan hisobga olish hamda ulardan foydalanish hajmlarini hisobga olish to'g'risida umumlashtirilgan ma'lumotlari o'simlik dunyosi ob'ektlarining davlat kadastriga tegishli hududlar bo'yicha kiritiladi va Davlat ekologiya qo'mitasiga O'zbekiston Respublikasi bo'yicha o'simlik dunyosi ob'ektlarining davlat kadastriga kiritish uchun taqdim etiladi.

O'simlik dunyosi ob'ektlarining davlat kadastro bo'yicha kadastr ma'lumotlari (kadastr ma'lumotlari):

hududiy darajada — Davlat ekologiya qo'mitasining vakolatli bo'linmalari tomonidan;

respublika darajasida — Davlat ekologiya qo'mitasining kadastr xizmati tomonidan shakllantiriladi.

Hududiy va respublika darajasidagi kadastr ma'lumotlarini taqdim etish shakllarini Davlat ekologiya qo'mitasi belgilaydi.

O'simlik dunyosi ob'ektlari to'g'risidagi kadastr ma'lumotlari sxema asosida taqdim etiladi.

Davlat ekologiya qo'mitasining vakolatli bo'linmalari tushadigan ma'lumotlarni hududiy darajada tahlil qiladi, taqdim etilgan ma'lumotlarning

ishonchlilagini baholaydi va Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi yovvoyi holda o'suvchi o'simliklar bo'yicha geoma'lumotlar bazasini shakllantiradi, hisobotlar tuzadi va ularni har yili 1 martgacha Davlat ekologiya qo'mitasiga belgilangan shaklda taqdim etadi.

Davlat ekologiya qo'mitasining kadastr xizmati respublika darajasida:

Davlat ekologiya qo'mitasi vakolatli bo'linmalarining hisobotlarini umumlashtiradi;

o'simlik dunyosi ob'ektlarining davlat kadastri bo'yicha geoma'lumotlar bazasini yuritadi;

iqtisodiy baholashni belgilaydi;

o'simliklar o'sadigan muhit holatini tahlil qiladi;

zarur kadastr ma'lumotlarini Davlat kadastrlari yagona tizimiga taqdim etadi.

Davlat ekologiya qo'mitasi hisobot yilidan keyingi yilning 1 aprelijacha o'simliklar dunyosi ob'ektlarining davlat kadastri bo'yicha zarur ma'lumotlarni Davlat kadastrlari yagona tizimiga taqdim etadi. Kadastr ma'lumotlarini Davlat kadastrlari yagona tizimiga taqdim etish shakli Davlat ekologiya qo'mitasi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri davlat qo'mitasi bilan kelishilgan holda tasdiqlanadi.

O'simlik dunyosi ob'ektlarining taqdim etiladigan kadastr ma'lumotlari ishonchliligi uchun o'simlik dunyosi ob'ektlarining davlat hisobini va ulardan foydalanish hajmlarining hisobini yuritadigan vakolatli organlar hamda yuridik shaxslar, Davlat ekologiya qo'mitasining o'simlik dunyosi ob'ektlarining davlat kadastrini yuritadigan vakolatli bo'linmalari qonun hujjatlariga muvofiq javob byeradi.

YUridik va jismoniy shaxslar o'simlik dunyosi ob'ektlari davlat kadastrining davlat ma'lumotlar resurslarini shakllantirishda va ulardan foydalanishda:

ma'lumotlarni hujjatlashtirish, davlat ma'lumotlar resurslarini shakllantirish, ulardan foydalanish hamda foydalanishni tashkil qilish tartibi va talablariga rioya etishi;

davlat ma'lumotlar resurslarining ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlashi;

davlat ma'lumotlar resurslarini shakllantirishda va ularning faoliyat yuritishini ta'minlashda liqenziyalangan dasturiy hamda syertifikatlangan texnika vositalaridan foydalanishi shart.

O'simlik dunyosi ob'ektlarining davlat hisobini, ulardan foydalanish hajmlari hisobini va davlat kadastrini yuritish tartibi to'g'risida ham yo'-riqnomma ishlab chiqilgan bo'lib, Yo'riqnomma o'simlik dunyosi ob'ektlarini hisobga olish va boshqa ma'lumotlarni ro'yxatdan o'tkazish kitobini (keyin-gi o'rinnarda ro'yxatga olish kitobi deb ataladi) yuritish tartibini belgi-laydi.

O'simlik dunyosi ob'ektlarining davlat hisobini yuritadigan davlat organlari, yuridik shaxslar ro'yxatdan o'tkazish kitobini ushbu Yo'riqnomaga muvofiq tuzadi va yuritadi.

Ro'yxatdan o'tkazish kitobi Yo'riqnomaga asosan tuziladi va yuriti-ladi.

Ro'yxatdan o'tkazish kitobi O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasining o'simlik dunyosi ob'ektlarining hududiy darajada davlat kadastrini yuritadigan vakolatli bo'linmasi tomonidan yuritiladi.

Ro'yxatdan o'tkazish kitobi davlat kadastro sub'ektlari bo'lgan davlat organida, yuridik shaxsda saqlanadi.

Ro'yxatdan o'tkazish kitobi asosiy hujjat bo'lib, unda kadastr ob'ektlari ro'yxatga va hisobga olinadi, ularning geografik tarqalishi, son va sifat tavsiflari, ulardan foydalanish, o'sish muhiti, iqtisodiy baholash haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

Ro'yxatdan o'tkazish kitobi davlat organi va yuridik shaxsning rahbari belgilangan tartibda tayinlaydigan vakolatli shaxs tomonidan yuritiladi.

## **5.12. Ro'yxatdan o'tkazish kitobini yuritish**

Ro'yxatdan o'tkazish kitobi quyidagi bo'limlardan iborat:

davlat kadastro sub'ektlari to'g'risidagi umumiy axborot;

o'simlik dunyosi davlat kadastro ob'ektlarining ro'yxati;

o'simlik dunyosi ob'ektlarining davlat kadastrini birlamchi hisobga olish ma'lumotlari;

o'simlik dunyosi ob'ektlarini har yili davlat tomonidan hisobga olish ma'lumotlari.

O'simlik dunyosi ob'ektlari davlat kadastrining ob'ekti to'g'risidagi umumiylaxborot bo'limiga quyidagi ma'lumotlar kiritiladi:

yuridik shaxs — kadastr sub'ektining (tashkilot, xo'jalikning) nomi;

joylashgan joyi;

tashkil etilgan yoki asos solingan sanasi;

idoraviy mansubligi;

hududning umumiyl maydoni, yerlarning toifalar bo'yicha maydoni (gektarlarda);

yer uchastkasining kadastr raqami, kadastr guvohnomasining raqami, yerlardan foydalanish uchun davlat hujjatining raqami;

xarita (sxema) alohida varaqda ilova qilingan geografik bog'liqlik;

o'simlik dunyosi ob'ektlarining davlat hisobini va ro'yxatdan o'tkazish kitobini yuritish uchun mas'ul vakolatli shaxs to'g'risidagi ma'lumotlar (F.I.O., lavozimi, tayinlangani haqidagi buyruq raqami va sanasi).

O'simlik dunyosi davlat kadastrining ob'ektlari ro'yxati bo'limiga quyidagi guruuhlar bo'yicha nomlanishi ko'rsatilgan holda, o'simlik dunyosi ob'ektlari kadastrining ro'yxati (ilmiy, shuningdek, rus va davlat tilidagi) keltiriladi:

kamyob va yo'qolib ketish xavfi bo'lgan yovvoyi holda o'suvchi o'simliklar turlari (tabiatni muhofaza qilish maqomi);

yovvoyi holda o'suvchi o'simliklarning dorivor va ozuqabop turlari;

yovvoyi holda o'suvchi o'simliklarning texnik turlari;

yovvoyi holda o'suvchi manzarali o'simliklar;

tabiiy yaylovlar va pichanzorlar o'simliklari (geobotanik xaritalar alohida varaqda ilova qilinadigan yaylovlar turlari va ularning xilma-xilligi ro'yxati);

muhofaza etiladigan tabiiy hududlarda o'sadigan o'simliklar;

o'simliklarning boshqa turlari.

O'simlik dunyosi ob'ektlarining davlat kadastrini birlamchi hisobga olish ma'lumotlari bo'limiga kadastr obe'ktlarining har bir guruhi bo'yicha quyidagi ma'lumotlar kiritiladi:

a) yovvoyi holda o'suvchi o'simliklarning kamyob va yo'qolib ketish xavfi bo'lgan turlari haqida:

o'simlik turining nomi (ilmiy, shuningdek, rus va davlat tilida);  
tabiatni muhofaza qilish maqomi;  
10x15 sm o'lchamdagি rangli tasviri;  
turning qisqacha tavsifi;  
uchastkalar, kvartallar, kichik uchastkalar raqamlari, daralar nomlari,  
geografik koordinatalar ko'rsatiladigan o'sish joylari;  
turning populyaasiyasi egallagan maydon (gektarlarda);  
ushbu xo'jalik doirasida tur tarqaladigan umumiyl maydon;  
turning populyaasiya soni;  
ushbu xo'jalik doirasida turning umumiyl soni;  
hududdan foydalanish xususiyati;  
o'sish muhitining holati;  
tavsiya etiladigan va amaldagi muhofaza etish choralari;  
axborot to'plash uslubi;

b) yovvoyi holda o'suvchi o'simliklarning dorivor va ozuqabop turlari haqida;  
o'simlik turining nomi (ilmiy, shuningdek, rus va davlat tilida);  
turning maqomi;  
tayyorlanadigan xom ashyo turi;  
10x15 sm o'lchamdagи rangli tasviri;  
turning qisqacha tavsifi;  
turdan xo'jalikda foydalanish;  
uchastkalar, kvartallar, kichik uchastkalar raqamlari, daralar nomlari,  
geografik koordinatalar ko'rsatilgan chakalakzorlar joylashgan joylar;  
chakalakzorlar maydoni;  
xom ashyoning hosildorligi;

xom ashyning foydalanish zaxirasi;

xom ashyni har yili tayyorlash mumkin bo'lgan hajmi;

hududdan foydalanish tavsifi;

o'sish muhitining holati;

xom ashyo zaxiralarini iqtisodiy baholash (xom ashyodan foydalanish zaxirasiga ko'paytirilgan sotish narxi, tekshiruv o'tkaziladigan davrda joriy narxlarda);

axborot to'plash uslubi;

v) yovvoyi holda o'sadigan o'simliklarning texnik turlari haqida; o'simlik turining nomi (ilmiy, shuningdek, rus va davlat tilida); turning maqomi;

tayyorlanadigan xom ashyo turi;

10x15 sm o'lchamdagি rangli tasviri;

turning qisqacha tavsifi;

turdan xo'jalikda foydalanish;

uchastkalar, kvartallar, kichik uchastkalar raqamlari, daralar nomlari, geografik koordinatalar ko'rsatilgan chakalakzorlar joylashgan joylar;

chakalakzorlar maydoni;

xom ashyning hosildorligi;

xom ashyning foydalaniladigan zaxirasi;

xom ashyni har yili tayyorlash mumkin bo'lgan hajmi;

hududdan foydalanish xususiyati;

o'sish muhitining holati;

xom ashyo zaxirasini iqtisodiy baholash;

axborot to'plash uslubi;

g) yovvoyi holda o'suvchi o'simliklarning manzarali turlari haqida; o'simlik turining nomi (ilmiy, shuningdek, rus va davlat tilida); turning maqomi;

tayyorlanadigan xom ashyo turi;

10x15 sm o'lchamdagи rangli tasviri;

turning qisqacha tavsifi;

turdan xo'jalikda foydalanish;

uchastkalar, kvartallar, kichik uchastkalar raqamlari, daralar nomlari, geografik koordinatalar ko'rsatilgan chakalakzorlar joylashgan joylar;

chakalakzorlar maydoni;

chakalakzorlarning zichligi (bir gektardagi o'simliklar soni);

foydalilanidigan zaxira (o'simliklar soni);

xom ashyni har yili tayyorlash mumkin bo'lган hajmi;

hududdan foydalanish xususiyati;

o'sish muhitining holati;

iqtisodiy baholash;

axborot toplash uslubi;

d) tabiiy yaylovlар va pichanzorlar o'simliklari haqida;

yaylov turining nomi (ilmiy, shuningdek, rus va davlat tilida);

xilma-xil yaylovlар nomi;

10x15 sm o'lchamdagи rangli tasvir;

joylashgan joyi;

ularning maydoni;

bonitet toifasi;

suv bilan ta'minlangani;

tuproq qatlami xususiyati;

loyiha bo'yicha qoplanish foizi;

o'simliklarning landshaft turlari, ularning joylashuvi, loyiha bo'yicha qoplanish foizi, zichligi (bitta maydondagi buta o'simliklari soni — yirik o'simliklar uchun);

zaharli, begona o'simliklarning mavjudligi;

ozuqa massasining hosildorligi (yil mavsumlari bo'yicha);

ozuqalarning yalpi zaxirasi;

ozuqalarning ovqat bo'ladijan qiymati (quruq holda eyiladigan massaning bir qentnyerida ozuqa birliklarining miqdori);

tavsiya etiladigan mavsumiy foydalanish;  
amalda mavsumiy foydalanish;  
yil mavsumlari bo'yicha yaylovlargacha tushadigan og'irlik normasi, bir gektarda qo'ylarning shartli soni (yoki yaylovlardagi hajmi, ya'ni xilma-xil yaylovlardagi maydoniga to'g'ri keladigan qo'ylarning shartli soni);  
amalda o'tlatish;  
emirilish darajasi;  
iqtisodiy baholash (bir gektarda asosiy chorvachilik mahsulotining chiqishidan kelib chiqqan holda aniqlanadi, go'sht etishtirishga ixtisoslashtirilgan xo'jalik uchun bir bosh mayda yoki yirik qoramolning bir kunda qo'shilgan o'rtacha vazn ko'rsatkichi yaylov davri kunlari soniga, yaylovga tushadigan og'irlik normasiga (bir gektarga to'g'ri keladigan chorva mollari soni) va tirik vazndagi go'shtning o'rtacha xarid narxiga ko'paytiriladi, pichanzorlar uchun yalpi zaxira iqtisodiy baholash uchun pichanning o'rtacha bozor narxiga ko'paytiriladi);  
har bir xilma-xil yaylov bo'yicha o'simliklar turlarining ko'pligi ko'rsatilgan ro'yxatlar;  
axborot to'plash uslubi;  
e) muhofaza etiladigan tabiiy hududlarda o'sadigan o'simliklar haqida;  
o'simlik turining nomi (ilmiy, shuningdek, rus va davlat tilida);  
turning tabiatni muhofaza qilish maqomi;  
10x15 sm o'lchamdagagi rangli tasviri;  
turning qisqacha tavsifi;  
uchastkalar, kvartallar, kichik uchastkalar raqamlari, daralar nomlari, geografik koordinatalar ko'rsatilgan o'sish joylari;  
hisobga olish amalga oshirilgan muhofaza etiladigan tabiiy hudud nomi;  
hisobga olish amalga oshirilgan maydon;  
o'simliklar o'sadigan maydon;  
o'simliklarning o'sish zichligi;  
turning populyaciya soni;  
turning populyaciya holati;

foydanish;  
iqtisodiy baholash;  
axborot to'plash uslubi.

O'simlik dunyosi ob'ektlarini har yili davlat tomonidan hisobga olish ma'lumotlari bo'limiga O'simlik dunyosi ob'ektlarining davlat hisobini, ulardan foydanish hajmlari hisobini va davlat kadastrini yuritish tartibi to'g'risidagi nizomda ko'rsatilgan quyidagi ma'lumotlar kiritiladi:

- a) kamyob va yo'qolib ketish xavfi bo'lgan yovvoyi holda o'suvchi o'simliklar turlari bo'yicha ma'lumotlar;
- b) yovvoyi holda o'suvchi o'simliklarning dorivor, ozuqabop, texnik, manzarali turlari bo'yicha ma'lumotlar;
- v) tabiiy yaylovlar va pichanzorlar o'simliklari bo'yicha ma'lumotlar;
- g) muhofaza etiladigan tabiiy hududlarda o'sadigan o'simliklar bo'yicha ma'lumotlar.

O'simlik turining nomi bo'limida uning ilmiy nomi, shuningdek, davlat va rus tilidagi nomi ko'rsatiladi.

Navbatdagi hisobot yili nihoyasiga etgach, ro'yxatdan o'tkazish kitobining 4-bo'limini yuritish keyingi sahifada davom ettiriladi.

### **5.13. Ro'yxatdan o'tkazish kitobini saqlash**

Ro'yxatdan o'tkazish kitobi elektron va qog'oz shakllarda saqlanadi.

Ro'yxatdan o'tkazish kitobining saqlanishi uchun mas'uliyat ushbu kitobni yuritadigan tashkilotning vakolatli shaxsi zimmasiga yuklanadi.

Ro'yxatdan o'tkazish kitobiga kiritilgan ma'lumotlarning ishonchliligi, shuningdek, uni yuritish va yangilash, hududiy darajadagi kadastr ma'lumotlarini taqdim etish bo'yicha belgilangan muddatlarga rioya etilishi uchun mas'uliyat o'simlik dunyosi ob'ektlarining davlat hisobini hamda ro'yxatdan o'tkazish kitobini yuritadigan davlat organlariga va yuridik shaxslar zimmasiga yuklanadi.

Ro'yxatdan o'tkazish kitobini yuritishga vakolatli shaxs ro'yxatdan o'tkazish kitobiga kiritilgan ma'lumotlarning ishonchliligi, shuningdek, uni yuritish bo'yicha belgilangan muddatlarga rioya etilishi uchun shaxsan mas'uldir.

**O'simlik dunyosi ob'ektlarini davlat tomonidan hisobga olish sub'ektlarining O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasining vakolatli bo'linmalariga kadastr ma'lumotlarini taqdim etish.**

Birinchi darajadagi sub'ektlarning hududiy darajadagi sub'ektlarga o'simlik dunyosi ob'ektlarining davlat kadastro bo'yicha kadastr ma'lumotlari alifbo-raqamli va grafik shaklda taqdim etiladi.

Kadastr ma'lumotlarining alifbo-raqamli shakli jadval shakllaridan iborat bo'lib, ularga hisobot davrida xo'jalik hududida yovvoyi holda o'suvchi o'simliklarni davlat tomonidan hisobga olish bo'yicha yakuniy ma'lumotlar kiritiladi.

Kadastr ma'lumotlarining grafik shakli alifbo-raqamli shaklning majburiy ilovasi bo'lib, davlat tomonidan hisobga olinadigan ob'ektlar — yovvoyi holda o'suvchi o'simliklarning tarqalish joylari batafsil qayd etiladigan xo'jalik xaritasini (sxemasidan) ifoda etadi.

#### **5.14. O'simlik dunyosi ob'ektlari to'g'risida grafik shaklidagi kadastr ma'lumotlarini shakllantirish.**

O'simlik dunyosi ob'ektlari to'g'risida grafik shaklidagi kadastr ma'lumotlarini (keyingi o'rnlarda o'simliklarning turlar bo'yicha tarqalish rejasid deb ataladi) shakllantirish uchun hududlarni rejallashti-rishning sxematik xaritalari, qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarning ichki xo'jalik tuzilishi, davlat o'rmon fondida esa o'rmon tuzilishining topografik matyeriallaridan asos sifatida foydalilanildi.

O'simliklarning turlar bo'yicha tarqalishining kadastr rejasid davlat tomonidan hisobga olinadigan ob'ektlar bo'lgan yovvoyi holda o'suvchi o'simliklar yerlarini xaritaga o'rnatilgan shartli belgilarning katta-kichikligiga rioya etgan va ularni

qo'llagan holda, asosiy maydonlar (tayyorlash uchun ahamiyatli bo'lgan) bo'yicha konturlar (poligonlar) ko'rinishida batafsil kiritish hamda ularni ma'lum bir rang bilan shtrixlash orqali tuziladi.

O'simliklarning turlar bo'yicha tarqalish rejasining quyi qismida yovvoyi holda o'suvchi o'simliklar turlarini aks ettirish uchun foydalaniladigan shartli belgilar grafik shaklida tegishli tushuntirishlar (o'simlik turining nomi, ushbu turdag'i o'simlik egallagan maydon gektarlarda, uning identifikasiya raqami) bilan birga ko'rsatiladi.

O'simliklarning turlar bo'yicha tarqalish rejasini va to'ldirilgan alifbo-raqamli ma'lumot shakllarini (jadvallarni) o'qish qulay bo'lishi uchun identifikasiya raqami qo'llaniladi. O'simliklarning turlar bo'yicha tarqalish rejasiga kiritiladigan konturlar (poligonlar) 1-raqamdan boshlab raqamlanadi va rejada hamda jadvallarda ularning indentifi-kaçıya raqami hisoblanadi.

O'simliklarning bir turini aks ettirishda rejaning bir qancha kontur-lariga (poligonlariga) o'simlik turining shakli bo'yicha nomiga mos keladi-gan bir xil identifikasiya raqami qo'yiladi.

### **O'simlik dunyosi ob'ektlarining davlat kadastro bo'yicha hisobot**

O'simlik dunyosi ob'ektlarining davlat hisobini, ulardan foydalanish hajmlari hisobini va davlat kadastrini yuritish to'g'risidagi nizom bilan belgilangan va tegishli jadvallarda aks ettirilgan quyidagi shakllar o'simlik dunyosi ob'ektlari bo'yicha kadastr ma'lumotlarini taqdim etishning alifbo-raqamli shakllari hisoblanadi:

«Kamyob va yo'qolib ketish xavfi bo'lgan yovvoyi holda o'suvchi o'simliklar turlari» deb nomlangan **1-shaklga** kamyob va yo'qolib ketish xavfi bo'lgan yovvoyi holda o'suvchi o'simliklarning davlat tomonidan hisobga olinadigan turlari bo'yicha hisobot davridagi ma'lumotlar kiritiladi. Mazkur hisobot shakli davlat qo'riqxonalari, milliy tabiat bog'lari, tabiiy pitomniklar, biosfyera rezyervatlarida va o'simlik dunyosi ob'ektlarining davlat kadastro ob'ektlari sirasiga belgilangan tartibda kiritilgan boshqa hududlarda yuritiladi.

«Dorivor va ozuqa maqsadlarida ishlatiladigan yovvoyi holda o'suvchi o'simliklar» deb nomlangan dorivor va ozuqa maqsadlarida ishlatiladigan yovvoyi holda o'suvchi o'simliklarning davlat tomonidan hisobga olinadigan turlari bo'yicha hisobot davridagi ma'lumotlar kiritiladi.

«Texnik maqsadlarda ishlatiladigan yovvoyi holda o'suvchi o'simliklar» deb nomlangan texnik maqsadlarda ishlatiladigan yovvoyi holda o'suvchi o'simliklarning davlat tomonidan hisobga olinadigan turlari bo'yicha hisobot davridagi ma'lumotlar kiritiladi.

«YOvvoyi holda o'suvchi manzarali o'simliklar» deb nomlangan shaklga yovvoyi holda o'suvchi va manzarali o'simliklarni davlat tomonidan hisobga olish bo'yicha hisobot davridagi ma'lumotlar kiritiladi.

«Tabiiy yaylovlar va pichanzorlar o'simliklari» deb nomlangan **shaklga** tabiiy yaylovlar va pichanzorlarning davlat tomonidan hisobga olinadigan o'simliklari bo'yicha hisobot davridagi ma'lumotlar kiritiladi.

«Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarda o'sadigan o'simliklar» deb nomlangan shaklga muhofaza etiladigan tabiiy hududlar, milliy tabiat bog'lari, tabiiy pitomniklar, davlat biosfyera rezyervatlarida o'sadigan o'simliklarning davlat tomonidan hisobga olinadigan turlari bo'yicha hisobot davridagi ma'lumotlar kiritiladi.

## **5.15. O'simlik dunyosi ob'ektlarini kadastr ma'lumotlarini hisobot shakllariga kiritish**

Hisobot davrida ro'yxatdan o'tkazish kitobida aks ettirilgan davlat hisobi ma'lumotlari hisobot shakllariga kiritish uchun kadastr ma'lumotlarining asosiy manbai hisoblanadi.

Tashkilot, xo'jalik, muhofaza etiladigan tabiiy hududning vakolatli shaxsi davlat tomonidan hisobga olish to'g'risidagi ma'lumotlarni o'simlik dunyosi ob'ektlarining davlat kadastri hisobot shakllariga ro'yxatdan o'tkazish kitobiga kiritilgan yovvoyi holda o'suvchi o'simliklarni davlat tomonidan hisobga olish bo'yicha hisobot davridagi (yilidagi) ma'lumotlar asosida kiritadi.

Vakolatli shaxs tomonidan o'simliklar turlarining guruhlari (dorivor, ozuqabop, texnik va boshqalar) bo'yicha hisobot shakllarining tegishli ustunlari to'ldiriladi, o'simliklarning turlari bo'yicha tarqalish rejasida qayd etilgan konturlar (poligonlar) raqami «Identifikasiya raqami» ustuniga, o'simlik turining nomi esa «O'simlik turining nomi» ustuniga kiritiladi.

«Kamyob va yo'qolib ketish xavfi bo'lgan yovvoyi holda o'suvchi o'simliklar turlari» deb nomlangan shaklni to'ldirishda tegishli ustunlarda:

«Identifikasiya raqami» ustunida — har bir turdag'i o'simlikning o'ziga xos raqami;

«O'simlik turining nomi» ustunida — o'simlikning nomi (ilmiy, shuningdek, rus va davlat tilida);

«Tabiatni muhofaza qilish maqomi» ustunida — yovvoyi holda o'suvchi o'simlik turining maqomi;

«Xo'jalik nomi» ustunida — hududida hisobga olish amalga oshiriladigan xo'jalikning to'liq nomi;

«Turning populyaçiyasi egallagan maydon» ustunida — tadqiqot o'tkazilayotgan hududda ushbu o'simlik bilan band bo'lgan umumiyl maydon gektarlarda;

«Populyaçiyaning zichligi» ustunida — bir gektar maydonda ushbu turdag'i o'simliklar soni;

«Turning populyaçiya soni» ustunida — birliklarda umumiyl son;

«O'sish muhitining holati» ustunida — o'simlikning ushbu turi o'sadigan muhitning amaldagi holati;

«Muhofaza etish choralari» ustunida — idoraviy mansub hududda o'simlikning ushbu turini saqlash uchun amalga oshirilayotgan muhofaza etish chora-tadbirlari ko'rsatiladi.

«Dorivor va ozuqa maqsadlarida ishlatiladigan yovvoyi holda o'suvchi o'simliklar» deb nomlangan shaklni va «YOvvoyi holda o'suvchi manzarali o'simliklar» deb nomlangan shaklni to'ldirishda tegishli ustunlarda quyidagilar ko'rsatiladi:

«Ekinzorlar maydoni» ustuniga konturlar (poligonlar) rejasida qayd etilgan va idoraviy mansub hududda o'simlikning ushbu turi egallagan umumiy maydon to'g'risidagi ma'lumotlar;

«Identikaçıya raqami» ustunida — har bir turdag'i o'simlikning o'ziga xos raqami;

«O'simlik turining nomi» ustunida — o'simlikning nomi (ilmiy, shuningdek, rus va davlat tilida);

«Xom ashyo hosildorligi» ustunida — rejada qayd etilgan ushbu turdag'i o'simlik ekinlarining umumiy hosildorligi ko'rsatiladi;

«Turning maqomi», «Xo'jalikning nomi», «Tayyorlash uchun ajratilgan kvota», «Amalda tayyorlangan», «Sotilgan xom ashyo», «Tayyorlangan va sotilgan bir kilogramm xom ashyoning tannarxi», «Iqtisodiy baholash» ustunlari ushbu turdag'i o'simlik uchun hisobot davrida ro'yxatdan o'tkazish kitobidan davlat hisobiga olish ma'lumotlari asosida to'ldiriladi.

«YOvvoyi holda o'suvchi o'simliklar» deb nomlangan shaklni to'ldirishda tegishli ustunlarda:

«Identikaçıya raqami» ustunida — ushbu turdag'i o'simlikning o'ziga xos raqami;

«O'simlik turining nomi» ustunida — o'simlikning nomi (ilmiy, shuningdek, rus va davlat tilida) ko'rsatiladi;

«Turning maqomi», «Turning populyaçiya holati», «Tayyorlanadigan xom ashyo turi», «Hududning ma'muriy holati», «Xo'jalik sub'ektining (kadastr sub'ekti) nomi», «O'simliklar turlari o'sadigan joy (geografik koordinatalar)», «O'simliklar o'sadigan maydon», «O'simliklar o'sishining zichligi», «Sotish narxi», «Iqtisodiy baholash» ustunlari ushbu turdag'i o'simlik uchun hisobot davrida ro'yxatdan o'tkazish kitobidan davlat hisobiga olish ma'lumotlari asosida to'ldiriladi.

«Tabiiy yaylovlari va pichanzorlar o'simliklari» deb nomlangan shaklni to'ldirishda tegishli ustunlarda:

«Identikaçıya raqami» ustunida — o'simliklarning turlar bo'yicha tarqalishi rejasiga qo'yilgan raqamga va yayloving belgilangan turiga mos keladigan raqam;

«YAylov turi» ustunida — yaylov turining nomi;

«YAylovlar xilma-xilligi» ustunida — yaylovlar xilma-xilligini tashkil qiladigan o'simliklar;

«Hudud» ustunida — ushbu turdag'i yaylov joylashgan hudud nomi;

«Xo'jalik sub'ekti» ustunida — hisobot davrida yaylovdan foydalanuvchining nomi;

«Ekinzorlar maydoni» ustunida — idoraviy mansub hududda ushbu turdag'i yayloving umumiy maydoni;

«Ozuqa massasining hosildorligi» ustunida — ushbu turdag'i yaylovda hisobot davrida bir gektardan çentnyerda o'rtacha hosildorlik;

«YAlpi ozuqa zaxirasi» ustunida — tabiiy yaylovlar va pichanzorlar o'simliklarining davlat kadastro ob'ektlarini ro'yxatdan o'tkazish kitobidan ma'lumotlar, birlamchi hisobga olish ma'lumotlari;

«Tayyorlangan dag'al ozuqa miqdori» ustunida — pichanzorlar bo'yicha amalda tayyorlangan ozuqa miqdori tonnada;

«Yirik qoramollarni o'tlatish normasi» ustunida — bir gektarda chorva mollari sonining tasdiqlangan normativlariga muvofiq ushbu turdag'i yaylov uchun qoramollarni o'tlatishning belgilangan normasi;

«Amalda o'tlatilgan» ustunida — bir gektarda o'tlatilgan qoramollar soni;

«Mayda mollarni o'tlatish normasi» ustunida — bir gektarda chorva mollari sonining tasdiqlangan normativlariga muvofiq ushbu turdag'i yaylov uchun mayda mollarni o'tlatishning belgilangan normasi;

«Amalda o'tlatilgan» ustunida — bir gektarda o'tlatilgan mayda chorva mollari soni;

«Iqtisodiy baholash» ustunida — ushbu turdag'i yaylov ekinlarining ming so'm birligidagi baholash qiymati ko'rsatiladi.

«Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarda o'sadigan o'simliklar» deb nomlangan shaklni to'ldirishda tegishli ustunlarda:

«Identikaçıya raqami» ustunida — har bir turdagи o'simlikning o'ziga xos raqami;

«O'simlik turi nomida» ustunida — o'simlikning nomi (ilmiy, shuningdek, rus va davlat tilida);

«Tabiatni muhofaza qilish maqomi» ustunida — yovvoyi holda o'suvchi o'simlik turining maqomi;

«Hisobga olish amalga oshirilgan muhofaza etiladigan tabiiy hudud nomi» ustunida — hisobga olish amalga oshiriladigan muhofaza etiladigan tabiiy hudud nomi;

«Hisobga olish amalga oshirilgan maydon» ustunida — hisobga olish amalga oshirilgan hudud;

«O'simliklar o'sadigan maydon» ustunida — o'simlik o'sadigan hudud (gektarda);

«O'simliklarning o'sish zichligi» ustunida — bir gektar maydonda ushbu turdagи o'simliklar soni;

«Turning populyaçıya soni» ustunida — maydon birligida ushbu tur sonini aniqlash uchun qo'llaniladigan populyaçıya soni;

«Turning populyaçıya holati» ustunida — kuzatuv natijalariga asosan ushbu tur tarqalishining qisqacha tavsifi;

«Foydalanish» ustunida — hisobot davrida o'simliklarni olib qo'yish ma'lumotlari;

«Iqtisodiy baholash» ustunida — ushbu turdagи yaylov ekinlarining ming so'm birligidagi baholash qiymati ko'rsatiladi.

## **5.16. O'simlik dunyosi ob'ektlari bo'yicha kadastr ma'lumotlarini hududiy darajaga taqdim etish**

O'simlik dunyosi ob'ektlari bo'yicha kadastr ma'lumotlarining to'ldirilgan shakllari tashkilot, xo'jalikning vakolatli shaxsi va rahbari tomonidan imzolanib, muhr bilan tasdiqlanadi.

Tashkilot, xo'jalikning vakolatli shaxsi tomonidan o'simliklar dunyosi ob'ektlari bo'yicha birinchi darajadagi kadastr ma'lumotlari hududiy darajada Davlat ekologiya qo'mitasining vakolatli bo'linmalariga hisobot davridan keyingi yilning 15 fevraligacha ro'yxat asosida taqdim etiladi.

Tashkilot, xo'jalikning vakolatli shaxsi tomonidan Davlat ekologiya qo'mitasining vakolatli bo'linmalariga taqdim etiladigan kadastr ma'lumotlari o'simliklarning turlar bo'yicha tarqalish rejasi, to'ldirilgan shakllar va ilova xatidan iborat bo'ladi.

Kadastr ma'lumotlari hududiy darajaga taqdim etilgandan so'ng ro'yxatdan o'tkazish kitobining «Har yili davlat tomonidan hisobga olish ma'lumotlari» bo'limida «Hisobot yili uchun kadastr ma'lumotlari Davlat ekologiya qo'mitasining vakolatli bo'linmasiga byerildi» yozushi qayd etiladi va kadastr ma'lumotlarini yuborish to'g'risidagi ilova xatining raqami hamda sanasi ko'rsatiladi. Illova xati vakolatli shaxs imzosi bilan tasdiqlanib, uning nusxasi qabul qilingani haqida belgi qo'yilgan holda ro'yxatdan o'tkazish kitobiga yopishtiriladi.

O'simlik dunyosi ob'ektlarining davlat hisobini yuritadigan va kadastr ma'lumotlarini Davlat ekologiya qo'mitasining vakolatli bo'linmalariga taqdim etadigan tashkilotlarning vakolatli shaxslari, rahbarlari kadastr ma'lumotlarining ishonchliligi, to'liqli va qonun hujjatlariga muvofiq o'z vaqtida taqdim etilishi uchun mas'uldir.

## YI. GLOSARIY

**atributiv ma'lumot** — geografik axborot tizimi ob'ektlarining tavsiflarini ta'riflovchi jadvalli va/yoki matnli ma'lumotlar to'plami;

**geografik axborot tizimi (geoaxborot tizimi)** — geografik ob'ektlar to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plash, qayta ishslash, tahlil qilish, modellashtirish va aks ettirish, shuningdek raqamli kartografik, o'xshash va matnli axborotdan foydalangan holda umumdavlat (tarmoqlararo) yoki tarmoq ahamiyatiga molik

axborot va hisob-kitob vazifalarini hal etish uchun mo’ljallangan avtomatlashtirilgan tizim;

**davlat kadastrlari yagona tizimining GAT**— Davlat kadastrlari yagona tizimi masalalarini echish uchun mo’ljallangan ixtisoslashtirilgan GAT;

**davlat kadastrlarini yuritish bo'yicha vakolatli organlar**— zimmasiga ayrim davlat kadastrlarini yuritish funktsiyalari yuklatilgan vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar, xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari;

**tematik qatlam**— ma'lum hududdagi ob'ektlar to'plami uchun umumiyligani koordinatalar tizimida bir mavzuga (o'simliklarga, avtomobil yo'llariga va h.k.) tegishli bir tipdagi fazoviy ob'ektlarni raqamli ifodalash majmui;

**fazoviy (geofazoviy) axborot**— joy ob'ektlarining o'rashgan joyi to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oluvchi, ma'lum shaklda va koordinatalar tizimida ifodalangan axborot.

**geografik axborot tizimi (geoaxborot tizimi)**— geografik ob'ektlar to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plash, qayta ishlash, tahlil qilish, modellashtirish va aks ettirish, shuningdek raqamli kartografik, o'xshash va matnli axborotdan foydalangan holda umum davlat (tarmoqlararo) yoki tarmoq ahamiyatiga molik axborot va hisob-kitob vazifalarini hal etish uchun mo’ljallangan avtomatlashtirilgan tizim;

**geofazoviy ob'ekt** - Yerda muayyan joylashgan joyi bilan tavsiflana-digan va fazoviy-vaqt koordinatalarning belgilangan tizimida aniqlangan real dunyo ob'ekti;

**hududlarning davlat kadastro geoportali** — hududlar davlat kadastrining axborot resurslari to'g'risidagi metama'lumotlar saqlanadi-gan va ulardan hamda Intyernet tarmog'idagi hududlar davlat kadastrining axborot resurslaridan foydalananishni ta'minlaydigan geofazoviy ma'lumotlarning intyernet-vositalari va syervislari majmui;

**geofazoviy ma'lumotlar** — joydagi ob'ektlarning joylashgan joyi to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan, elektron grafik va/yoki matnli shaklda hamda koordinatalar tizimlarida taqdim etilgan axborot;

**hududlarning davlat kadastro** — muayyan hududning tabiiy-resurs va xo'jalik salohiyati, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va ekologik holati to'g'risidagi hududiy- tashkiliy geofazoviy ma'lumotlarni o'z ichiga olgan geoaxborot tizimi. Hududlarning davlat kadastro Davlat kadastrlari yagona tizimining (DKYAT) tarkibiy qismi hisoblanadi;

**geodezik koordinatalar, balandliklar, gravimetrik o'lchovlar davlat tizimlari** — natijalari umumdavlat (tarmoqlararo) ahamiyatiga molik geodeziya va kartografiya ishlarini bajarishda qo'llash uchun O'zbekiston Respublikasi hududida belgilangan geodezik koordinatalar, balandliklar, gravimetrik o'lchovlar tizimlari;

**Davlat kadastrlari yagona tizimi (DKYAT)** — davlat kadastrlarining barcha turlarini birlashtiruvchi hamda O'zbekiston Respublikasi va uning ayrim hududlarining tabiiy-iqtisodiy salohiyati yagona umumdavlat hisob-kitobi yuritilishini, baholanishini ta'minlash uchun mo'ljallangan ko'p maqsadli axborot tizimi;

**hududlar davlat kadastro tizimining axborot resurslari** — hudud yagona raqamli kartografik asosining geofazoviy ma'lumotlar bazasi, manzillar, ko'chalar, mahallalar va boshqa nomlangan ob'ektlar reestrlari, yer kadastro va boshqa davlat kadastrlariga oid geofazoviy ma'lumotlarning profil to'plami, shaharsozlik va yer tuzish normalari va reglamentlari, qonun hujjatlariga muvofiq hududlar davlat kadastro tizimida ro'yxatga va hisobga olinishi lozim bo'lgan boshqa hujjatlar;

**mahalliy koordinatalar tizimi** — davlat hududining cheklangan qismiga nisbatan belgilanadigan koordinatalarning shartli tizimi, uning koordinatalar sanoq boshi va koordinatalar o'qlari yo'nalishi davlat geodezik koordinatalar tizimining koordinatalar sanoq boshi va koordinatalar o'qlari yo'nalishiga nisbatan surilgan bo'ladi;

**metama'lumotlar** — ma'lumotlarning bir qismi oxirgi marta yangilanganda foydalanuvchilarga xabar qilinadigan ma'lumotlar bazasining axborot bilan to'lganligini ta'riflovchi axborot; metama'lu-motlar tarkibiga: matyeriallar va ma'lumotlarning sifati va kelib chiqishi; fazoviy-vaqt tavsiflari; ma'lumotlarni

olish usullari va ularni yangilashning davriyligi; syertifikaçıya, intellektual mulk va tarqatishga bo'lgan cheklovlar to'g'risidagi axborot kiritiladi;

**axborot tizimlari syervislari** — dasturiy-texnik vositalar, ular yordamida hududlar davlat kadastro ma'lumotlari foydalanish uchun taqdim etiladi va ularni qayta ishslash opyeraçiyalari amalga oshiriladi.

**biologik xilma-xillik** — jami hayvonot dunyosi (hayvonlar, o'simliklar, mikroorganizmlar) turlarining xilma-xilligi bo'lib, tur doirasidagi, ekotizimlar turlari va rang-barangligi o'rtaSIDAGI xilma-xillikni o'z ichiga oladi;

**geoma'lumotlar bazalari** — joydagi ob'ektlarning joylashuvi to'g'risida elektron grafik va/yoki matnli shaklda taqdim etilgan va koordinatalar tizimlari haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan axborot;

**hayvonot dunyosi ob'ektlarining davlat hisobi** — tabiiy erkin sharoitda yashaydigan va foydalanish mumkin bo'lgan yoki hududning ekologik muhitiga ta'sir ko'rsatadigan yoxud muayyan hudud doirasida joriy son hamda sifat xususiyatlari bo'yicha kamyob va yo'qolib borayotgan turlar sirasiga kiritilgan yovvoyi hayvonlar to'g'risida axborot to'plash va ushbu ma'lumotlarni hisobga olish hamda kadastr hujjatlarida aks ettirish;

**hayvonot dunyosi ob'ektlarining davlat kadastro** — hayvonot dunyosi ob'ektlari va ulardan foydalanish hajmlarini davlat tomonidan hisobga olish ma'lumotlariga asoslangan, ularning geografik tarqalishi, turlari tarkibi, soni, boshqa son va sifat tavsiflari, yashash muhiti, ulardan xo'jalikda foydalanish va iqtisodiy baholash to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan muntazam yangilanadigan axborot tizimi;

**yovvoyi hayvonlar** — quruqlik, suv, atmosfyera va yerda yashaydigan xonakilashtirib bo'lmaydigan umurtqasiz hayvonlar, baliqlar, suvda ham, quruqlikda ham yashovchi, sudralib yuruvchi hayvonlar, qushlar;

**hududlarni kadastr bo'yicha tekshirish** — hayvonot dunyosi ob'ektlarining ularning son va sifat tavsiflari, geografik tarqalishi, ulardan foydalanish, yashash muhitining holati, ularni iqtisodiy baholash to'g'risida birlamchi ma'lumotlarni to'plash maqsadida ilmiy asosda hisobga olish;

**hayvonot dunyosi ob'ektlarini hisobga olish va boshqa ma'lumotlarni ro'yxatdan o'tkazish kitobi** — hayvonot dunyosi ob'ektlari, ularning turlari tarkibi va soni, yashash muhitining holati, geografik tarqalishi, son va sifat tavsifi, ularni iqtisodiy baholash haqida hamda boshqa yig'ma ma'lumotlarni o'z ichiga olgan kitob;

**hayvonot dunyosining davlat kadastrini ob'ekti** — O'zbekiston Respublikasi hududida tabiiy erkin sharoitda yashaydigan va davlat tomonidan hisobga olinadigan yovvoyi hayvon;

**kadastr ma'lumotlarini birlamchi to'plash** — hayvonlar yashash muhitini birlamchi tekshirish, hayvonlarni va ularning holatiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarni hisobga olish orqali amalga oshiriladi hamda bu borada to'plangan ma'lumotlardan hayvonot dunyosi va ular yashaydigan muhitda ro'y byeradigan o'zgarishlarni taqqoslash uchun foydalilaniladi;

**hayvonot dunyosi ob'ektlarini davlat tomonidan hisobga olish sub'ekti** — muayyan hudud doirasida yovvoyi hayvonlar to'g'risidagi ma'lumotlarni belgilangan tartibda to'playdigan, shakllantiradigan va taqdim etadigan vakolatli davlat organi hamda yuridik shaxs;

**kadastr ma'lumotlarini joriy to'plash** — dastlabki tekshirish o'tkaziladigan hududdagi hayvonlarni ro'y byergan son va sifat o'zgarishlarini aniqlash, ma'lumotlarni hayvonot dunyosi ob'ektlarining davlat kadastriga kiritish uchun har yili hisobga olish;

**asosiy kadastr ma'lumotlarini shakllantirish** — hududni kadastr bo'yicha tekshirish asosida to'plangan hayvonot dunyosi ob'ektlari haqidagi hisobga olish va boshqa ma'lumotlarni dastlabki ro'yxatdan o'tkazish jarayoni;

**joriy kadastr ma'lumotlarini shakllantirish** — hayvonot dunyosi ob'ektlari va ulardan foydalanish hajmlarini davlat tomonidan hisobga olish natijasida to'plangan hayvonot dunyosi ob'ektlari to'g'risidagi hisobga olish va boshqa ma'lumotlar asosida kadastr ma'lumotlariga o'zgartirishlar kiritish jarayoni;

**hayvonot dunyosi ob'ektlarini iqtisodiy baholash** — yovvoyi hayvonning ushbu turidan foydalanish bo'yicha maksimal iqtisodiy samarani pul birliklarida aniqlash.

**biologik xilma-xillik** — jami o'simlik dunyosi (hayvonlar, o'simliklar, mikroorganizmlar) turlarining xilma-xilligi bo'lib, tur doirasidagi, ekotizimlar turlari va rang-barangligi o'rtasidagi xilma-xillikni o'z ichiga oladi;

**geoma'lumotlar bazalari** — joydagi ob'ektlar joylashuvi to'g'risida elektron grafik va/yoki matnli shaklda taqdim etilgan va koordinatalar tizimlari haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan ma'lumotlar;

**o'simlik dunyosi ob'ektlarining davlat hisobi** — ekologik muhitiga ta'sir ko'rsatadigan yoki foydalanish predmeti bo'lgan yoxud kamyob va yo'qolib borayotgan turlar maqomiga ega yovvoyi holda o'suvchi o'simliklar turlari, ularning son hamda sifat holati, shuningdek, tabiiy yaylovlar va pichanzorlarning o'simliklari hamjamiyatlari to'g'risidagi ma'lumotlarni belgilangan uslublar bo'yicha to'plash hamda ushbu ma'lumotlarni hisobga olish va kadastr hujjatlarida aks ettirish;

**o'simlik dunyosi ob'ektlarining davlat kadastro** — o'simlik dunyosi ob'ektlari va ulardan foydalanish hajmlarini davlat tomonidan hisobga olish ma'lumotlariga asoslangan, ularning geografik tarqalishi, turlari tarkibi, soni, boshqa sifat va son tavsiflari, o'sish muhiti, ulardan xo'jalikda foydalanish va iqtisodiy baholash to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan muntazam yangilanadigan ma'lumotlar tizimi;

**yovvoyi holda o'suvchi o'simliklar** — madaniylashtirib bo'lmaydigan daraxtlar, butalar va o'tsimon o'simliklar, qirqquloqsimonlar, yo'sinsi-monlar, suvo'tlar, lishayniklar va zamburug'lar;

**hududlarni kadastr bo'yicha tekshirish** — o'simlik dunyosi ob'ektlarini ularning son va sifat tavsiflari, geografik tarqalishi, ulardan foydalanish, yashash muhitining holati, ularni iqtisodiy baholash to'g'risida birlamchi ma'lumotlarni to'plash maqsadida ilmiy asosda hisobga olish;

**o'simlik dunyosi ob'ektlarini hisobga olish va boshqa ma'lumotlarni ro'yxatdan o'tkazish kitobi** — o'simlik dunyosi ob'ektla-ri, ularning turlari tarkibi va soni, o'sish muhitining holati, geografik tarqalishi, son va sifat tavsiflari, o'sish muhitining holati, ularni iqtisodiy baholash haqida hamda boshqa yig'ma ma'lumotlarni o'z ichiga olgan kitob;

**o'simlik dunyosining davlat kadastrini ob'ekti** — O'zbekiston Respublikasi hududida o'sadigan yovvoyi holda o'suvchi o'simliklar turlari, shuningdek, davlat tomonidan hisobga olinadigan tabiiy yaylovlari va pichan-zorlar o'simliklari;

**kadastr ma'lumotlarini birlamchi to'plash** — o'simliklar o'sadigan muhitni birlamchi tekshirish, o'simliklarni va ularning holatiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarni hisobga olish orqali amalga oshiriladi hamda bu borada to'plangan ma'lumotlardan o'simlik dunyosi va ular o'sadigan muhitda ro'y byeradigan o'zgarishlarni taqqoslash uchun foydalaniladi;

**o'simlik dunyosi ob'ektlarini davlat tomonidan hisobga olish sub'ekti** — muayyan hudud doirasida yovvoyi holda o'suvchi o'simliklar to'g'risidagi ma'lumotlarni belgilangan tartibda to'playdigan, shakllan-tiradigan va taqdim etadigan vakolatli davlat organi hamda yuridik shaxs;

**kadastr ma'lumotlarini joriy to'plash** — dastlabki tekshirish o'tkaziladigan hududdagi o'simliklarni ro'y byergan son va sifat o'zgarishlarini aniqlash, ma'lumotlarni o'simlik dunyosi ob'ektlarining davlat kadastriga kiritish uchun har yili hisobga olish;

**asosiy kadastr ma'lumotlarini shakllantirish** — hududni kadastr bo'yicha tekshirish asosida to'plangan o'simlik dunyosi ob'ektlari haqida hisobga olish va boshqa ma'lumotlarni dastlabki ro'yxatdan o'tkazish jarayoni;

**joriy kadastr ma'lumotlarini shakllantirish** — o'simlik dunyosi ob'ektlarini va ulardan foydalanish hajmlarini davlat tomonidan hisobga olish natijasida to'plangan o'simlik dunyosi ob'ektlari to'g'risi-dagi hisobga olish va boshqa ma'lumotlar asosida kadastr ma'lumot-lariga o'zgartirishlar kiritish jarayoni;

**o'simlik dunyosi ob'ektlarini iqtisodiy baholash** — yovvoyi holda o'suvchi o'simlikning ushbu turidan foydalanish bo'yicha maksimal iqtisodiy samarani pul birliklarida aniqlash.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

## **MUNDARIJA**

### **Kirish**

- V. O'zbekiston Respublikasi Davlat kadastrlari yagona tizimini tashkil etish va uni yuritish tartibi
  - 5.1. Davlat kadastrlari yagonama'lumotlar bazasining geoaxborot tizimiga tegishli tematik qatlamlarni shakllantirish va ularni Davlat kadastrlari yagona tizimiga taqdim etish
  - 5.2. Davlat kadastrlari yagona tizimiga tegishli davlat kadastrlari ma'lumotlarini taqdim etish.
  - 5.3. Davlat kadastrlari yagona tizimining geoaxborot tizimiga taqdim etiladigan ma'lumotlarning tarkibi va mazmuni
  - 5.4. Hududlar davlat kadastrining maqsadlari va vazifalari
  - 5.5. Davlat kadastrlari malumotlari bazasini yaratishda hududlar

davlat kadastrini yuritish

5.6. Hududlarning davlat kadastrini tuzilmasi hamda uni tuzishni  
tashkil etish va yuritish

1.10. Hududlarning davlat kadastrini tuzish tartibi

1.11. Hududlarning davlat kadastrini axborotini foydalanuvchilarga  
byerish

VI. Davlat kadastrlari ma'lumotlari bazasini yaratishda geofazoviy  
ma'lumotlardan foydalanish

6.1. Geofazoviy ob'ektlar to'g'risida tushuncha

6.2. Geofazoviy ma'lumotlar koordinatalarning davlat va mahalliy tizimlari

VII. Xorijiy mamlakatlarda davlat kadastrlarini yuritish tajribalari

7.1. Rossiya federaçiyasidavlat kadastrlarini yuritish

7.2. G'arbiy Evropa davlatlarining kadastr tizimi

7.3. Janubiy Evropa davlatlari tizimlari

VIII. YAngi va raqamli iqtisodiyot sharoitidagi zamonaviy texnolo-giyalar davrida  
o'zgarishlar, ustuvor yo'naliishlar, yutuqlar va rejalar

8.1. Birinchi qadam — zamonaviy AKT - infratuzilmani yaratish

4.2. To'laqonli IT - ekotizimini barpo etish — muhim masala

4.3. Qulay onlayn xizmatlar ko'lami

4.4. Kadrlar bilan ta'minlanganlik darajasi

4.5. YAqin davrdagi vazifalar

4.6. Agrar sohada ham raqamli texnologiyalar

Y. Davlat kadastrlarini yuritish ishlarini yuritishni

takomillashtirish

5.7. Hayvonot va o'simlik dunyosi ob'ektlarining davlat  
kadastrlarini yuritish ishlarini yuritishni takomillashtirish

5.8. Hududlarni kadastr bo'yicha tekshirish, hayvonot dunyosi  
ob'ektlarini davlat tomonidan hisobga olish va ulardan  
foydalanish hajmlarini hisobga olish tartibi

5.9. Hayvonot dunyosi ob'ektlari davlat kadastrining tarkibi

5.10.Hayvonot dunyosi ob'ektlarining davlat hisobini, ulardan foydalanish

hajmlari hisobini va davlat kadastrini yuritish

tartibi

5.11.Hayvonot dunyosi ob'ektlarining kadastr ma'lumotlarini

taqdim etish.

5.12.Kadastr ma'lumotlarini hisobot shakllariga kiritish

5.7. Ro'yxatdan o'tkazish kitobini yuritish

5.14.Kadastr ma'lumotlarini hududiy darajaga taqdim etish

5.15.O'simlik dunyosi ob'ektlarining davlat hisobini, ulardan

foydalanish hajmlari hisobini va davlat kadastrini yuritish

tartibi

5.16. Hududlarni kadastr bo'yicha tekshirish, o'simlik dunyosi

ob'ektlarini davlat tomonidan hisobga olish va ulardan

foydalanish hajmlarini hisobga olish tartibi.

5.17.O'simlik dunyosi ob'ektlarining davlat kadastrining

tarkibi

5.18.O'simlik dunyosi ob'ektlarining davlat kadastrini yuritish

tartibi

5.19.Ro'yxatdan o'tkazish kitobini yuritish

5.14. Ro'yxatdan o'tkazish kitobini saqlash

5.15. O'simlik dunyosi ob'ektlari kadastri ma'lumotlarini

hisobot shakllariga kiritish

5.16. O'simlik dunyosi ob'ektlari to'g'risida grafik shaklidagi

kadastr ma'lumotlarini shakllantirish.

5.17. O'simlik dunyosi ob'ektlari bo'yicha kadastr ma'lumotlarini

hududiy darajaga taqdim etish

YI. GLOSARIY

